

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

ALISHAYEV SOBIR TURSUNBOYEVICH

**SUD HUKMINING QONUNIYLIGI, ASOSLILIGI
VA ADOLATLILIGI**

MONOGRAFIYA

TOSHKENT – 2025

UDK 343.154 (035.3) (575.1)

ISBN

Alishaev S., Sud hukmining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligi, Monografiya. – T.: Nashriyot uyi TGYuU, 2025. – 109 v.

Taqrizchilar: H.Z.Qudratillaev – Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası dotsenti v.b., yu.f.f.d.,

A.Sattarov – O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi sudyasi, yu.f.f.d.

Sud hukmining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligi — adolatli sudlovning poydevori bo‘lib, jinoyat protsessining mazmun-mohiyatini belgilovchi asosiy tamoyillardandir.

Mazkur monografiya sud hukmini qabul qilishda qonun ustuvorligi, dalillarni baholashning ilmiy-nazariy mezonlari va sudning ichki ishonchi shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni chuqur tadqiq etishga qaratilgan. Asarda sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli bo‘lishini ta’minlovchi protsessual kafolatlar, sud amaliyotida uchrayotgan tizimli muammolar, shuningdek, xalqaro standartlar bilan uyg‘unlik masalalari keng yoritiladi.

Monografiya jinoyat-protsessual huquq sohasi tadqiqotchilari, amaldagi sudyalar, prokurorlar, advokatlar, akademik muhit vakillari hamda sud-huquq islohotlarining nazariy asoslari bilan qiziquvchi o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan. Unda sud hukmining huquqiy tabiati, uning mazmunan to‘g‘ri shakllanishi va jamiyatda adolatni ta’minlashdagi o‘rniga doir masalalar kompleks ravishda ko‘rib chiqilgan.

TDYu ilmiy-uslubiy Kengashi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan (2025 yil dekabrda -sonli qarori).

© Alishaev S., Toshkent davlat yuridik universiteti, 2025 y.

MUNDARIJA

KIRISH.....6

I-BOB. HUKM ODIL SUDLOVNING YAKUNIY HUJJATI. 6

§1.1. Hukm chiqarish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan odil sudlovning mohiyatini belgilovchi omillar **Ошибка! Закладка не определена.**
12

§1.2. Sud hukmi turlari va ularni chiqarishning huquqiy asoslari **Ошибка! Закладка не определена.** 27

**II-BOB. SUD HUKMINING QONUNIYLIK TAMOYILI BILAN BOG‘LIQ
JIHATLARI** **Ошибка! Закладка не определена.**
27

§2.1. Qonuniylik prinsipining mazmuni va hukm chiqarishdagi roli. 31

§2.2. Sudyaning vakolati, mustaqilligi va qonunni to‘g‘ri qo‘llash talabi **Ошибка! Закладка не определена.** 39

**III-BOB. SUD HUKMINING ASOSLILIGINI TA‘MINLOVCHI HUQUQIY VA
NAZARIY MEZONLAR. 39**

§3.1. Dalillarni baholashning umumiy qoidalari va ichki ishonchning huquqiy asoslari **Ошибка! Закладка не определена.**
47

§3.2. Dalillarining aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi mezonlari 58

**IV-BOB. SUD HUKMINING ADOLATLILIGI: MAZMUN, MEZONLAR VA
INDIVIDUALIZATSIYA TALABLARI** **Ошибка! Закладка не определена..**
58

§4.1. Adolat prinsipining huquqiy tabiati va konstitutsion asoslari **Ошибка! Закладка не определена.** 68

§4.2. Jazoni individuallashtirish, mutanosiblik va jamoat xavfsizligi talablari **Ошибка! Закладка не определена.** 76

**V-BOB. SUD HUKMINING QONUNIYLIGI, ASOSLILIGI VA ADOLATLILIGINI
TA‘MINLAYDIGAN PROTSESSUAL KAFOLATLARI** **Ошибка! Закладка не определена.** 76

§5.1. Sud muhokamasining oshkoraligi, tortishuv va taraflarning teng huquqliligi **Ошибка! Закладка не определена.**

86

§5.2. Xalqaro standartlarning milliy qonunchilikka implementatsiya masalalari **Ошибка! Закладка не определена.** 95

XULOSA **Ошибка! Закладка не определена.** **99**

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

109

KIRISH

Har qanday demokratik davlat kabi, O‘zbekiston Respublikasi ham samarali va adolatli sudlov tizimining mavjud bo‘lishidan manfaatdordir. Chunki sud hokimiyatining mustaqilligi va faoliyatining shaffof hamda sifatli tashkil etilishi huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy mezonlaridan biridir. Shu bois so‘nggi yillarda olib borilayotgan sud-huquq islohotlari nafaqat milliy sud tizimining tuzilishi va institutsional modelini, balki sudlar tomonidan ishlar, jumladan jinoyat ishlarini ko‘rib chiqish va hal etish amaliyotining o‘ziga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatdi.¹

Sudlov sohasidagi zamonaviy tendensiyalarning muhim yo‘nalishlaridan biri — adolatni amalga oshirishning protsessual shakllarini differentsiatsiya qilish, ya’ni sud jarayonlarini soddalashtirish va ayrim toifadagi ishlar bo‘yicha maxsus tartiblarni joriy etish hisoblanadi. Bu jarayon sudlar tomonidan ishlar ko‘rib chiqilishining soddalashtirilgan tartiblarini rivojlantirish hamda murakkablashtirilgan protsessual shakllarni kengroq qo‘llash orqali namoyon bo‘lmoqda. Bu esa sud faoliyatini optimallashtirish, taraflar huquqlarini ta’minlash va sudlov tezkorligini oshirishga qaratilgan.

Jinoyat-protsessual yo‘nalishda bunday differentsiatsiyaning eng muhim oqibatlaridan biri — an’anaviy “klassik” hukm tushunchasining o‘zgarib borishidir. Ilgari hukm sud tergov natijalari asosida, dalillar to‘la tadqiq etilgandan so‘ng qabul qilinadigan odil sudlovning yakuniy hujjati sifatida qaralgan bo‘lsa, hozirgi sharoitda ayrim protsessual tartiblarda hukm bunday klassik modelga to‘liq mos kelmasligi mumkin. Bu holat o‘z navbatida hukmning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligiga qo‘yiladigan an’anaviy mezonlarni qayta ko‘rib chiqish zaruratini keltirib chiqarmoqda.²

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 21 февралдаги ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”.

² Суд хукмининг асослантиришга оид Европа инсон ҳуқуқлари суди прецедентлари (масалан, *Hadjianastassiou v. Greece*, 1992).

Ayniqsa, gap O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 62¹-bobi (Aybiga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv) haqida bormoqda. Ushbu maxsus tartibga ko‘ra, aybdor shaxs aybini to‘liq tan olgan holatlarda sud tergovi to‘liq hajmda o‘tkazilmasligi mumkin. Bu esa hukmning tavsifiy-asoslantirish qismida dalillarni har tomonlama tahlil qilish talabi qisman soddalashtirilishini anglatadi. Biroq shu bilan birga sud yana ham aybning real holatlarga muvofiqligi, ayb tan olinishining ixtiyoriyligi va ish tergov materiallari bilan uyg‘unligini tekshirish majburiyatini saqlab qoladi. Demak, dalillarni baholash va yuridik xulosaga kelish sudya tomonidan baribir amalga oshiriladi.

Shu tarzda maxsus tartiblar joriy etilishi hukm chiqarishning mohiyatini tubdan o‘zgartirmagan bo‘lsa-da, hukmning motivirovkalanishi va asoslanishiga oid ayrim talablarni qayta baholashga olib kelmoqda.

Jahonda jinoiy odil sudlov sifatini chiqariladigan sud qarorlari orqali kuchaytirishga, bu orqali shaxs huquqlarining ta‘minlanganlik darajasini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, jinoyat ishlarini ko‘rib chiqishga mas‘ul bo‘lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning protsessual huquqiy maqomini qayta ko‘rib chiqish, ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasi asosida hukmlarni shakllantirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish yuzasidan muayyan natijalarga erishilmoqda. Shunga qaramasdan dunyo miqyosida bugungi zamonaviy sharoitlarni inobatga olgan holda, sud amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, hukmlarning mazmunini shakllantirishda har doim ham ularga qo‘yilgan talablarga rioya qilinmayotganligi, ayrim jinoyat-protsessual institutlarning talab darajasida ishlamasligi, sud hukmini chiqarish shartlari va tartibiga oid protsessual normalardagi mavjud bo‘shliqlar bevosita asossiz yoki adolatsiz hukmlar chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun jinoyat ishi holatlarining har tomonlama o‘rganilmasligi sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish uchun sud hukmi mazmunini, hukmni chiqarish shartlarini tadqiq etishga tizimli va kompleks yondashuv tadqiqot mavzusini o‘rganish zaruriyati mavjudligini ko‘rsatadi.

Respublikamizda jinoiy odil sudlovning yakuniy hujjati bo‘lgan sud hukmini shakllantirish bilan bog‘liq huquqiy asoslarini yaratish borasida muayyan natijalarga erishilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi³da sud-tergov amaliyotida, jumladan mamlakatning jinoiy-huquqiy siyosatini samarali ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qilayotgan, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligidagi ayrim normalarning mukammal emasligi bilan bog‘liq bo‘lgan qator muammo va kamchiliklarni ko‘rib chiqish hamda protsessual harakatlarni amalga oshirish tartiblarini, jumladan elektron shaklda dalillarni to‘plash, sud muhokamasi o‘tkazish va sud qarorlarini ijro etish orqali soddalashtirish asosiy vazifalaridan etib belgilangan. Ushbu vazifalar adolatli sud qarorlari qabul qilinishiga erishish orqali xalqning sud tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, sud qarorlari yuzasidan jamoatchilik orasida to‘g‘ri va xolisona fikrni shakllantirish, sud hujjatlarini avtomatik tayyorlash va sud qarorlarini tahlil qilish yo‘nalishida sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish⁴ odil sudlovni samarali usullarini tadqiq etishni taqozo etadi.

I-BOB. HUKM ODIL SUDLOVNING YAKUNIY HUJJATI

§ 1.1. Hukm chiqarish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan odil sudlovning mohiyatini belgilovchi omillar

Adolatli sudlov faoliyatining mohiyatini ochish, uning ichki strukturasi va funksiyalarini tadqiq etish jinoyat ishlari bo‘yicha hukmning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tahlil qilish uchun metodologik poydevor hisoblanadi. Chunki hukm — sud faoliyatining natijasi bo‘lgani bois, uning mazmuni aynan sudlov faoliyatining asosiy xususiyatlariga bog‘liq ravishda shakllanadi.⁵

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ–3723-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.05.2018-y., 07/18/3723/1225-son, 01.10.2018-y., 06/18/5547/1975-son

⁴ 2023 — 2026-yillarga mo‘ljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Harakatlar dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.01.2023 yildagi PF-11-son. <https://lex.uz/ru/docs/-6358976#-6360332>

⁵ Jinoyat-protsessual huquqi (Maxsus qism). Darslik. Mualliflar jamoasi // - Toshkent: TDYU nashriyoti, 2025. 15-21-betlar. <https://library.tsul.uz/category/jinoyat-protsessual-huquqi>.

Shundan kelib chiqib, hukmning asosliligi yoki motivlanganligini baholashni adolatli sudlovning mohiyatidan ajratgan holda tasavvur etish mumkin emas. Ilmiy adabiyotda adolatli sudlovga oid turli nazariy yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, ushbu tadqiqot doirasida adolatli sudlov faoliyat sifatida o'rganiladi. Chunki hukm aynan sud faoliyatining tayanch bosqichlarida vujudga keladi va uning shakllanishi sudyaning protsessual harakatlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Adolatli sudlovni faoliyat sifatida o'rganishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Konstitutsiyaviy sud qarorlarida belgilangan huquqiy yondashuvlar asosiy mezon sifatida qabul qilinadi. Konstitutsiya sud hokimiyatining vazifalarini, prinsiplarini va maqsadlarini belgilab bergan oliy huquqiy hujjat sifatida ushbu masalani o'rganishda metodologik manba bo'lib xizmat qiladi.⁶

Ushbu mohiyatga oid xususiyatlarning orasida ikki asosiysi — sub'ektlik va maqsad alohida ahamiyatga ega, chunki ular hukm chiqarish jarayonining mantiqiy poydevorini tashkil etadi.

1. Sub'ektlik — adolatli sudlovning birinchi va asosiy mohiyat xususiyati. Konstitutsiyaga muvofiq, adolatli sudlov faqat sudlar tomonidan amalga oshiriladi. Bu norma sud faoliyatining asosiy prinsiplaridan biri sifatida sudlovning sub'ektlik xususiyatini belgilab beradi. Sud — mustaqil davlat organi bo'lgani holda, unda adolatli sudlovni amalga oshiruvchi shaxs — sudyadir.

Bu tushuncha “Sudlar to'g'risida”gi Qonunda ham alohida belgilab qo'yilgan: sudya — mustaqil, daxlsiz va faqat qonunga bo'ysunuvchi davlat hokimiyati vakili sifatida sud hokimiyatini amalga oshiradi. Sud apparati xodimlari, kotiblar yoki maslahatchilar sudga texnik yordam ko'rsatishlari mumkin, biroq adolatli sudlov vakolati faqat sudyada bo'ladi. Sudyaning yordamchisi protsessual qaror qabul qilmasligi haqida sof huquqiy cheklovlar mavjud.

Shunday qilib, adolatli sudlovning sub'ektlik xususiyati — hukm chiqarish jarayonining bosh mezonidir. Hukm — sud faoliyatining individuallashtirilgan natijasi

⁶ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, (Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон)

sifatida — aynan sudyaning ichki ishonchi, huquqiy bilimlari va dalillarni baholash qobiliyatiga bog‘liq ravishda shakllanadi.

Sub‘ektlik xususiyati shuni ko‘rsatadiki, hukm — mexanik yoki ma‘muriy qaror emas, balki sudyaning huquqiy-xaqiqiy xulosasi sifatida vujudga keladi. Shu bois, hukmning qonuniyligi va asosliligi bo‘yicha javobgarlik ham sudya zimmasidadir.

2. Adolatli sudlov faoliyatining ikkinchi asosiy xususiyati — maqsad faoliyat nazariyasiga ko‘ra, har qanday faoliyatning asosiy belgilaridan biri — maqsaddir. Maqsad faoliyatning darkorli natijasi haqidagi ongli tasavvur bo‘lib, uning yo‘nalishini, mazmuni va vazifalarini belgilaydi.⁷

Adolatli sudlovning maqsadi va jinoyat ishlari bo‘yicha sudlovning maxsus maqsadi haqidagi masalalar huquqshunoslikda eng bahsli mavzulardan biri bo‘lib, olimlar o‘rtasida turli yondashuvlar mavjud. Ayrim olimlar adolatli sudlovning maqsadini jinoyat sodir etilganini aniqlash deb hisoblasa, boshqalar uni faqat huquqlarni tiklashga qaratilgan deb talqin qiladi.

Ba‘zi tadqiqotlarda esa adolatli sudlovning maqsadi — jamiyatdagi adolatning tiklanishi, qonuniylikni ta‘minlash, aybdorni javobgarlikka tortish va aybsizlarni himoya qilishdan iborat, degan fikrlar keng yoritilgan.

Ushbu tadqiqotda esa adolatli sudlovning maqsadini aniqlashda asosiy mezon sifatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinadi. Konstitutsiyaning 13-moddasiga ko‘ra, inson huquq va erkinliklari — davlatning oliy qadriyatidir. 20-moddada esa fuqarolarning sud orqali himoya qilinishi kafolatlangan.

Shuning uchun adolatli sudlovning maqsadi — faqat aybdorni jazolash emas, balki inson huquqlarini ta‘minlash, adolatni tiklash va jamiyatni qonuniylik asosida himoya qilishdir.

Maqsadning ushbu talqini hukm chiqarish jarayonida bevosita ahamiyatga ega. Chunki hukm — sud faoliyatining maqsadga yo‘naltirilgan xulosasidir; unda

⁷ Очилова Г., "Адолатли судловнинг моҳияти ва вазифалари", ТДЮУ, 2021.

aybdorlik to'g'risidagi masala hal qilinadi, jazo individuallashtiriladi va jamiyat adolatga nisbatan ishonchini tiklashga qaratilgan huquqiy qaror qabul qilinadi.⁸

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasiga muvofiq, inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlari — davlat faoliyatining eng oliy qadriyati hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, adolatli sudlovning maqsadi, avvalo, shaxsning buzilgan huquqlarini samarali himoya qilish va tiklashdan iboratdir. Bu fikr O'zbekiston Respublikasi Oliy sud plenumi qarorining qoidalarida ham o'z aksini topgan bo'lib, u adolatli sudlov faqat adolat talablarini ta'minlagandagina haqiqiy mohiyatga ega ekanini ta'kidlagan.⁹

O'zbekiston huquqiy tizimida ham sud hokimiyatining roli inson manfaatlarini himoya qilish bilan uzviy bog'liq. Konstitutsiyaning 20-moddasi fuqarolarga huquq va erkinliklarining sud tomonidan himoya qilinishini kafolatlaydi. Shuning uchun jinoyat sudlovining maqsadini faqat jazoni qo'llash, aybdorni topish yoki jinoyatni ochish bilan cheklash noto'g'ri bo'ladi — sudlovning mohiyati kengroq va inson huquqlariga qaratilgan.

Shu bilan birga, ayrim olimlar adolatli sudlovning maqsadini faqat «huquqni muhofaza qilish» funksiyasiga kamaytirish bir yo'qlama, deb hisoblaydilar. Ularga ko'ra, sud faoliyati, ayniqsa jinoyat ishlari bo'yicha sudlov, ijtimoiy nizolarni hal etish, jamiyatdagi muvozanatni tiklash va mojarolarni huquqiy yo'l bilan bartaraf etish vazifasini ham bajaradi.

Bu yondashuv to'g'ri, sababi har bir jinoyat ishi — bu, avvalo, jamiyatdagi huquqiy nizo, unda bir tomonda ayblov, ikkinchi tomonda esa ayblanuvchi shaxsning huquqlari mavjud. Sudning vazifasi — bu qarama-qarshilikka huquqiy nuqtai nazardan baho berish, haqiqatni aniqlash va o'z qarorini adolat mezonlari asosida qabul qilish.

⁸ ЕИХС прецеденти: *Hadjianastassiou v. Greece* (1992) — хукминг мотивли бўлиши судьянинг шахсий ички ишонишига боғлиқлиги ҳақида.

⁹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2014 йил 23 майдаги 07-сонли “Суд ҳукми тўғрисида” ги қарори. <https://lex.uz/acts/2413562#2413755>

Biroq jinoyat sudlovining o'ziga xos tabiatidan kelib chiqib, ushbu tadqiqot maqsadini aniqlashda huquqlarni himoya qilish mezoni ustuvor ahamiyatga ega. Sababi:

1. Jinoyat-protsessual munosabatlarga jalb qilingan shaxs (ayblanuvchi, gumonlanuvchi) eng yuqori darajadagi huquqiy cheklovlarga duchor bo'ladi.
2. Hukm — sudning shaxsga nisbatan eng muhim huquqiy ta'sir hujjatidir: unda erkinlikdan mahrum qilish, jazo tayinlash yoki aybsiz deb topish masalalari hal qilinadi.
3. Sud nafaqat ayblanuvchi, balki jabrlanuvchi shaxsning huquq va manfaatlarini ta'minlash hamda jinoyat ta'sirida buzilgan adolatni tiklash bilan ham shug'ullanadi.

Shu nuqtai nazardan, huquqiy ilmiy adabiyotda keng e'tirof etilgan muqobil yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, jinoyat sudlovining maqsadini inson huquqlarini himoya qilish bilan bog'lash ilmiy va amaliy jihatdan eng asosli hisoblanadi. Bu yondashuv O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 2-moddasida belgilangan jinoyat-protsessual faoliyatning vazifalariga ham to'liq mos keladi: qurbon huquqlarini himoya qilish, har bir jinoyat yuzasidan xolis va qonuniy qaror qabul qilish, aybsiz shaxsni javobgarlikka tortmaslik.

Bundan kelib chiqib, sud faoliyatining maqsadini keng ma'noda talqin qilish lozim:

- jinoyat-huquqiy nizoni hal qilish;
- jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- aybsiz shaxslarni huquqiy ta'qibdan muhofaza qilish;
- jabrlanuvchi huquqlarini tiklash;
- adolatni qaror toptirish.

Shu bois hukm — sud faoliyatining shunchaki texnik natijasi emas, balki adolatni ta'minlashning markaziy mexanizmidir.

Sud himoyasi huquqining hukm chiqarish jarayonidagi o'rnini baholar ekanmiz, uning mazmuniy elementlaridan qay biri hukm shakli va mazmuniga bevosita ta'sir ko'rsatishini aniqlash muhim. Zero, sud himoyasi huquqi faqat sudga

murojaat qilish imkoni yoki sud muhokamasiga kirish huquqi bilan cheklanib qolmaydi; u sud qarorining adolatli va qonuniy chiqarilishini ta'minlovchi ko'p qirrali huquqiy mexanizmdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida sud himoyasi huquqi quyidagi jihatlarda o'z aksini topgan: fuqarolarga sud orqali huquq va erkinliklarini himoya qilish imkoniyatini kafolatlaydi; har bir insonning aybsizlik prezumpsiyasiga egaligini belgilaydi; shaxsiy daxlsizlik, erkinlik va xavfsizlik huquqini ta'minlaydi; sud hokimiyatining mustaqilligi va sudning faqat qonunga bo'ysunuvi prinsipini belgilaydi.

Ushbu konstitutsion normalar sud himoyasi huquqining mohiyatini belgilabgina qolmay, balki uning hukmga qo'yiladigan protsessual talablar bilan bevosita bog'liqligini ham ko'rsatadi.

Sud himoyasi huquqi hukm chiqarish jarayoniga quyidagi asosiy yo'nalishlarda ta'sir ko'rsatadi:

1) Sudga erkin murojaat qilish va ishni xolis ko'rib chiqish huquqi. Ish faqat sudda ko'rib chiqilishi mumkinligi sud himoyasi huquqining poydevoridir. Bu huquq hukmda o'z aksini topishi kerak, chunki sud – adolatni tiklovchi yagona konstitutsion organdir.¹⁰

2) Aybsizlik prezumpsiyasi bilan bog'liq talablar. Aybsizlik prezumpsiyasi hukmda aybni isbotlash tartibi va dalillarni baholash mezonlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Sud aybni shubhadan holi darajada isbotlanmagan holda hukm chiqara olmaydi.

3) Asoslangan hukmni olish huquqi. Sud himoyasi huquqining muhim qismi — bu asoslangan va motivlangan sud hukmi olish huquqidir. Bu huquq Yevropa inson huquqlari sudining pretsedentlarida ham markaziy o'rinda turadi.¹¹ O'zbekiston sud amaliyotida ham hukmning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligi JPKning moddalarida qat'iy belgilab qo'yilgan.

¹⁰ Леонтьев А.Н. «Деятельность. Сознание. Личность»

¹¹ Смирнова И.Г. О субъективной природе судебной защиты.

4) Malakali huquqiy yordam olish huquqi. Sud himoyasi huquqi malakali advokat yordamini olish imkoniyatini o'z ichiga oladi. Advokatning ishtirok etmaganligi, yoki huquqiy yordamning formal ravishda amalga oshirilishi sud hukmining adolatli chiqarilishiga to'sqinlik qiladi.

5) Jabrlanuvchining huquqlarini ta'minlash talabi. Sud himoyasi huquqi nafaqat ayblanuvchi, balki jabrlanuvchi haqlarini ham o'z ichiga oladi. Bu hukmda zararining qoplanishini, huquqiy talablarning hal etilishini va jinoyat oqibatlarining bartaraf etilishini ta'minlaydi.

Sud himoyasi huquqining universalligi — uning eng muhim konstitutsion xususiyatlaridan biri. U har bir shaxsga daxldor bo'lib, shaxsning maqomi, jinoyatda ayblanish-ayllanmasligidan qat'i nazar, teng darajada amal qiladi.

Qolaversa, Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasida qayd etilganidek, ayblanuvchi vafot etgandan so'ng ham unga nisbatan jinoyat ishini faqat "reabilitatsiya asoslari yo'qligi" sababli tugatib bo'lmaydi, agar uning yaqinlari uning aybsizligini tan olinishini talab qilsa. Bu holat sud himoyasi huquqining merosiy (nasledstvennyy) xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Shu bois, sud himoyasi huquqi ilmiy adabiyotlarda bejizga "absolyut huquq" deb atalmaydi.

Ilmiy adabiyotda sud himoyasi huquqining mazmunini tashkil etuvchi qismlarga oid yagona fikr mavjud emas. Ayrim olimlar uni ikkita asosiy qismga ajratadi: – sudga murojaat qilish huquqi; – sud himoyasini olish huquqi.

Boshqa mualliflar quyidagilarni tarkibiy qismlarga kiritadi: – suda yuz tuta olish imkoni; – sud qarorlarining ijro etilishi; – advokat yordamini olish; – kafolatlar va protsessual mexanizmlar.

Yana boshqa tadqiqotchilar uning elementlarini «kafolatlar», «talablar», «aspektlar» ko'rinishida tizimlashtirgan.

Biroq ushbu monografiyaning maqsadi — sud himoyasi huquqining barcha nazariy klassifikatsiyasini berish emas. Bizning maqsad — o'sha elementlardan qaysi biri sud hukmining mazmuni va shakliga bevosita ta'sir qilishini aniqlashdir.

Shu nuqtai nazardan, quyidagilar hukm uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega elementlar bo‘lib hisoblanadi: huquqiy aniqlik va asoslantiruvchi qismning mavjudligi; dalillarni baholashning qonunga muvofiqligi; advokat yordamining real va samarali bo‘lishi; jabrlanuvchi huquqlarining tiklanishi; sudlovning xolisligi va mustaqilligi.

§ 2.1. Sud hukmi turlari va ularni chiqarishning huquqiy asoslari

Hukm odil sudlov hujjati sifatida jinoyat ishini yuritish yuzasidan asosiy masalani: unga e‘lon qilingan ayblov bo‘yicha shaxsning aybli yoki aybsizligi masalasini hal etadi. Sud o‘z hukmida O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish ko‘ruvchi va odil sudlovni amalga oshiruvchi mansabdor shaxs sifatida ish holatlariga o‘zining huquqiy bahosini beradi. Hukmning aynan qaysi turi chiqarilishi esa jinoyat ishi holatlariga uzviy bog‘liqdir.

JPKning 462-moddasiga muvofiq, jinoyat ishi mazmunan ko‘rilishi natijasi yuzasidan sud ayblov yoki oqlov hukmi chiqarishi mumkin. Demak, hukm ayblov yoki oqlov mazmunida rasmiylashtiriladi. Ikkala turdagi hukmni chiqarish huquqiy asoslari jinoyat-protsessual qonunchiligimizda aniq belgilab qo‘yilgan. Xususan, shaxsning aybi sud muhokamasi davomida to‘liq isbotlangan va u dalillar majmui bilan tasdiqlangan taqdirda sudlanuvchiga nisbatan ayblov hukmi chiqariladi.

Boshqacha aytganda, ayblov hukmi – birinchi yoki yuqori instansiya sudining shaxsning aybdorligi va unga jazo tayinlash to‘g‘risidagi, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa jazo tayinlamaslikni yoki tayinlangan jazodan ozod qilishni nazarda tutuvchi qaroridir. Ayblov hukmining qaror qismini o‘rgangan olim T.A.Obidov unga quyidagicha nisbatan batafsilroq ta’rif bergan: “Ayblov hukmi – bu O‘zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladigan, sudyalarning jinoyat bo‘yicha berilgan jinoiy-huquqiy bahosi hamda jinoyat tufayli kelib chiqqan huquqiy oqibatlarini bevosita va xolisona aks ettirish, aybdor shaxsga nisbatan jazo yoki boshqa huquqiy ta’sir choralari qo‘llash, jabrlanuvchining buzilgan huquqlarini

tiklash hamda yetkazilgan zararni undirishga qaratilgan qarori aks etgan protsessual hujjat hisoblanadi”¹².

Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligimizda ayblov hukmlarining bir necha turlari ko‘rsatib o‘tilgan. Ularni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: jazo tayinlanadigan; jazo tayinlanmasdan chiqariladigan; jazo tayinlanadigan, biroq undan ozod qiladigan. Ayblov hukmining qaysi turini qo‘llash asoslari jinoyat-protsessual qonunchiligimizda aniq belgilangan bo‘lib, ushbu huquqiy asoslarni kengaytirish yoki qisqartirish masalasi protsessualist olimlar tomonidan turlicha talqin qilib kelinadi. Xorijiy davlatlar tajribasida ham ushbu masalada aniq bir to‘xtam mavjud emas. Ayniqsa, jazodan ozod qilinib yoki jazo tayinlanmasdan chiqariladigan ayblov hukmlari dolzarb bo‘lishiga qaramasdan jinoyat-protsessual huquqida yetarli darajada o‘rganilmagan. Chunki jazodan ozod qilib yoki jazo tayinlanmasdan ayblov hukmi chiqariladigan asoslab mavjud bo‘lganda, mazkur qoidalarga amal qilmasdan sudlanuvchiga jazo tayinlab ayblov hukmi chiqarilishi holatlari sud amaliyotida haligacha uchrab turadi¹³. Ushbu holatlarga barham berish uchun jazodan ozod qilib va jazo tayinlanmasdan chiqariladigan ayblov hukmlarining huquqiy asoslarini batafsil tahlil qilish zarur deb hisoblaymiz.

Jinoyat-protsessual qonunchilikda sudlar tomonidan *jazo tayinlanmasdan* chiqariladigan ayblov hukmini to‘liq bo‘lmagan ayblov hukmi, deyish mumkin. Umuman olganda ushbu turdagi hukmni ayblov hukmi deb bo‘lmaydi. Chunki unda ayblov xususiyati mavjud emas va ayblov hukmiga qo‘yilgan talablarga javob bermaydi. Masalan, sudlanuvchi bunday turdagi hukm bilan sudlanmagan hisoblanadi, uning jinoiy-huquqiy oqibatlarini oddiy ayblov hukmidan farq qiladi. Shuning uchun ham jinoyat-protsessual huquqi nazariyasida ushbu turdagi ayblov hukmini qonunchilikdan umuman chiqarib tashlash bo‘yicha ham tortishuvlar

¹² Obidov T.A. Ayblov hukmining qaror qismiga qo‘yilgan talablar. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent – 2023. – 176.

¹³ Обидов Т.А. Айблов ҳукми тушунчаси ва унинг юридик табиати. “Та’лим ва innovatsion tadqiqotlar” ilmiy va ilmiy texnik onlayn konferensiya. <https://conf.sciencebox.uz/index.php/INNOVATSIYA/article/download/445/410>

davom etib kelmoqda¹⁴. Uning mohiyatiga e'tibor beradigan bo'lsak, *jazo tayinlanmasdan chiqariladigan ayblov hukmi –O'zbekiston Respublikasi nomidan qonunda nazarda tutilgan hollarda birinchi yoki yuqori instansiya sudlari tomonidan chiqariladigan, jazo tayinlashdan ko'zlangan maqsadlarga erishishga zarurat yo'qligi munosabati bilan jazo tayinlanmaydigan shaxsning aybdorligi to'g'risidagi qarordir.*

JPKning 463-moddasi bu masalani huquqiy jihatdan tartibga solgan. Mazkur moddaga ko'ra:

1) mahkumning qilmishiga nisbatan jazo tayinlashni istisno etadigan amnistiya akti e'lon qilingan bo'lsa;

2) shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish uchun qonunchilikda o'rganilgan protsessual muddat o'tib ketgan bo'lsa;

3) hukm chiqarish vaqtiga kelib, uni sodir etgan shaxs ijtimoiy xavfli bo'lmay qolsa yoki qilmish ijtimoiy xavfliligini yo'qotsa;

4) mahkumning har jihatdan tuzalishiga jamoat ta'sir choralari yoki ma'muriy jazo choralari ko'rish yo'li bilan erishish mumkin bo'lsa;

5) hukm chiqarish bosqichiga kelib sudlanuvchi vafot etgan bo'lsa;

6) shaxsni o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi tufayli jazodan ozod qilish uchun asoslar mavjud bo'lsa.

Ushbu keltirilgan holatlardan xulosa qilish mumkinki, ularning aksariyati jinoyat qonunchiligidagi shaxsni javobgarlikdan ozod qilish asoslaridan kelib chiqib qo'llaniladi.

Xorijiy davlatlar tajribasi, masalan **Gruziya Respublikasi** JPKning 269-moddasida faqat bitta holatda – hukm chiqarish vaqtiga kelib shaxs vafot etgan taqdirda sud jazo tayinlamasdan hukm chiqaradi¹⁵. **Estoniyada** esa milliy qonunchiligimizdan farqli ravishda ayblov hukmi turlarga ajratilmagan. **Moldova Respublikasi** JPKning 389-moddasida esa faqat to'rt holatda – shaxsning

¹⁴ Овсяюкова, А. В. К вопросу о правовом регулировании постановления обвинительного приговора без назначения наказания / А. В. Овсяюкова // Modern Science. – 2020. – № 7-1. – С. 173-176. – EDN AUTSLE. https://elibrary.ru/download/elibrary_43130306_10529763.pdf

¹⁵ Уголовно-процессуальный кодекс Грузии. Законодательный Вестник Грузии-ЗВГ, 31, 03/11/2009. <https://matsne.gov.ge/ru/document/view/90034?publication=130>

qilmishidan pushaymonligi, sharoit o'zgarganligi, javobgarlikka tortish muddati o'tganligi va voyaga yetmaganga majburiy tarbiyaviy ta'sir choralarini qo'llash zarurati yuzaga kelganda sud jazo tayinlamasdan hukm chiqaradi¹⁶. **Qirg'iziston Respublikasi** JPKning 349-moddasiga muvofiq, ikki holatda – shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tgan va shaxs jazoni o'tashiga to'sqinlik qiladigan og'ir kasallikka chalingan bo'lsa, jazo tayinlanmasdan ayblov hukmi chiqariladi¹⁷. Ushbu ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, tahlil qilinayotgan masala yuzasidan xorij davlatlarda xar xil yondashuv mavjud va bir biridan farq qiladi.

Jazo tayinlamasdan ayblov hukmini chiqarish bilan bog'liq, huquqni qo'llash bilan bog'liq muammoli holatlar sud amaliyotida xaligacha uchraydi. Xususan amaldagi qonunchiligimizni tahlil qiladigan bo'lsak, Jinoyat kodeksi 87-moddasining 2-qismida ko'rsatilgan asoslar bilan voyaga yetmaganni jazodan ozod etish va unga nisbatan shu kodeksning 88-moddasida ko'rsatilgan majburlov choralarini qo'llash yuzasidan sud jazo tayinlamasdan turib jazodan ozod etish haqida hukm chiqaradi. Bu holatda sud majburlov chorasini qo'llash yoki qo'llamaslik to'g'risida xulosasini o'z hukmida ko'rsatishi zarur¹⁸. Demak, jabrlanuvchidan uzr so'rash majburiyatini yuklash, o'n olti yoshga to'lgan shaxs zimmasiga yetkazilgan zararni o'z mablag'i hisobidan yoki mehnati bilan to'lash yoki bartaraf qilish majburiyatini yuklash va voyaga yetmaganni maxsus o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish uchun sud tomonidan jazo tayinlanmasdan ayblov hukmi chiqarilishi zarur. Biroq, voyaga yetmaganlarga nisbatan ushbu majburlov choralarini qo'llash yuzasidan sudning ayblov hukmlari o'rganilganda birorta ham jazo tayinlamasdan chiqarilgan hukm uchramadi. Buning ustiga, JPKning 463-moddasida ham bu holat jazo tayinlanmasdan hukm chiqarish mumkin bo'lgan asoslar orasida ko'rsatilmagan. Uning 4-bandida nazarda tutilgan mahkumning

¹⁶ Уголовный кодекс Республики Молдова от 18 апреля 2002 года № 985-XV (с изменениями и дополнениями по состоянию на 24.11.2023 г.). https://continent-online.com/Document/?doc_id=30394923#pos=1220;5

¹⁷ Кодекс КР от 28 октября 2021 года № 129 "Уголовно-процессуальный кодекс Кыргызской Республики". <https://cbd.minjust.gov.kg/112308/edition/8273/ru>

¹⁸ “Вояга етмаганларнинг жиноятлари ҳақидаги ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарори, 15.09.2000 йилдаги 21-сон. <https://lex.uz/ru/docs/1449720>

tuzalishiga jamoat birlashmalari va jamoalar tomonidan qo‘llaniladigan jamoat ta’sir choralari qo‘llagan holda shaxsni jazodan ozod qilish JKda nazarda tutilmagan¹⁹.

Shuningdek, “Respublika o‘quv-tarbiya muassasalari to‘g‘risida”gi Nizomda voyaga yetmaganlarni o‘quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish va qabul qilish *sud ajrimi asosida* amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan²⁰. Xuddi shunday *sudning ajrimi bilan joylashtirish* tartibi “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-263-son O‘zbekiston Respublikasi qonunida ham uchratish mumkin. Bundan tashqari, JPKning 564-moddasida ham sud yuqoridagi majburlov choralari qo‘llanish yoki qo‘llanmaslik to‘g‘risida asoslantirilgan ajrim chiqarishi belgilangan.

Mazkur masala yuzasidan ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligi o‘rganilganda, xususan **Rossiya Federatsiya** JPKning 432-moddasida sud voyaga yetmaganni jazodan ozod qilib, hukm chiqargan holda unga nisbatan majburlov choralari qo‘llashi mumkinligi nazarda tutilgan²¹. **Qozog‘iston Respublikasi** JPKning 545-moddasida ham sud hukm chiqarib, unda voyaga yetmaganni jazodan ozod qilishi va unga majburiy tarbiyaviy ta’sir choralari qo‘llashga haqli ekanligi mustahkamlangan. Xuddi shunday mazmundagi normani **Moldova Respublikasi** JPKning 389-moddasida ham uchratish mumkin²².

Ushbu masalani o‘rgangan protsessualist olim I.V.Smolikova og‘ir bo‘lmagan yoki o‘rtacha og‘irlikdagi jinoyatni sodir etgan voyaga yetmaganga nisbatan sud unga jazo tayinlanmasdan ham xulq-atvorini tuzatish mumkin, degan xulosaga kelsa, jazo tayinlanmasdan ayblov hukmi chiqarish orqali majburiy tarbiyaviy ta’sir choralari qo‘llashi kerakligini ta’kidlaydi²³. Yu.V.Kozubenko ham voyaga yetmaganlarga majburlov choralari qo‘llanilgan holda jazodan ozod qilingan

¹⁹ Тошпулатов А. Жиноий жавобгарликдан ва жазодан озод қилишда Жиноят кодекси принципларнинг аҳамияти //Общество и инновации. – 2023. – Т. 4. – №. 1/5. – С. 216-226.

²⁰ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 17.10.2019 йилдаги 880-сон. <https://lex.uz/docs/4559131>

²¹ "Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации" от 18.12.2001 N 174-ФЗ (ред. от 29.05.2024) (с изм. и доп., вступ. в силу с 01.07.2024). https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34481/

²² Уголовный кодекс Республики Молдова от 18 апреля 2002 года № 985-XV (с изменениями и дополнениями по состоянию на 24.11.2023?doc_id=30394923#pos=1220;5

²³ Смолькова И. В., Попова И. П. Обвинительный приговор без назначения наказания в отношении несовершеннолетнего: понятие, значение и правовые последствия //Академический юридический журнал. – 2018. – №. 1. – С. 44-50. https://www.elibrary.ru/download/elibrary_32476766_12279336.pdf

taqdirda, sud jazo tayinlamasdan ayblov hukmi chiqarishi kerakligi to'g'risida xulosaga kelgan²⁴. Shunday mazmundagi takliflarni I.P.Popovning tadqiqot ishida ham uchratish mumkin²⁵. Ushbu olimlarning fikrlariga to'liq qo'shilgan holda tahlil qilinayotgan masala jinoyat-protsessual qonunchiligimizda aniq aks etishi zarur deb hisoblaymiz.

Shuningdek, tadqiqot ishi doirasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 56,7 foizi o'rganilayotgan masala yuzasidan sudlar jazo tayinlamasdan hukm chiqarishi kerakligini ta'kidlashgan²⁶.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, JPKning 564-moddasi 2-qismini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

*Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan ishni ko'rishda Jinoyat kodeksi 87-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan hollarda sud voyaga yetmagan shaxsni jazodan ozod qilish va unga nisbatan majburlov chorasini qo'llanish to'g'risidagi masalani muhokama etishi shart. **Bu holatda sud voyaga yetmaganga nisbatan majburlov choralarini qo'llash yuzasidan jazo tayinlamasdan ayblov hukmi chiqaradi.***

Shundan kelib chiqib, JPKning 463-moddasi 3-qismini quyidagi mazmundagi 7-band bilan to'ldirish taklif etiladi:

7) sud tomonidan voyaga yetmaganga nisbatan majburlov choralarini qo'llash zarurati yuzaga kelganda.

Bundan tashqari, jazo tayinlanmasdan chiqariladigan ayblov hukmining qo'llashda yuzaga kelayotgan muammolardan biri – bu hukm chiqarish vaqtiga kelib, uni sodir etgan shaxs ijtimoiy xavfli bo'lmay qolishi yoki qilmish ijtimoiy xavfliligini yo'qotishi holatidir. JPKning 84-moddasi 5-qismi 1-bandi mazmunidan kelib chiqadigan bo'lsak, mazkur holatda sud *ajrim* chiqargan holda jinoyat ishini tugatishi kerak. Chunki, JPKning 421-moddasi (Sud majlisida jinoyat ishining

²⁴ Козубенко Ю. В. Основания освобождения от наказания при постановлении обвинительного приговора //Lex russica. – 2014. – №. 12. – С. 1430-1442. <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovaniya-osvobozhdeniya-ot-nakazaniya-pri-postanovlenii-obvinitelnogo-prigovora>

²⁵ Попова И.П. Обвинительный приговор без назначения наказания в российском уголовном судопроизводстве: сущность, основания и порядок постановления. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. - Томск – 2018. –С. 9.

²⁶ Сўровнома натижалари ишининг илова қисмида кўрсатилган

tugatilishi) mazmuniga ko‘ra, faqatgina JPK 84-moddasi birinchi qismining 1, 2, 3 va 8-bandlarida nazarda tutilgan asoslar aniqlangan hollardagina sudlar aybdor shaxsga jazo tayinlamay, ayblov hukmi chiqaradi. Biroq, ushbu masala yuzasidan sudlarga alohida tushuntirish berilmaganligi sababli sudlarda qonunni ikki xil qo‘llash amaliyoti shakllanib ulgurgan.

Xususan, hukm chiqarish vaqtiga kelib, uni sodir etgan shaxs ijtimoiy xavfli bo‘lmay qolishi yoki qilmish ijtimoiy xavfliligini yo‘qotgan hollarda ayrim sudlar JPKning 84-moddasi 5-qismi 1-bandi mazmunidan kelib chiqib, ishni tugatish to‘g‘risida ajrim chiqarish yo‘li bilan masalani hal etayotgan bo‘lsalar, ayrim sudlar JPKning 463-moddasi 3-qismi 3-bandi talablaridan kelib chiqib, jazo tayinlamasdan ayblov hukmi chiqarish yo‘li bilan masalani hal etmoqdalar. Ushbu muammoning yechimi yuzasidan yagona fikr mavjud emas.

Buni sud amaliyotiga oid amaliy misol doirasida ham ko‘rishimiz mumkin. Xususan, A.Yavkashtiyev Zangiota tumani, Istiqlol M.F.Y., Katta bog‘ ko‘chasi, 152-uy manzilidagi binoda tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan, mebel ishlab chiqarish sexini tashkil qilib, ushbu sexda noqonuniy ravishda umumiy foydalanishdagi elektr tarmog‘iga tijorat maqsadida, Zangiota TET bilan o‘zaro shartnoma tuzmasdan o‘zboshimchalik bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri ulanib olib, 23.08.2023-yildan 16.09.2023-yilga qadar foydalanib kelib, jami 44.784.900 so‘m ancha miqdordagi davlat mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilgan. A.Yavkashtiyevning shaxsini, muqaddam sudlanmagani, oilasining yagona boquvchisi ekanligini, voyaga yetmagan farzandlari borligini, yetkazilgan zararni to‘liq qoplab bergani yengillashtiruvchi holatlar deb, og‘irlashtiruvchi holatlar mavjud emasligini, shuningdek sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini e‘tiborga olib, A.Yavkashtiyevga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi JKning 70-moddasiga asosan shaxsning ijtimoiy xavfli xususiyatini yo‘qotdi deb topib, jazodan ozod qilishni lozim topgan.

Sud hukmning qaror qismida sudlanuvchini O‘zbekiston Respublikasi JKning 169-moddasi 2-qismining “b,d” bandlari bilan aybli deb topib, O‘zbekiston Respublikasi JKning 70-moddasiga asosan jazodan ozod etgan²⁷.

Biroq, mazkur hukmning qaror qismini JPKning 463-moddasi talablariga rioya qilingan deb bo‘lmaydi. Chunki hukm mazkur moddaning 3-qismi (jazo tayinlamasdan ayblov hukmi chiqarish) tartibida emas, 2-qismi (jazodan ozod qilib, ayblov hukmi chiqarish) tartibida chiqarilgan. Bundan tashqari, sudlanuvchi o‘z aybiga iqror emasligi, uning ish yuritishni so‘rab murojaat qilmaganligi hukmning tavsif qismida ko‘rsatilishi kerak edi, aks holda ish JPKning 84-moddasi 5-qismi bilan tugatilishiga asos bo‘ladi.

Statistik ma’lumotlar o‘rganilganda 2022-yil Respublikamizda sudlar tomonidan 729 ta ish bo‘yicha JPKning 463-moddasi 3-qismi 3-bandi (*hukm chiqariladigan vaqtga kelib, qilmish ijtimoiy xavfliligini yo‘qotsa yoki uni sodir etgan shaxs ijtimoiy xavfli bo‘lmay qolsa*) bilan jazo tayinlanmasdan ayblov hukmi chiqarilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilda 730 tani, 2024-yilning 9 oyi davomida esa 448 tani tashkil etgan²⁸. Mazkur raqamlar tarkibiga JPKning 84-moddasi 5-qismi 1-bandiga asosan tugatilgan ishlar kirmaydi.

Afsuski, milliy protsessualist olimlarimizning ilmiy tadqiqot ishlarida mazkur holat o‘rganilmagan va shuning uchun ham ushbu sud amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ham milliy ilmiy fondimizda uchramaydi. Rus protsessualist olimi Yu.V.Kozubenko fikricha, agarda shaxsning o‘zi e’tiroz bildirmasa (ya’ni, sudlanuvchining roziligi bilan) ish yurituv to‘xtatilishi va bu to‘g‘risida qaror (ajrim) rasmiylashtirilishi zarur²⁹. Agarda shaxs ishning tugatilishiga e’tiroz bildirsa, ish umumiy tartibda davom etishi va yakuni bo‘yicha jazo tayinlanmasdan ayblov hukmi chiqarilishi kerak. Ushbu olimning fikrlariga qo‘shilish mumkin. Chunki, JPKning 84-moddasi 5-qismi bo‘yicha ishni tugatish uchun shaxsning roziligi talab qilinadi va har doim ham shaxs ishning tugatilishiga

²⁷public.sud.uz/report/CRIMINAL

²⁸ Статистик маълумотлар тадқиқот ишининг илова қисмида келтирилган

²⁹ Козубенко Ю. В. Об основаниях постановления обвинительного приговора без назначения наказания. https://www.elibrary.ru/download/elibrary_21790475_94072549.pdf

rozi bo‘lmasligi ham mumkin. Bunday hollarda sudning qarori ham ikki xil ko‘rinishida bo‘lishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Undan tashqari, shaxs e’tiroz bildirgan taqdirda, ish umumiy asoslarda davom etishi va yakuni bo‘yicha jazo tayinlanmasdan ayblov hukmi chiqarilishi zarurligi T.G.Chernenko³⁰, A.S.Zinovev³¹, N.P.Kirillovalar³² tomonidan ham asoslab berilgan. Ushbu olimlarning fikrlariga to‘liq qo‘shilgan holda aytish mumkinki, *JPKning JPK 463-moddasi 3-qismi 3,6-bandlari bo‘yicha hukm chiqarish uchun sudlanuvchi o‘ziga nisbatan ish yurituvni JPK 84-moddasi 5-qismiga asosan tugatilishiga rozi (ariza bermagan) bo‘lmagan bo‘lishi shart*. Aynan shu shart qonunchilikda tahlil qilinayotgan huquq normasini qo‘llashdagi muammoni hal etishga yordam beradi.

Yana bira muammoli holat – bu amnistiya akti e’lon qilingan hollarda ish yurituvni qanday huquqiy asosga ko‘ra yakunlash masalasidir. JPKning 84-moddasi, 421-moddasi va 463-moddasi mazmunidan kelib chiqadigan bo‘lsa, mazkur holatda sud tomonidan jazo tayinlamasdan ayblov hukmi chiqariladi. Biroq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 22-dekabrdagi 16-sonli “Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorida ham qanday hollarda jazodan ozod qilinib, qanday hollarda jazo tayinlanmasdan ayblov hukmi chiqarilishi kerakligi yuzasidan aniq chegara belgilab berilmagan³³. Ushbu masalani o‘rgangan ayrim olimlar, xususan Ye.V.Skutina fikricha, hukm chiqarilgunga qadar amniyatiya akti e’lon qilingan yoki xuddi shunday holatda ayblanuvchi, sudlanuvchi unga nisbatan amnistiya akti qo‘llanilishiga e’tiroz bildiradigan bo‘lsa, sud aybdor shaxsga jazo tayinlab, so‘ng uni jazodan ozod qilishi zarur. Olim bunday holatda jazo tayinlamasdan ayblov

³⁰ Черненко Т. Г. Обвинительный приговор без назначения наказания //Вестник Кузбасского института. – 2022. – №. 1 (50). – С. 104-112. <https://cyberleninka.ru/article/n/obvinitelnyy-prigovor-bez-naznacheniya-nakazaniya>

³¹ Зиновьев, А. С. О возникающих на практике сложностях при постановлении приговоров с освобождением от наказания и без назначения наказания / А. С. Зиновьев // Российское правосудие. – 2008. – № 10(30). – С. 49-54. – EDN KRRYQZ. https://elibrary.ru/download/elibrary_12689781_79746377.pdf

³² Кириллова Н. П. Некоторые проблемы реализации уголовно-правовых норм, регулирующих освобождение от уголовной ответственности и наказания //Вестник Санкт-Петербургского университета. Право. – 2010. – №. 1. – С. 84-93. <https://cyberleninka.ru/article/n/nekotorye-problemy-realizatsii-ugolovno-pravovyh-norm-reguliruyuschih-osvobozhdenie-ot-ugolovnoy-otvetstvennosti-i-nakazaniya>

³³ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг Қарори, 22.12.2006 йилдаги 16-сон

hukmi chiqarishga zarurat yo‘qiliga ishora qilgan³⁴. Ammo, javobgarlikdan ozod qilingan shaxsga nisbatan sud tomonidan yana jazo tayinlanishi va undan yana ozod qilinishi mantiqsiz deb hisoblaymiz.

Navbatdagi masala O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida shaxsning o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi tufayli yoxud belgilangan muddat ichida yetkazilgan moddiy zararining o‘rni qoplanganligi va (yoki) jinoyat oqibatlari bartaraf etilganligi munosabati bilan uni javobgarlikdan ozod qilinishi tartibi (JPKning 84-moddasi 1-qismi 8-bandi) bilan bog‘liq. Bunday hollarda sud tomonidan, agar sudlanuvchi yoki vafot etgan sudlanuvchining yaqin qarindoshlari talab qilsa, ishni yuritish umumiy tartibda davom ettirilib, hukm qilish uchun asoslar mavjud bo‘lsa, ayblov hukmi jazo tayinlanmasdan chiqariladi. Ammo, JPKning 463-moddasi 3-qismida bu holat alohida huquqiy asos sifatida belgilanmagan. Qonundagi ushbu bo‘shliqni to‘ldirish uchun JPKning 463-moddasi 3-qismini quyidagi mazmundagi 8-band bilan to‘ldirish taklif etiladi:

8) O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida shaxsning o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi tufayli yoxud belgilangan muddat ichida yetkazilgan moddiy zararining o‘rni qoplanganligi va (yoki) jinoyat oqibatlari bartaraf etilganligi.

Ayrim xorijiy davlatlar jinoyat-protsessual qonunchiligini tahlil qiladigan bo‘lsak, **Rossiya Federatsiyasi** JPKning 27-28-moddalari tahlilida ham ishni tergov yoki sud bosqichida tugatishning muhim sharti – aybdor shaxsning roziligi talab qilinishi, agarda shaxs bunga e‘tiroz bildiradigan bo‘lsa, ish umumiy asoslarda davom ettirilishi mustahkamlab qo‘yilgan³⁵. **Qozog‘iston Respublikasi** JPKning 35-36-moddalariga muvofiq, jinoyat ishining davom etishi shaxsning roziligiga

³⁴ Скутина Е.В. Амнистия в уголовном судопроизводстве. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Екатеринбург — 2009. https://static.freereferats.ru/_avtoreferats/01004248754.pdf?ver=4

³⁵ "Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации" от 18.12.2001 N 174-ФЗ (ред. от 29.05.2024) (с изм. и доп., вступ. в силу с 01.07.2024). https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34481/9ac0cd11bf508b541e6ab933243fae10e4a8a005/

bog'liq. Shunday mazmundagi normani **Qirg'iziston Respublikasi** JPKning 302-moddasida ham uchratish mumkin³⁶.

Bizningcha, JPKning 84-moddasi birinchi qismining 1, 2, 3 va 8-bandlarida va 5-qismining 1, 2, 3-bandlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha agar sudlanuvchi yoki vafot etgan sudlanuvchining yaqin qarindoshlari talab qilsagina, ishni yuritish umumiy tartibda davom ettirilishi kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, jazo tayinlanmasdan chiqariladigan ayblov hukmi ayblov hukmining bir ko'rinishi sifatida unga qo'yilgan talablarga javob berishi kerak. Xususan, uning qaror qismida shaxsning aybli deb topilganligi to'g'risidagi qaror, tayinlangan jazo turi va me'yori ko'rsatilishi shart. Bu masala JPKning 468-moddasida ham tartibga solingan. Ammo, ushbu modda faqat jazo tayinlanadigan ayblov hukmlarini nazarda tutgan bo'lib, jazodan ozod qilib yoki jazo tayinlanmasdan chiqariladigan ayblov hukmlarining qaror qismlarini o'zida to'liq aks ettirmaydi. Mazkur holatga e'tibor qaratgan protsessualist olim I.E.Zvecharovskiy shaxs jazodan ozod etilgan yoki jazo tayinlanmasdan hukm chiqarilgan taqdirda hukmning qaror qimida bu haqida ma'lumot berilishi zarurligini ta'kidlaydi³⁷. Haqiqatdan ham bu masala jinoyat-protsessual qonunchilikda ochiq qolgan. Yu.V.Kozubenko ham jazo tayinlanmasdan hukm chiqarilganda bu hukmning qaror qismida ko'rsatilishi kerakligi to'g'risida xulosaga kelgan³⁸. Ushbu olimlarning fikrlariga to'liq qo'shilgan holda hukmning qaror qismida sudning xulosalari to'liq aks etishi lozim, deb hisoblaymiz.

Shundan kelib chiqib, JPKning 468-moddasi 3-qismini quyidagi mazmundagi tahrir etish taklif etiladi:

Sudlanuvchi jazoni o'tashdan ozod qilingan bo'lsa yoki jazo tayinlanmasdan ayblov hukmi chiqarilgan taqdirda, bu haqda hukmning qaror qismida ko'rsatiladi.

³⁶ Кодекс КР от 28 октября 2021 года № 129 "Уголовно-процессуальный кодекс Кыргызской Республики". <https://cbd.minjust.gov.kg/112308/edition/8273/ru>

³⁷ Звечаровский, И. Э. Постановление обвинительного приговора без назначения наказания (ст. 92 УК РФ) / И. Э. Звечаровский // Уголовное право. – 2016. – № 2. – С. 35-39. – EDN WHWTGN. https://elibrary.ru/download/elibrary_26498879_69398629.pdf

³⁸ Козубенко Ю. В. Основания освобождения от наказания при постановлении обвинительного приговора // Lex russica. – 2014. – №. 12. – С. 1430-1442. <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovaniya-osvobozhdeniya-ot-nakazaniya-pri-postanovlenii-obvinitelnogo-prigovora>

Shu bilan birga, hukm chiqarish vaqtida alohida xonada (maslahatxonada) hal qilinadigan masalalarni yana bittaga ko‘paytirish va jazodan ozod qilish yoki jazo tayinlamasdan ayblov hukmi chiqarish uchun asoslar bor yoki yo‘qligini aniqlashni sudlarning vazifasi etib belgilash to‘g‘ri bo‘lar edi. Shundan kelib chiqib, yuqoridagi takliflarning mantiqiy davomi sifatida JPKning 457-moddasi 1-qismini quyidagi yangi band bilan to‘ldirish taklif etiladi:

7¹) ushbu kodeksning 463-moddasida nazarda tutilgan jazo tayinlanmasdan yoki jazodan ozod qilinib, ayblov hukmi chiqarish uchun asoslar mavjudmi;

Jinoyat ishlari bo‘yicha odil sudlovni ta‘minlashdagi muammolardan biri - ayblov hukmini chiqarish uchun dalillarning yetarli emasligi hisoblanadi. Jinoyat-protsessual qonunchiligimizda oqlov hukmi chiqarish va shaxsni ayblash uchun asoslar aniq ko‘rsatilgan bo‘lsada, shaxsning aybdorligini tasdiqlovchi dalillarning mavjudligi, biroq ushbu dalillarning shaxsni ayblash uchun yetarli bo‘lmagan hollarda sudning qanday turdagi hukmi chiqarishi kerakligi yuzasidan aniq qoida ko‘rsatilmagan. Oqlov hukmining mazmun-mohiyatini o‘rgangan olim A.A.Pirnazarovning fikriga ko‘ra, bunday baxsli holat yuzaga kelgan taqdirda sud oqlov hukmi chiqarishi kerak va shuning uchun olim oqlov hukmi chiqarish asoslarini “*ayblov ishonchli tarzda o‘z tasdig‘ini topmasa yoki dalillar ayblash uchun yetarli bo‘lmasa*” mazmunida yana bittaga ko‘paytirishni taklif etgan. Olimlar M.A.Gamidov va P.A.Aliyevalar bu masalada chegarani belgilash va bu orqali adolatli hukm chiqarish sudlar oldidagi muammoli masalalardan biri ekanligini ta‘kidlashadi³⁹. Ularning fikriga ko‘ra, qonunchilikda ayblov hukmi taxminlarga asoslanishi mumkin emasligi, hukm sud tergovida o‘rganilgan dalillardan kelib chiqib, shakllanishi kerakligi qat‘iy belgilab qo‘yilgan.

Bundan kelib chiqadiki, ushbu holatda sud muhokamasi davomida shaxsning aybi yetarlicha tasdiqlanmagan yoki boshqa dalillar majmui bilan tasdiqlanmagan bo‘lsa, ayblov hukmi chiqarish mumkin emas. Ammo, O‘zbekiston Respublikasi

³⁹ Гамидов А. М., Алиева П. А. Обвинительный и оправдательный приговор: сравнительный анализ //Закон и право. – 2021. – №. 10. – С. 125-128. <https://cyberleninka.ru/article/n/obvinitelnyy-i-opravdatelnyy-prigovor-sravnitelnyy-analiz>

Oliy sudi Plenumining “Sud hukmi to‘g‘risida”gi Qarorining 6-bandida ishda to‘plangan dalillarning yetarli emasligi oqlov hukmi chiqarish uchun asos bo‘lishi belgilab qo‘yilgan.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Respublikamizda 2022-yilda sudlar tomonidan 501 ta ish bo‘yicha 1010 nafar shaxsga nisbatan, 2023-yilda 457 ta ish bo‘yicha 1244 nafar, 2024-yilning 9 oyi yakunlari yuzasidan 320 ta ish bo‘yicha 603 nafar shaxsga nisbatan oqlov hukmlari chiqarilgan⁴⁰. JPKning 464-moddasi mazmunini tahlil qiladigan bo‘lsak, unda oqlov hukmi chiqarishning uch asosi belgilab qo‘yilgan: jinoyatning yuz bermaganligi, sodir etilgan qilmishda jinoyat tarkibining yo‘qligi hamda jinoyatga sudlanuvchining daxli bo‘lmasligi. Ammo, ushbu moddada ham dalillarning shaxsni ayblash uchun yetarli bo‘lmagan hollarda oqlov hukmi chiqarishi kerakligi nazarda tutilmagan. Nazariy jihatdan mazkur holatda hukmning qaysi turini chiqarish hal etilmagan.

Mazkur masalani o‘rgangan olim A.Ye.Yepifanovning fikriga ko‘ra, shaxsni ayblash uchun dalillar yetarli bo‘lmagan hollarda aybsizlik prezumpsiyasi qoidalariga muvofiq ish tutilishi kerak. Qonunchilikda aks etmagan, biroq mazkur prezumpsiyasining muhim qismi bo‘lgan “*Ayblanuvchining isbotlanmagan aybi o‘zining huquqiy oqibatlari bo‘yicha uning aybsizligi isbotlanganligiga teng*”ligi to‘g‘risidagi qoida aynan mazkur holatda ishlashi zarur. Olim aybsizlik prezumpsiyasining huquqiy asoslarini kuchaytirish maqsadida ushbu qoidani JPKga kiritishni taklif etgan⁴¹. Shuningdek, olim I.L.Petruxin oqlov hukmi chiqarish asoslarini tahlil qilar ekan, sudlanuvchining jinoyatni sodir etmaganligi isbotlangan yoki sudlanuvchining jinoyatni sodir etgan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadigan bir qancha dalillar mavjud bo‘lgan, biroq ular ayblov hukmi chiqarish uchun yetarli bo‘lmagan hollarda oqlov hukmi chiqarish zarurligini ta’kidlaydi. Olim bunday xulosasini *aybsizlik prezumpsiyasining yuqorida keltirilgan talabidan kelib chiqib*

⁴⁰ Статистик маълумотлар тадқиқот ишининг илова қисмида келтирилган

⁴¹ Епифанов А.Е. ПРЕЗУМПЦИЯ НЕВИНОВНОСТИ В РАКУРСЕ МИРОВЫХ ПРОЦЕССОВ ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА // Юридический вестник Дагестанского государственного университета. 2014. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/prezumpsiya-nevinovnosti-v-rakurse-mirovyh-protsessov-po-obespecheniyu-prav-cheloveka>

*asoslantirgan*⁴². Shuningdek, sud aybsizlik prezumpsiyasiga muvofiq, “tasdig‘ini topmagan ayblilik, huquqiy ma’noda tasdig‘ini topgan aybsizlikdir”, deyilgan qoidaga rioya qilishi kerakligi protsessualist olim A.Ya.Sattorov tomonidan ham e’tirof etilgan⁴³.

Ammo, yuqoridagi fikrlarga qarama-qarshi ravishda M.I.Kleandrov dalillar shaxsni ayblash uchun yetarli bo‘lmagan hollarda oqlov hukmi chiqarilishi adolatsiz qaror bo‘lishi to‘g‘risida xulosaga kelgan, chunki mazkur holatda shaxsning aybi mavjud, faqat uni isbotlovchi dalillar yetarli emas va shuning uchun ham bu oqlovning mohiyatiga to‘g‘ri kelmaydi⁴⁴. Buning ustiga, sudyada ayblov yoki oqlov hukmidan tashqari uchinchi turdagi hukmni shakllantirish imkoniyati ham mavjud emas. Shuning uchun olim uchinchi turdagi hukmni shakllantirishga zarurat borligini ta’kidlaydi. Olimlar M.A.Gamidov va P.A.Aliyevalar ham huddi shunday vaziyatda ayblov va oqlov hukmlaridan tashqari uchinchi turdagi hukm chiqarilishi kerakligini bildirishgan. Ammo, ushbu olimlar uchinchi turdagi hukm qanaqa bo‘lishi, uning mohiyati yuzasidan asosli takliflar berisha olmagan.

Mazkur qoida bir qator xorijiy davlatlar jinoyat-protsessual qonunchiligida o‘z aksini topgan. Xususan, **Qozog‘iston Respublikasi** Oliy sudi Plenumining “Sud hukmi to‘g‘risida”gi qarorining 47-bandida “Agarda ijtimoiy xavfli qilmish va uning oqibatlarini aniqlangan, lekin sud majlisida taqdim etilgan va o‘rganilgan dalillar dalillar majmuidan chiqarilgan yoki sudlanuvchining aybini tasdiqlamasa, sud qilmish sodir etilganligi isbotlanmaganligi uchun oqlov hukmi chiqaradi” deb belgilab qo‘yilgan⁴⁵. Bu ham aybsizlik prezumpsiyasining tahlil qilinayotgan muhim elementidir.

⁴² Петрухин, И. Л. Оправдательный приговор / И. Л. Петрухин // Государство и право. – 2009. – № 2. – С. 30-36. – EDN JVYIDT. https://www.elibrary.ru/download/elibrary_11695621_90070779.pdf

⁴³ Сатторов А.Я. Жиноят процессида реабилитация институтини амалга ошириш механизмларини такомиллаштириш. Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. Тошкент– 2023. –476.

⁴⁴ Клеандров, М. И. Обвинительный приговор? Оправдательный? Или что-то третье? / М. И. Клеандров // Государство и право. – 2019. – № 12. – С. 7-15. – DOI 10.31857/S013207690007813-6. – EDN WMTSQY. <https://elibrary.ru/item.asp?id=41523630>

⁴⁵ О судебном приговоре. Нормативное постановление Верховного Суда Республики Казахстан от 20 апреля 2018 года № 4. <https://adilet.zan.kz/rus/docs/P180000004S>

Tarixga e'tibor beradigan bo'lsak, 1728-yilda Shotlandiyada uch turdagi sud verdiktlari amalda bo'lgan: "aybdor", "aybsiz", "isbotlanmagan". Ular orasidan uchinchi turdagi verdiktlar shaxsning aybi yetarli darajada isbotlanmagan hollarda chiqarilgan. Qadimgi Rimda ham hukmlar ayblov (Condemno), oqlov (Absolvo) va sudlanuvchining aybliligini gumon ostida qoldiradigan (Non liquet)ga bo'lingan⁴⁶. Keyinchalik ushbu mavhum va aybsizlik prezumpsiyasiga muvofiq bo'lmagan hukm turi davlatlar qonunchiligidan chiqarilgan.

II-BOB. SUD HUKMINING QONUNIYLIK TAMOYILI BILAN BOG'LIQ JIHATLARI

§ 2.1. Qonuniylik prinsipining mazmuni va hukm chiqarishdagi roli

Sudning hukmi nafaqat, sud muhokamasi bosqichining yakunlovchi hujjati, balki dastlabki tergov, surishtiruv organlari va sudning protsessual faoliyati natijasini ko'rsatuvchi, ishning mazmuni bo'yicha chiqariladigan qaror hisoblanadi. Shuning uchun qonuniy hukm chiqarish uchun sudlar o'z faoliyatida qonunchilik talablariga rioya qilishi, ularni to'g'ri qo'llay olishi talab etiladi. Biroq, hukmning qonuniy kuchi uning o'zgarmasligi yoki barqarorligini anglatmaydi. Agarda hukm o'zida haqiqatni aks ettirmaydigan bo'lsa, u yuqori instansiya sudlarida o'zgarishi yoki butunlay bekor qilinishi zarur.

Qonuniylik prinsipi rim huquqining muhim ("qonun bo'lmasa jinoyat ham, jazo ham yo'q" (Nullum crimen, nulla poena, sine lege))⁴⁷ prinsiplaridan biri sifatida sud hujjatlari mazmuni va shakliga nisbatan ham tadbiiq etiladi. Hukmning kirish qismida ko'rsatilgan hudud, vaqt va ishtirok etuvchi shaxslar haqidagi ma'lumotlar, shuningdek qaror qismida xal etilishi lozim bo'lgan masalalar hukmning muhim

⁴⁶ Саттаров А.Я. Жиноят процессида реабилитация институтини амалга ошириш механизмларини такомиллаштириш. Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. Тошкент– 2023. 34 б.

⁴⁷ AIRAPETEAN ARTUR. ПРИГОВОР В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ РЕСПУБЛИКИ МОЛДОВА. Chişinău 2007, -С.26.

rekvizitlari bo‘lib, ulardan birortasining mavjud emasligi – uni qonuniy emas, deb topilishiga sabab bo‘ladi.

Sud amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, ba’zi hollarda sudning hukmi noqonuniy chiqarilishi ham mumkin. Ushbu holat hukmga qonunchilikda o‘rnatilgan talablarga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi. O‘zbekiston Respublikasi JPKning 455-moddasiga muvofiq, *qonunning barcha talablariga rioya qilingan holda tuzilgan*, shuningdek qonun asosida chiqarilgan bo‘lsa, hukm qonuniy deb topiladi. Ushbu talab yanada aniqlashtirilib, JPKning 485-moddasida Jinoyat kodeksi normalarining noto‘g‘ri qo‘llanilganligi, Jinoyat-protsessual kodeks normalarining jiddiy ravishda buzilganligi hukmni bekor qilish yoki o‘zgartish uchun asos bo‘lishi belgilab qo‘yilgan. Demak, hukm amaldagi moddiy va protsessual qonunchilikka muvofiq bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, 2014-yil 23-mayda qabul qilingan “Sud hukmi to‘g‘risida”gi 07-son O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorini tahlil qiladigan bo‘lsak, unda hukmni qonuniy emas deb topish asoslari aniq ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra, hukm *jinoyat protsessi prinsiplariga va sudylar maslahatlashuvining sir tutilishiga* rioya etilmagan holda chiqarilgan hukm – qonuniy emas deb topiladi (6-band), shu bilan birga hukmning *kirish, tavsif va qaror qismlarining mazmuni* bo‘yicha qonun talablariga rioya qilish (12-band) qonuniy sud qarori chiqarilishining muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu normalar tahlilidan anglashiladki, JPK hukmning qonuniyligini belgilovchi mezonlar sifatida uning moddiy va protsessual qonunchilik talablariga rioya qilinishini nazarda tutgan. Biroq, jinoyat ishida o‘rganilishi lozim bo‘lgan masalalar faqat jinoyat-huquqiy soha bilan cheklanmaydi. Isbotlash jarayonida fuqarolik, ma‘muriy, iqtisodiy, mehnat huquqiy masalalar ham sud tomonidan qisman bo‘lsada tadqiq etiladi va sudyadan mazkur sohalarda ham umumiy bilim talab etiladi. Mazkur sohalarga oid qonunchilikka rioya qilinmasligi ham hukmning noqonuniy, deb topilishiga asos bo‘lishi kerak. Ushbu jihatlar, ya’ni sudning hukmiga qo‘yilgan talablar jinoyat-protsessual huquqida protsessualist olimlar tomonidan doimiy ravishda o‘rganilib kelinadi. Xususan, A.A.Pirnazarov ham hukmning qonuniyligini uning moddiy va protsessual huquq normalariga

muvofigligi bilan izohlaydi⁴⁸. Uning fikricha, nafaqat jinoyat yoki jinoyat-protsessual qonunchilik, balki fuqarolik, mehnat va boshqa moddiy huquq sohalaridagi ishga taalluqli normalarning to'g'ri qo'llanilganligi ham hukmning qonuniyligini ta'minlab beradi. O'z ilmiy tadqiqot ishida T.Obidov ham ayni mazmundagi xulosaga kelgan⁴⁹. Shuningdek, I.N.Bukayeva ham JPKda nazarda tutilgan hukmni o'zgartish yoki bekor qilish asoslari huquqning boshqa sohalarini ko'rsatmagan, faqat moddiy va protsessual huquq bilan cheklanganligiga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, amaldagi protsessual qonunchilikda JKning umumiy qismi talablarining noto'g'ri qo'llanilganligi, maxsus qismi moddalari bilan qilmish xato kvalifikatsiya qilinganligi kabi asoslar hukmni o'zgartish uchun asos sifatida ko'rsatilgan bo'lib, qonuniy qaror qabul qilish uchun ushbu talablar yetarli emas va sud huquqning boshqa sohalariga murojaat qilishga majbur⁵⁰. Masalan, xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar sudyadan tadbirkorlik sohasiga oid qonunchilikdan xabardorlikni, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar esa ekologiya sohasiga oid qonunchilikdan xabardorlikni talab qiladi. A.Shaxbanova ham hukmning qonuniyligi faqat uning jinoyat qonunchiligiga rioya qilinganligi bilan baholash juda tor ma'no ahamiyat kasb etishini aytib, uning mohiyati cheklangan huquq sohasi bilan belgilanmasligini ta'kidlaydi⁵¹. Ushbu olimlar fikriga to'liq qo'shilgan holda hukmning qonuniyligi uning faqat jinoyat-huquqiy sohadagi qonunchilikka rioya qilinganligi bilan baholanmasligi zarur deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, A.V.Bunina hukm qonuniy bo'lishi uchun quyidagi talablarga javob berishi kerakligini ta'kidlaydi⁵²: hukmning vakolatli sud tomonidan

⁴⁸ Пирназаров А.А. Судьяларнинг мустақиллиги оқлов ҳукмини чиқаришнинг кафолатларидан биридир. <https://in-academy.uz/index.php/zdift/article/download/10088/7288/7346>

⁴⁹ Obidov T.A. Ayblov hukmining qaror qismiga qo'yilgan talablar. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent – 2023, -14b.

⁵⁰ Букаева И.Н. К вопросу о законности приговора // Царскосельские чтения. 2012. №XVI. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-zakonnosti-prigovora>

⁵¹ Шахбанова Айгюн Понятие судебного приговора и условия его эффективности по уголовно-процессуальному законодательству Азербайджанской Республики // Пробелы в российском законодательстве. 2009. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-sudebnogo-prigovora-i-usloviya-ego-effektivnosti-po-ugolovno-protsessualnomu-zakonodatelstvu-azerbaydzhanskoy-respubliki>

⁵² Бунина А.В. Приговор суда как акт правосудия, его свойства. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Челябинск–2005. https://static.freereferats.ru/_avtoreferats/01002750903.pdf?ver=6

o‘z vaqtida chiqarilishi; uning shakl va mazmun jihatdan jinoyat-protsessual qonunchilikda o‘rnatilgan talablarga muvofiq bo‘lishi; jinoyat-protsessual qonunchilikda o‘rnatilgan qoidalarga nafaqat sud muhokamasining hukm chiqarish bosqichida, balki boshqa bosqichlarida ham sud tomonidan rioya qilinishi; sud tomonidan xalqaro huquq va umum tan olingan tamoyillarning qo‘llanilganligi; sudlanuvchi (lar)ning jinoiy qilmishini kvalifikatsiya qilish va u (lar)ga jazo tayinlashda jinoyat qonunchiligini to‘g‘ri qo‘llash; jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy zararni qoplash masalasida huquqning boshqa sohalariga oid normalarni to‘g‘ri qo‘llash. Protsessualist olim boshqalardan farqli ravishda sud tomonidan xalqaro huquq va umum tan olingan tamoyillarning qo‘llanilganligini hukmning qonuniyligini ta‘minlovchi mezonlardan biri sifatida tadqiq etgan. Xalqaro standartlarning hukmning qonuniyligini ta‘minlashdagi ahamiyatini ham inobatga olinishi zarurligini I. A.Ostapenko o‘z tadqiqot ishida alohida ta‘kidlagan. Unga ko‘ra, **qonuniy hukm** – umum tan olingan tamoyillar va halqaro huquq normalariga, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilik normalari, shuningdek aniq bir jinoyat ishi doirasida qo‘llaniladigan huquqning boshqa sohalariga xos qoidalarga muvofiq bo‘lgan, davlat nomidan chiqariladigan sudning qarori hisoblanadi⁵³. Ammo, Ye.M.Belyayev hukmga qo‘yilgan talablarni tahlil qilar ekan, qonuniylik faqatgina hukmning Konstitutsiya yoki xalqaro standartlarga muvofiq bo‘lishi kerakligi haqidagi fikrlarga qo‘shilmasligini ta‘kidlaydi⁵⁴. Protsessualist olimga ko‘ra bunday talqin xato bo‘lib, ushbu ta‘rif qonuniylikning mazmunini yetarli darajada ochib bermaydi.

Haqiqatdan ham, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 455-moddasi jinoyat ishi bo‘yicha yakuniy huquqiy hujjatni umum tan olingan prinsiplar, xalqaro shartnomalar va xalqaro huquq normalariga, qolaversa Konstitutsiyaga muvofiqligi yuzasidan baholash bo‘yicha sudning konstitutsiyaviy majburiyatini hisobga olmagan. Ayrim xorijiy davlatlar, xususan **Ozarbayjon Respublikasi JPKning**

⁵³ Остапенко И. А. Приговор как итоговое решение по уголовному делу //Автореферат дис.... канд. юр. наук. – 2007. – Т. 12. – №. 09. https://static.freereferats.ru/_avtoreferats/01003344056.pdf?ver=8

⁵⁴ Беляев М. В. Является ли законность свойством судебных решений? //Российское правосудие. – 2018. – №. 3. – С. 5-14. <https://www.academia.edu/download/56089597/RP-03-2018.pdf#page=5>

349.4-moddasida⁵⁵ hukmning Konstitutsiya, Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodeks va boshqa qonun talablariga rioya qilinganligi uning qonuniyligini belgilovchi mezon sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Shulardan kelib chiqib, JPKning 455-moddasi 2-qismini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

“Hukm xalqaro huquqning umum tan olingan prinsiplari, xalqaro huquq va shartnomalarning normalari, Konstitutsiya, jinoyat ishini ko‘rib chiqish jarayoniga tadbiq etiluvchi huquqning boshqa sohalariga oid qonunchilik normalariga, shuningdek qonunning barcha talablariga amal qilingan holda va qonun asosida chiqarilgan bo‘lsa, qonuniy deb e‘tirof etiladi”.

§ 2.2. Sudyaning vakolati, mustaqilligi va qonunni to‘g‘ri qo‘llash tartibi

Sud hukmi — bu jinoyat-protsessual faoliyatning yakuniy hujjati bo‘lib, u nafaqat ayblov yoki oqlovning huquqiy asosini belgilaydi, balki davlat nomidan amalga oshiriladigan adolatning huquqiy shakli sifatida jamiyatdagi huquqiy tartibotga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Hukmning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligi — sudyaning vakolati, mustaqilligi va qonunni to‘g‘ri qo‘llash qobiliyatiga bevosita bog‘liq.

Sudyaning hukm chiqarishdagi rolini aniqlash — jinoyat-protsessual faoliyatning mazmunini ochish, sud ishlarini yuritishdagi kafolatlarni belgilash va odil sudlov tizimining samaradorligini baholashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Mazkur paragrafda sudyaning vakolatlari, ularning huquqiy tabiati, mustaqillik kafolatlari, qonunni to‘g‘ri talqin qilish va qo‘llash prinsiplari hamda ushbu omillarning hukm sifatiga ta’siri kompleks tarzda tahlil qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida sudyaning adolatli sudlovni amalga oshiruvchi yagona sub’ekt ekani qat’iy belgilab qo‘yilgan. Konstitutsiyaning

⁵⁵ Уголовно-процессуальный кодекс Азербайджанской Республики (утвержден Законом Азербайджанской Республики от 14 июля 2000 года № 907-IQ) (с изменениями и дополнениями по состоянию на 22.12.2023 г.). https://continent-online.com/Document/?doc_id=30420280#pos=4753;-60

109-moddasiga ko‘ra, “O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati faqat sudlar tomonidan amalga oshiriladi”. Bu norma sudya vakolatining davlat hokimiyatining alohida mustaqil tarmog‘i sifatidagi mohiyatini belgilaydi.

Sudyaning huquqiy maqomi esa alohida konstitutsiyaviy qonun – “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonun bilan belgilangan. Mazkur qonunga ko‘ra sudya: mustaqildir; daxlsizdir; faqat qonunga bo‘ysunadi; hech bir organ yoki mansabdor shaxsga hisobdor emas.

Sudyaning hukm chiqarishdagi vakolati jinoyat-protsessual faoliyatning eng yuqori darajasidagi huquqiy qaror qabul qilish bilan bog‘liq. Bu vakolat quyidagi vazifalarni qamrab oladi: 1) dalillarni baholash; 2) huquqiy xolatlarni kvalifikatsiya qilish; 3) aybdorlik yoki aybsizlik haqida xulosa chiqarish; 4) jazoni individuallashtirish; 5) jinoyat oqibatlarini bartaraf qilishga doir masalalarni hal etish.

Sudya vakolati — oddiy ma‘muriy funksiya emas, balki yurisdiktsion vakolatdir, ya‘ni shaxsning huquqiy manfaatlariga ta‘sir qiluvchi davlat hokimiyati vakolatidir.

Jinoyat-protsessual kodeksda sudyaning vakolatlari batafsil aks etgan. Xususan, JPKda sudyaning asosiy vazifalari belgilangan.

Sudya quyidagi huquqlarga ega: dalillarni yigishda faol ishtirok etmasdan turib, ularni baholash; taraflarning barcha dalil va e‘tirozlarini ko‘rib chiqish; isbotlash predmetiga oid barcha holatlarni tadqiq etish; protsessual qonunbuzarliklarni bartaraf qilish; sud muhokamasining qonuniyligini ta‘minlash.

Sudya hech qachon ayblov yoki himoya tarafining vakili emas. U — faqat adolat manfaatini ifoda etuvchi xolis arbitrdir.

Sudya mustaqilligi — sud hokimiyatining poydevori bo‘lib, u hukmning qonuniy, asosli va adolatli bo‘lishi uchun zaruriy sharoitdir. Mustaqillik ikki turda namoyon bo‘ladi: a) institutsional mustaqillik — sud tizimi mustaqilligi; b) individual mustaqillik — alohida sudya mustaqilligi.

Institutsional mustaqillik — sudlarning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan ajratilganligini, moliyaviy va tashkiliy mustaqilligini anglatadi.

Individual mustaqillik esa sudyaning hukm chiqarishda ichki ishonch asosida qaror qabul qilish erkinligini bildiradi.

O'zbekistonda sudya mustaqilligini ta'minlash uchun qator kafolatlar belgilangan: 1) sudyaning daxlsizligi (ma'muriy va jinoiy javobgarlikdan maxsus himoya); 2) sudyaning o'z vazifasiga siyosiy, iqtisodiy yoki ma'muriy bosim o'tkazilishiga yo'l qo'ymaslik; 3) sudyaning umrbod lavozimda ishlashi prinsipiga o'tish (sud islohotlari doirasida); 4) sudyaning moddiy va ijtimoiy ta'minotining kafolatlanganligi; 5) sudyaning o'z vakolatlarini faqat qonun va ichki ishonchga ko'ra amalga oshirishi.

Sudya mustaqilligi — deklarativ prinsip emas, balki amaliy tatbiqni talab etuvchi kafolatdir. Ilmiy adabiyotda sudya mustaqilligiga tahdid soluvchi quyidagi omillar ko'rsatilgan: ijro hokimiyatining noo'rin aralashuvi; prokuratura organlari bosimi; sud apparati xodimlarining ta'siri; ommaviy axborot vositalarida sudni siyosiy lashtirish; mahalliy organlarning shaxsiy manfaatlari; sudyaning o'zidagi professional mustaqillik yetishmasligi.

Mazkur omillarning oldini olish sud hukmining adolatli va xolis bo'lishi uchun muhimdir.

Sudya qonunni quyidagi prinsiplar asosida qo'llashi lozim: Sudya qonun normasini o'zgartirmasdan, izohlarni o'rinsiz qo'llamasdan, bevosita qo'llashi shart. Talqinda qonunning maqsadi, ijtimoiy funksiyasi va huquqiy mohiyati hisobga olinadi.

Konstitutsiya normasi barcha qonunlardan ustun turadi; agar JPK normasi Konstitutsiyaga zid bo'lsa, sudya Konstitutsiyani qo'llashi lozim.

YeIHS pretsedentlarida belgilab ko'yilganidek, inson huquqlariga oid norma — eng ustuvor norma hisoblanadi.

Sudyaning to'g'ri kvalifikatsiya qilish vazifasi hukmning qonuniyligi va asosililigining markaziy elementidir. Sud: jinoiy harakatlar tarkibini to'g'ri aniqlashi; moddiy huquq normalarini holatga mos qo'llashi; jinoyatning obektiv va sub'ektiv tomonlarini tadqiq etishi; jinoyat qismlari o'rtasida farq qila olishi kerak.

JPKning 82–84-moddalari dalillarni baholash tartibini belgilaydi. Sudya dalillarni: qonuniy manbadan olingan; ishonchli; o‘zaro muvofiq; yetarli darajada asoslangan bo‘lgan taqdirdagina qabul qilishi mumkin.

Sudyaning dalillarni baholashi — ichki ishonchga asoslangan yuridik jarayondir, uning mustaqilligi va xolisligi shu bosqichda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Hukm — sudya vakolati, mustaqilligi va qonunni to‘g‘ri qo‘llashining organik birikishi natijasidir. Agar ushbu uch omildan biri buzilsa, hukm: qonuniy bo‘lmaydi; asosli bo‘lmaydi; adolatli hisoblanmaydi.

Shu bois sudya: qonunni to‘g‘ri talqin qilishi, tashqi bosimlardan xoli bo‘lishi, yuridik ishonch asosida qaror qabul qilishi, dalillarni to‘liq, har tomonlama va ob‘ektiv baholashi shart.

Hukmning qonuniyligini ta’minlashda yuqoridagi masalalar bilan bir qatorda uning qonuniy sud tarkibi tomonidan chiqarilishi ham ahamiyatga ega. Mazkur holatni tadqiq etgan olim O.Yu.Gay esa o‘z tadqiqot ishida jinoyat-protsessual qonunchilikdagi hukmning qonuniyligi shartlarini tushuntirar ekan, unda hukmning qonuniy sud tarkibi tomonidan chiqarilishini ko‘rsatmaganligiga e’tibor qaratadi⁵⁶. M.K.Gochiyayev fikricha hukm qonuniy bo‘lishi uchun jinoyat ishini ko‘rib chiqishga oid, qilmishni kvalifikatsiya qilish, jazoning turi va me’yori haqidagi xulosalari aks etgan hukmni rasmiylashtirish va e’lon qilishga oid qonun talablariga rioya etilgan bo‘lishi kerak⁵⁷. Olim fikricha, ushbu talablarga rioya qilinmaganligi, shuningdek taraflarga o‘z huquqlarini amalga oshirishlari uchun sud majlisida teng imkoniyatlar berilmaganligi, noqonuniy sud tarkibi tomonidan chiqarilgan, sud tarkibining qaysidir a’zosi imzosining yo‘qligi hukmning noqonuniy deb topilishiga asos bo‘ladi. I.P.Popova hukmning qonuniyligiga putur yetkazuvchi holatlarni 3 guruhga ajratgan bo‘lib, birinchi toifaga noqonuniy sud tarkibi, ikkinchi toifaga ishtirokchilarning huquqlari buzilganligi va uchinchi toifaga boshqa qonunbuzilish

⁵⁶ Гай О.Ю. Законная сила приговора в уголовном процессе: дис. канд. юрид. наук. Саратов, 1999. С. 49–50.

⁵⁷ Гочияев М.К. Судебное следствие как объективная основа законного и обоснованного приговора. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. - Краснодар — 2006, - С.15. https://static.freereferats.ru/_avtoreferats/01002977220.pdf?ver=3

holatlarini ko'rsatib o'tgan⁵⁸. Ushbu olimlar fikrlarini umumlashtirib aytish mumkinki, hukmning qonuniyligi deganda ishni yuritish va uni hal etish, shuningdek qonuniy sud tarkibi tomonidan huquq normalarini to'g'ri qo'llash jarayonida qonun talablariga rioya qilingan holda ushbu hujjatning davlat nomidan chiqarilishi nazarda tutilmoqda.

2014-yil 23-mayda qabul qilingan "Sud hukmi to'g'risida"gi 07-son O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorida oshkoralik, ishlarni hay'atda va yakka tartibda ko'rish, odil sudlovni fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish, shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, Jinoyat ishlari yuritiladigan til, taraflarning o'zaro tortishuvi, dalillarning bevosita va og'zaki usulda tekshirilishi, aybsizlik prezumpsiyasi, haqiqatni aniqlash kabi prinsiplarning buzilishi ham hukmni qonuniy emas, deb topishga asos bo'lishi ko'rsatib o'tilgan. Ular orasidan ayrim prinsiplar buzilishi esa JPKning 488-moddasida to'g'ridan to'g'ri Jinoyat-protsessual kodeksi normalarining jiddiy buzilishi deb topiladi. Xususan:

hukmning qonunga xilof tarkibdagi sud tomonidan chiqarilishi;
sudyaning hukmni yakka o'zi chiqarishi tartibi yoki unda sudyalar maslahatlashuvi sirining buzilishi;

sudlanuvchining ona tilidan va tarjimon xizmatlaridan foydalanish huquqining buzilishi;

himoyachi, qonuniy vakil ishtirok etishi shart bo'lsa-yu, ish ularning ishtirokisiz tergov qilingan yoki ko'rib chiqilgan bo'lishi.

Demak, hukmning qonuniy emasligi uni yuqori instansiyada JPKning 488-moddasi tartibida bekor bo'lishiga olib keladi.

Sud hukmining qonuniyligiga qo'yilgan talab jinoyat protsessining qonuniylik prinsipidan kelib chiqadi va uning mazmunini to'liq qamrab oladi ammo ikkovini mohiyatan bitta tushuncha deb bo'lmaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, hukm

⁵⁸ Попова И. П. Законность при постановлении обвинительного приговора // Система ценностей современного общества. 2012. №25. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zakonnost-pri-postanovlenii-obvinitelnogo-prigovora>

chiqarilishi bilan bog‘liq har qanday protsessual tartibning buzilishi har doim jinoyat-protsessual qonunchilikning jiddiy buzilishi deb qaralishi kerak. Ammo, JPKning 488-moddasiga ko‘ra, protsess ishtirokchilarini qonun bilan kafolatlangan huquqlardan mahrum qilgan yoki bu huquqlarni cheklagan yohud sudga ishni har tomonlama ko‘rib chiqishga boshqacha tarzda xalal bergan hamda qonuniy, asosli va adolatli qaror chiqarishga ta’sir qilgan yoki ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan qoidabuzarliklar JPK normalarini jiddiy buzish deb e’tirof etiladi va bu moddaning ikkinchi qismida jiddiy buzilish deb topiladigan holatlar belgilab qo‘yilgan. Qolgan hollarda esa, JPKning buzilishi – jiddiy emas deb topiladi va ular hukmning bekor bo‘lishi uchun asos bo‘lib xizmat qilmaydi.

Mazkur “JPK normalarining jiddiy bo‘lmagan buzilishi” qonunbuzilish holatining xususiyati, jinoyat ishi holatlaridan kelib chiqib yuqori instansiya sudi tomonidan har bir holatga individual yondashiladi. Albatta, amaliyotda uchrayotgan jinoyat-protsessual qonunini buzilishini jiddiy va jiddiy bo‘lmagan turlarga ajratish imkonsiz masala⁵⁹. Ammo, yuzaga kelayotgan muammolar uni to‘g‘ri hal etishni taqozo etadi. Jinoyat-protsessual kodeksi normalarining jiddiy bo‘lmagan buzilishi – *ish holatlarini har tomonlama, to‘la va xolisona o‘rganishga ta’sir qilmaydigan, ish natijasi bo‘yicha noqonuniy va asossiz qaror qabul qilinishiga olib kelmaydigan qonun buzilishi holatlaridir*. Shuningdek, bu holatlar jiddiy buzilishdan farqli ravishda hukmning bekor bo‘lishiga sabab bo‘lmaydi.

JPK normalarining buzilishi holatlarini jiddiy va jiddiy bo‘lmagan turlarga ajratishda ularning huquqiy oqibatlaridan tashqari, bartaraf etish imkonining mavjudligi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xususan, M.A.Kunashev isbotlash jarayonida bartaraf etish mumkin bo‘lgan kamchiliklarni – JPKning jiddiy bo‘lmagan buzilishi, deya e’tirof etgan⁶⁰. Ularning sud tomonidan bartaraf etilishi bilan birga unga yo‘l qo‘ygan mansabdor shaxsga nisbatan xususiy ajrim chiqarish

⁵⁹ Григорьев А.И. Существенные нарушения уголовно-процессуального закона как основание к отмене или изменению приговора суда первой инстанции. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. - Екатеринбург, 2023. https://www.usla.ru/science/dissovet/file/base/7/576/autoabstract_dl.pdf

⁶⁰ Кунашев, М. А. Понятие существенного процессуального нарушения при расследовании уголовных дел / М. А. Кунашев // Расследование преступлений: проблемы и пути их решения. – 2020. – № 3(29). – С. 70-74. – EDN WMMTIY. https://www.elibrary.ru/download/elibrary_44357030_57088448.pdf

orqali sudlar o‘zlarining munosabatini bildirishlari kerak bo‘ladi⁶¹. Shuning uchun ham bartaraf etish imkoniyati mavjud bo‘lgan qonun buzilish holatlari (JPKning 488-moddasida nazarda tutilmagan holatlar) aniqlangan taqdirda ham yuqori instansiya sudlari uni bekor qilishga haqli bo‘lmasligi, o‘z vakolatlari doirasida xatoni to‘g‘irlashi kerak bo‘ladi.

Hukmning qonuniyligini ta’minlovchi kafolatlardan yana biri – bu sudyalar maslahatlashuvi siri saqlanishidir. Yuqorida tahlil etilgan “Sud hukmi to‘g‘risida”gi 07-son O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarori mazmuniga ko‘ra, *sudyalar maslahatlashuvi sirining oshkor etilishi* hukmning noqonuniy deb topilishiga asos bo‘ladi va u hukm bekor qilinishi shart. Ammo, sud amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, sudyalar maslahatlashuvi sir tutilishining buzilishi aniq jinoyat ishi holatlariga bog‘liq. Ushbu qoida buzilishining bir ko‘rinishi – bu maslahathona (alohida xona)ga kirgandan to‘ hukm e’lon qilingunga qadar boshqa jinoyat ishlarini ko‘rishga tayyorgarlik ko‘rish yoki ularni mazmunan ko‘rish holatidir. Ushbu protsessual xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun sudlar maslahatxonada hukmning faqat qaror qismini shakllantirib, uni sud majlisida o‘qib eshittiradilar va tavsif qismining keyinchalik yozilishi maslahatlashuv sirining buzilishi emas deb hisoblashadi.

JPKning 456-moddasi mazmuniga ko‘ra, sudya hukmni alohida xonada, sud esa maslahatxonada chiqaradi va ikkala holatda ham sudyalar maslahatlashuvi o‘tkaziladi. Ammo, sudyalar maslahatlashuvi ish faqat hay’atda ko‘rilayotgandagina ma’noga ega bo‘ladi. Yakka tartibda ishni ko‘rayotgan sudya hech kim bilan ish holatlarini maslahatlashmaydi. Aynan shu masalada sud amaliyoti o‘rganilganda, sudyalar mazkur qoidani buzmaslik uchun maslahatlashuv cho‘zilib ketmasligining oldini olish uchun qonunning boshqa bir qoidasini buzishmoqda, ya’ni hukmning qaror qismini maslahatxonaga kirishdan oldin tayyorlab qo‘yishga majbur bo‘lishmoqda. So‘rovnoma doirasida ishtirok etgan respondentlarning 70,2 foizi sud

⁶¹ Ширванов А.А. Нарушения закона в уголовном процессе Российской Федерации и их правовые последствия. <https://www.dissercat.com/content/narusheniya-zakona-v-ugolovnom-protsesse-rossiiskoi-federatsii-ikh-pravovye-posledstviya>

amaliyotida ushbu salbiy holatga yo‘l qo‘yilayotganligiga e‘tibor qaratishgan⁶². Chunki hukm chiqarish vaqtida hal etiladigan masalalarni maslahatlashuv tartibi bo‘yicha ko‘rib chiqish bir muncha uzoq vaqtni talab qiladi.

Jinoyat-protsessual qonunchilik esa “hukm loyihasi”ni tayyorlab qo‘yishni huquqiy jihatdan tartibga solmagan. Bu esa maslahatxonada hal etiladigan masalalar, shuningdek sudyalarning maslahatlashuvining sir tutilishi va boshqa odil sudlov kafolatlarini shubha ostida qoldiradi. Shuning uchun ham JPKning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan moddasida keltirilgan kech kirishi bilan sud maslahatni to‘xtatishi, maslahatlashuv dam olish kuni va bayram kunida ham to‘xtatilishi kabi holatlar sud amaliyotida uchramaydi.

Bitta ish yakuni bo‘yicha sudning maslahatxonaga kirishi bilan hukmni e‘lon qilmasdan turib boshqa ishlarni ham ko‘rishni tahlil qilganayotgan qoidaga zid yoki muvofiqligi yuzasidan ham protsessualist olimlar o‘rtasida turli qarashlar mavjud. Xususan, A.V.Kudryavseva va M.S.Spiridonovlar agarda sud boshqa ishni mazmunan ko‘rish bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlarni amalga oshirishi (masalan, boshqa ish ishni sudga ko‘rish uchun tayinlashi, boshqa ish bo‘yicha hukm ijrosi bilan bog‘liq choralarni ko‘rishni maslahatlashuv sir tutilishining buzilishi hisoblanmasligini ta’kidlashadi⁶³. Shu mazmundagi xulosaga M.I.Kazarina ham kelgan⁶⁴. Ushbu nuqtayi nazarga qarama-qarshi ravishda G.B.Petrova, Yu.S.Zvonikova, T.A.Kiriyevalar sud bitta ish bo‘yicha maslahatxonaga kirgan vaqtdan boshlab boshqa biror ishni kurmasligi zarur⁶⁵. Bizningcha ham,

⁶² Ўзбекистон Республикаси Олий суди томонидан тақдим этилган 07.11.2024 йилдаги 07/14-14927-471-сон маълумотнома

⁶³ Кудрявцева А. В., Спиридонов М. С. ПОНЯТИЕ И СОДЕРЖАНИЕ ТАЙНЫ СОВЕЩАТЕЛЬНОЙ КОМНАТЫ В УГОЛОВНОМ СУДОПРОИЗВОДСТВЕ //Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Право. – 2020. – Т. 20. – №. 3. – С. 28-35. <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-i-soderzhanie-tauny-soveschatelnoy-komnaty-v-ugolovnom-sudoproizvodstve>

⁶⁴ Казарина М.И. Процессуальные гарантии реализации принципа независимости судей при рассмотрении уголовных дел в суде первой инстанции в общем порядке. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. - Томск – 2020. <https://vital.lib.tsu.ru/vital/access/services/Download/vtls:000675491/SOURCE1>

⁶⁵ Петрова, Г. Б. Проблемные аспекты принципа тайны совещания судей в уголовном судопроизводстве / Г. Б. Петрова, Ю. С. Звоникова, Т. А. Киреева // ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ПРАВОВОГО ГОСУДАРСТВА И АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ РЕФОРМИРОВАНИЯ СОВРЕМЕННОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА : сборник статей III Международной научно-практической конференции, Пенза, 05 июня 2018 года / Ответственный редактор Гуляев Герман Юрьевич. – Пенза: МЦНС «Наука и Просвещение», 2018. – С. 74-76. – EDN XPKGVN. https://elibrary.ru/download/elibrary_35038333_68276650.pdf

maslahatlashuv tugamasidan oldin sudyaning boshqa ishlarni ko'rishda qatnashishi ishning maslahatlashuvi sir tutilishiga jiddiy xavf tug'diradi. Nafaqat boshqa ishlarda, balki maslahatlashuv tugagunga qadar tarkibdagi sudyalarning uyali aloqa vositalari, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi va umuman boshqalar bilan muloqotga kirishishi va shu orqali ularga ta'sir etish mumkin bo'lgan barcha holatlarning oldi olishini lozim. Afsuski, bunday masalalarga sud amaliyotida hech kim e'tibor qaratmaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, hukm qonuniy bo'lishi uchun u quyidagi talablarga javob berishi kerak deb hisoblaymiz:

birinchidan, hukm vakolatli sud tarkibi tomonidan chiqarilishi kerak;

ikkinchidan, hukmni tuzish bo'yicha qonunchilikda o'rnatilgan tartibga rioya qilingan bo'lishi;

uchinchidan, qilmishni kvalifikatsiya qilishda, jazo tayinlashda va fuqaroviy da'voni hal etishda moddiy huquq to'g'ri qo'llanilgan bo'lishi;

to'rtinchidan, hukmda ko'rsatilishi lozim bo'lgan rekvizitlarga ega bo'lishi;

beshinchidan, jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlariga rioya qilingan bo'lishi zarur.

III-BOB. SUD HUKMINING ASOSLILIGINI TA'MINLOVCHI HUQUQIY VA NAZARIY MEZONLAR

§ 3.1. Dalillarni baholashning umumiy qoidalari va ichki ishonchining huquqiy asoslari

Jinoyat ishi bo'yicha sud tomonidan asosli hukm chiqarilishi odil sudlovning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Sud hukmining asoslantiruvchi qismi nafaqat sud xulosalarini asoslantirish uchun, balki sud tomonidan taraflarning vajlari eshitilganligini ko'rsatish uchun ham shakllantiriladi. Jinoyat-protsessual qonunchiligimizda hukmga qo'yilgan talablar, xususan uning qanday hollarda asosli bo'lishi aniq ko'rsatilgan. Aniqrog'i, JPKning 455-moddasida hukm ishning haqiqiy holatlari haqiqatga monand tarzda aniqlangan bo'lsa, asosli deb e'tirof etiladi.

Bu orqali qonun sudlardan jinoyat ishining haqiqiy holatlariga muvofiq bo'lgan asosli xulosa qilishlarini talab qilgan. Shu bilan birga, hukmga asos qilib olinayotgan dalillar har tomonlama, to'la va xolisona baholanishi, ularning haqiqiyliги yuzasidan sudda shubha bo'lmasligi kerak. Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilik hukmning qonuniy, asosli va adolatli bo'lishini ta'minlovchi protsessual kafolatlarga ega. Demak, sud xulosalarining qay darajada qonuniy, asosli va adolatli ekanligi sudyaning o'z xulosalarini qay darajada to'g'ri bayon eta olishiga bog'liq. Ushbu bayon hukmning dalillar tahlil qilinadigan - tavsif qismida aks etadi. Afsuski, qonunchiligimizda tavsif qismi bir biridan mazmunan farq qiluvchi tarkibiy qismlardan iborat bo'lsada, ular alohida bo'limlarga ajratilmagan.

Tavsif qismning tuzilishini o'rganish uning bir qator o'ziga xos ichki tuzilishga ega ekanligini ko'rsatadi. Unda ko'rsatilgan ma'lumotlar mazmunidan kelib chiqib, hukmning ushbu qismini ikki qismga bo'lishimiz mumkin:

1. **“Tavsifiy” xususiyatga ega qism.** Tavsif qismning ushbu ichki tuzilishidan kelib chiqib, milliy protsessual qonunchiligimizni tahlil qiladigan bo'lsak, JPKning 467-moddasida ayblov hukmining tavsif qismida ko'rsatilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar aks etgan bo'lib, unda jinoyat tavsifi, qilmish sodir etilgan joyi, vaqti, usuli, aybning shakli, jinoyatning kelib chiqish sabablari, maqsadlari va yuz bergan oqibatlari ko'rsatilishi lozim. Shuningdek, ushbu qismda sudning sudlanuvchi (lar)ga nisbatan xulosalariga asos bo'lgan dalillar ko'rsatilishi lozim. Boshqa bir qator masalalar bilan birga javobgarlikni yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holatlar ham sud tomonidan o'rganilishi talab etiladi.

Oqlov hukmining “tavsifiy” xususiyatga ega qismida (JPKning 469-moddasi) esa ayblovning mohiyati, aniqlangan ish holatlari, sudlanuvchining aybsizligini tasdiqlovchi dalillar ko'rsatiladi.

2. **Tahlil amalga oshiriluvchi “asoslantiruvchi” qism.** JPKning 467-moddasi mazmunidan anglashiladiki, ayblov hukmining ushbu qismda sudning ayrim dalillarni rad etish sabablari, ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazo nimaga asoslanib tayinlaganini, jazoni ijro etish muassasasining turi tanlanganligi asoslab berilishi kerak. Shuningdek, unda sudlanuvchining e'lon qilingan ayblovga

munosabati ko'rsatilishi, uning o'zini himoya qilish uchun keltirgan vajlariga baho berilishi kerak⁶⁶. Umuman olganda, ushbu qismda sudning xulosalari asoslantirilishi shart.

Oqlov hukmining ushbu qismida sudlanuvchining jinoyat sodir etishda aybi mavjud deb hisoblashga asos bo'lgan dalillarni sud nima uchun ishonarli emas yoki yetarli emas deb hisoblashi, shuningdek nima sababdan sud jinoiy hodisaning o'zi yuz bermagan yohud sudlanuvchi sodir etgan qilmishni jinoyat emas deb hisoblashi asoslari ko'rsatiladi (JPKning 496-moddasi).

Ushbu ma'lumotlardan anglashiladki, jinoyat-protsessual huquqida va huquqni qo'llash amaliyotida hukmning tavsif qismida shunchaki dalillarning turlarini keltirish hukmning asosli ekanligini anglatmaydi. Buning uchun tavsif qismida sud o'z xulosalarini asoslantirib berishi kerak bo'ladi. Tahlil amalga oshiriluvchi "asoslantiruvchi" qismda esa aynan sud tergovi jarayonida o'rganilgan dalillarga baho beriladi⁶⁷. Amaldagi qonunchiligimiz tahlili shuni ko'rsatadiki, hukmning tavsif qismidagi yuqorida o'rganilgan "tavsifiy" xususiyatga ega va tahlil amalga oshiriluvchi "asoslantiruvchi" qismlar o'rtasida chegara belgilanmagan. Bizningcha, qat'iy belgilangan matn ko'rinishida rasmiylashtiriladigan sud hujjatining tavsif va asoslantiruvchi qismlarga ajratilmaganligi hukmning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Milliy qonunchiligimizga ko'ra, ular umumiy nom bilan hukmning tavsif qismini tashkil etadi. Lekin, tavsif qismni mazmunan ikki ichki tarkibiy qismlarga ajratish mumkin. Chunki, kirish va qaror qismlar o'rtasida faqatgani ish holatlari tavsifi ko'rsatilmaydi. Sudning ish bo'yicha pozitsiyasini ko'rsatuvchi asoslantiruvchi qism bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan sudning mulohazalarini qamrab oladi. Masalan, dalillarga, taraflar tomonidan o'z fikrlarini asoslash uchun keltirilgan vajlarga berilgan baho, aybning isbotlanganligi, tayinlanayotgan jazoning asoslantirilganligini keltirilishimiz mumkin. Aynan ushbu qism yuqori instansiya

⁶⁶ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2014 йил 23 майдаги 07-сонли «Суд хукми тўғрисида»ги қарори. <https://lex.uz/acts/2413562#2413755>

⁶⁷ Астафьев А. Ю. Об аргументативной сущности приговора суда //Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Право. – 2022. – №. 3 (50). – С. 274-285.

sudlari tomonidan ishning qayta ko‘rilishida o‘rganiluvchi muhim mezon hisoblanadi.

Tadqiqot ishi doirasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning 78 foizi hukmning tavsif qismini tavsif va asoslantiruvchi kabi ikki qismga ajratishni qo‘llab-quvvatlashgan⁶⁸. Bizningcha ham, tavsif qismdan asoslantiruvchi qismning ajralib chiqishi sudlar tomonidan unga jiddiy e‘tibor berishlariga, o‘z xulosalarini yana ham batafsil asoslantirib ko‘rsatishlariga turtki bo‘ladi.

Mazkur amaliyot **Qozog‘iston, Qirg‘iziston Respublikalari, Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon Respublikasi** va boshqa ko‘plab davlatlar qonunchiligida o‘z aksini topgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, JPKning 465-moddasi 1-qismidagi “kirish, tavsif hamda qaror qismlaridan iborat bo‘ladi” jumlasini “kirish, tavsif-asoslantiruvchi hamda qaror qismlaridan iborat bo‘ladi”deya o‘zgartirish, shuningdek, mos ravishda jinoyat-protsessual qonunchilikdagi boshqa normalarni ham ushbu jumlagamuvofiqlashtirish taklif etiladi.

Hukm turlaridan kelib chiqib, tahlil qiladigan bo‘lsak, ayblov hukmini asoslantirish zarurati JPKning 467-moddasida hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi 07-sonli “Sud hukmi to‘g‘risida”gi qarorida batafsil tartibga solingan. Xususan, ayblov hukmining tavsif-asoslantirish qismida quyidagi masalalar bayon etilishi shart:

sudning sudlanuvchi (lar)ga nisbatan qilgan xulosalari uchun asos bo‘lgan dalillar va sudning boshqa dalillarni rad etish sabablari;

javobgarlikni yengillashtiruvchi yoki og‘irlashtiruvchi holatlar;

agarda aybning bir qismi asossiz deb topilgan taqdirda uni chiqarib tashlash sabablari, shuningdek jinoyat kvalifikatsiyasining xato ekanligi aniqlanganda esa ayblovni o‘zgartirish asoslari va sabablari;

⁶⁸ Сўровнома натижалари ишнинг иловалар қисмида келтирилган.

nima uchun sanksiyada nazarda tutilgan jazolar orasidan aynan tegishli jazo turi tanlanganligi;

tibbiy yoʻsindagi majburlov chorasini qoʻllash lozim deb topiladigan boʻlsa, bunday qarorga kelish sabablari;

undirilishi lozim boʻlgan moddiy zararni qoplash miqdori;

ashyoviy dalillar taqdirini hal etilishi;

fuqaroviy daʼvo yoki yetkazilgan zarar masalasi yoki jinoyat oqibatida moddiy zarar masalasini qanoatlantirish yoxud rad qilish xulosasi.

Ushbu masalani oʻrgangan olimlar, xususan U.A.Tuxtasheva ham asosli boʻlishi uchun ish boʻyicha haqiqat aniqlanishi kerak. Haqiqatning aniqlanmasligi hukmning asossiz ekanligini anglatadi⁶⁹. A.A.Dgebiya asoslilik deganda sud tergovida oʻrganilgan dalillar bilan ular asosida qilingan sud xulosalari oʻrtasidagi bogʻliqlikni koʻrsatuvchi hukmga xos xususiyat hisoblanadi⁷⁰. Boshqacha aytganda sud xulosalari asoclangan aniq dalillarni keltirish, ularning mazmunini yoritish, tahlil qilish, hukmda hal etilishi lozim boʻlgan masalalar boʻyicha sudning pozitsiyasini bildirish uchun tahlil qilinayotgan qism hukm uchun juda muhim. A.V.Bunin birinchidan, shaxsning aybdorligi yoki aybsizligi toʻgʻrisida sudning xulosalari asoslangan dalillarning koʻrsatilishi, ikkinchidan sud qaysi dalillarni ishonchli deb topgani va qabul qilgani, qaysi dalillarni ishonchli emas deb topgani va rad etganligini koʻrsatishi hukmning asoslilikini tashkil etadi deb hisoblaydi⁷¹. Shuningdek olimning fikriga koʻra, sud hukmda keltirgan xulosalarini tegishli dalillarga havola qilganligini tasdiqlash uchun ham hukmni asoslashi kerak.

⁶⁹ Тухташева У.А. Уголовно-процессуальные пути устранения судебных ошибок. Диссертация на соискание ученой степени доктора юридических наук (Doctor of Science). Ташкент – 2020 год. -С 230.

⁷⁰ Дгебия, А. А. К вопросу о мотивированности приговора / А. А. Дгебия // Актуальные проблемы уголовного права, уголовного процесса и криминалистики: Сборник научных трудов по материалам 4-й Всероссийской научно-практической конференции молодых ученых, аспирантов, соискателей и магистрантов, Краснодар, 23 ноября 2018 года / Под редакцией В. Д. Зеленского. – Краснодар: Кубанский государственный аграрный университет имени И. Т. Трубилина, 2019. – С. 102-106. – EDN TTUKCA. <https://elibrary.ru/item.asp?id=41453537>

⁷¹ Бунина А.В. Приговор суда как акт правосудия. Его свойства. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Челябинск–2005/ https://static.freereferats.ru/_avtoreferats/01002750903.pdf?ver=6

Bulardan tashqari, olim N.S.Yershova hukmning asosliligi o'z ichiga shaxsning ayblilik masalasini qamrab olganligi sababli kvalifikatsiya va jazo tayinlash masalalari hukmning boshqa belgilari – adolatlilik, qonuniylikka xos xususiyatlar ekanligini ta'kidlaydi. I.P.Popova esa hukmning asosliligini tizimlashtirgan holda o'rgangan, ya'ni hukmning asosliligi deganda⁷²:

- 1) sud xulosalarining sud tergovida tekshirilgan dalillar bilan tasdiqlanishi;
- 2) sud tomonidan sud tergovida o'rganilgan va ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan barcha holatlarning inobatga olinganligi;
- 3) sudning xulosalari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan dalillar o'rtasida jiddiy qarama-qarshiliklar paydo bo'lgan vaqtda qaysi asoslarga ko'ra ayrimlari qabul qilganligi yoki aksincha qaysi birlarini rad etilganligi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki, *hukmning asossizligi – sud xulosalarining ishning haqiqiy holatlariga muvofiq emasligini anglatadi va bu holat yuqori instansiya sudlarida hukmni bekor qilish yoki unga o'zgartish kiritishga asos bo'ladi.*

Xususan, JPKning 487-moddasida qanday hollarda sud xulosalarining ishning haqiqiy holatlariga muvofiq emas, deb topilishi yuzasidan aniq tushuntirish berilgan. Unga muvofiq:

- 1) *sud xulosalari sud tergovida tekshirilgan dalillar bilan tasdiqlanmagan bo'lsa.* Bunda jinoyat ishida mavjud bo'lgan dalillar sud tomonidan o'rganilsada, ularga noto'g'ri baho beriladi yoki umuman baho berilmaydi. Natijada sud tomonidan ish doirasida qilingan xulosalar dalillar bilan asoslantirilmasdan qoladi;
- 2) *sud o'z xulosalariga jiddiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan holatlarni e'tiborga olmagan bo'lsa.* Bu shuni anglatadiki, sudning xulosalari ishning haqiqiy holatlariga nomuvofiq deb topiladi va birinchi instansiya sudi JPKning 82-moddasida nazarda tutilgan holatlarni to'liq o'rganmagan bo'ladi;

⁷² Попова И. П. Обоснованность как одно из свойств обвинительного приговора //Законность и правопорядок в современном обществе. – 2012. – №. 11. – С. 198-203. <https://cyberleninka.ru/article/n/obosnovannost-kak-odno-iz-svoystv-obvinitelnogo-prigovora>

3) *ish holatlari yuzasidan bir-biriga zid dalillar mavjud bo'lib, sud nima sababdan dalillarning ayrimlarini ishonarli deb topganligi va boshqalarini rad etganligi hukmda ko'rsatilmagan bo'lsa.* Ushbu holat hukmning dalillarni baholash qismidagi jiddiy kamchiliklardan biri sanaladi. Odatda, dalillarning mazmuniga ko'ra turlarini tashkil etuvchi ayblovchi va oqlovchi dalillar o'rtasida shunday ziddiyatlar kelib chiqadi;

4) *sud xulosalarida jiddiy qarama-qarshiliklar mavjud bo'lib, ular shaxsning aybliligi haqidagi masalani hal qilishga, Jinoyat qonunchiligining to'g'ri qo'llanilishiga yoki jazo chorasini belgilashga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa.* Bu shuni anglatadiki, hukmning qaror qismi mazmuni va uning tavsif-asoslantiruvchi qismi mazmuni o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga keladi va hukm o'zgarishiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Ammo, qonunning ushbu normasida hukm yuqorida sanalgan qanday asoslar bo'yicha bekor qilinishi yoki qaysi birlari bo'yicha hukmga o'zgartish kiritilishi yuzasidan aniq tushuntirish bermagan. Ushbu masalani tadqiq etgan olim O.V.Logvin sudning xulosalari ishning haqiqiy holatlariga mos kelmagan taqdirda hukm bekor qilinib, ushbu kamchilik yangi hukm chiqarish orqali bartaraf etilishi kerakligini ta'kidlaydi⁷³. N.G.Muratova xuddi shu masalada JPKga yangi modda kiritishni va uni quyidagicha bayon etishni taklif etadi⁷⁴:

Hukmda, ajrimda bayon etilgan sud xulosalarining ishning haqiqiy holatlariga muvofiq emasligi aniqlanganda sud tomonidan chiqariladigan qarorlar

1) hukmda bayon etilgan sud xulosalarida shaxsning aybdorligi to'g'risida shubha-gumon mavjud bo'lib, uni ushbu Kodeksga muvofiq bartaraf etish imkoni bo'lmasa, sud ayblov hukmini bekor qilib oqlov hukmi chiqaradi;

⁷³ Логвин, О. В. Решения суда апелляционной инстанции / О. В. Логвин // Правовые проблемы укрепления российской государственности / Ответственные редакторы М.К. Свиридов, Ю.К. Якимович; под редакцией О.И. Андреевой, И.В. Чадной / ФЕДЕРАЛЬНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ АВТОНОМНОЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ УЧРЕЖДЕНИЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ «НАЦИОНАЛЬНЫЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ТОМСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ». Том Часть 63. – Томск : Издательство Томского университета, 2014. – С. 75-79. – EDN THBERV. <https://elibrary.ru/item.asp?id=22896572>

⁷⁴ Муратова Н. Г. Проблема новой (повторной) оценки фактических обстоятельств дела в суде кассационной и апелляционной инстанций (уголовное судопроизводство) // Вестник Оренбургского государственного университета. – 2004. – №. 3. – С. 45-50. <https://cyberleninka.ru/article/n/problema-novoy-povtornoj-otsenki-fakticheskix-obstoyatelstv-dela-v-sude-kassatsionnoy-i-apellyatsionnoy-instantsiy-ugolovnoe>

2) hukmda bayon etilgan sud xulosalari o‘rtasida jiddiy qarama-qarshiliklar bo‘lib, u shaxsning aybdorligi to‘g‘risidagi sudning xulosalariga ta‘sir ko‘rsatadigan bo‘lsa, sud ayblov hukmini bekor qilib, yangi ayblov hukmi chiqaradi;

3) hukmda bayon etilgan sud xulosalari sud majlisida ko‘rilgan dalillar bilan tasdiqlanmagan bo‘lsa, sud hukmni bekor qiladi va jinoyat ishini tugatadi;

4) hukmda sud o‘z xulosalariga jiddiy ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan holatlarni hisobga olmagan bo‘lsa, sud hukmni bekor qiladi va uni o‘zgartiradi.

Yuqori instansiya sudlarida ish yuritish amaliyotini tahlil qiladigan bo‘lsak, hukmda bayon qilingan sud xulosalarining ishning haqiqiy holatlariga muvofiq kelmasligi, protsessual qonun normalarining jiddiy buzilishi sifatida e‘tirof etilib, sud qarorining bekor qilinishiga asos bo‘lmoqda⁷⁵.

§ 3.2. Dalillarning aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi mezonlari

Jinoyat-protsessual huquqda dalillarning huquqiy tabiati va ularni baholash mezonlari sud hukmining qonuniyligi va asoslilikini ta‘minlovchi asosiy ustunlardan biridir. Dalillarning to‘g‘ri baholanishi sudyaning ichki ishonchi, huquqiy bilimlari, sud muhokamasining xolisligi va protsessual tartibga rioya qilinishi bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida dalillarni baholashning uchta fundamental mezoni belgilangan: **aloqadorlik (otnosimost)**, **maqbullik (dopustimost)** va **ishonchlilik (dostovernost)**. Ushbu mezonlar har qanday dalilni ishda qo‘llash yoki rad etish uchun zarur huquqiy filtr hisoblanadi.

1. Dalillarning aloqadorligi (otnosimost) – dalilning ishga tegishlilik va isbot bo‘lisha qobiliyati. Aloqadorlik – bu dalilning jinoyat ishida isbotlash predmetiga daxldorligi, ya’ni uning ayb-oqizni aniqlashga amaliy ahamiyatga egaligidir.

⁷⁵ Ўзбекистон Республикаси Олий судининг жиноят ишлари бўйича судлов хайъати томонидан 2021 йилнинг тўртинчи чорагида кассация тартибида кўрилган ишлар бўйича суд амалиёти обзори. <https://sud.uz/wp-content/uploads/2022/07/%D0%96%D0%98%D0%91%20%D0%BE%D0%B1%D0%B7%D0%BE%D1%80%D0%B8%204%20%D1%87%D0%BE%D1%80%D0%B0%D0%BA.pdf>

JPKning 82-moddasiga ko'ra, **ishda ahamiyatga ega holatlarni aniqlashga xizmat qilmaydigan ma'lumotlar dalil sifatida qo'llanilmaydi.**

Aloqadorlikning mazmuniga quyidagilar kiradi:

1.1. Isbotlash predmeti bilan bog'liqlik. Dalil aybdorlik, aybsizlik, qilmishning oqibati, jinoyat motivi yoki jazoni individuallashtirishga oid holatlar bilan bog'liq bo'lishi shart. Masalan, ayblanuvchining moliyaviy holati o'g'irlik ishida, motivni belgilashga xizmat qilganda aloqador hisoblanadi.

1.2. Mantiqiy bog'liqlik. Dalil faktning haqiqiyligiga mantiqan ta'sir qila olishi lozim. Mantiqiy bog'liqlik yetarli bo'lmasa, dalil ishga daxldor bo'lmaydi.

1.3. Vaqt va makon bog'lanishi. Hodisaga yaqin vaqtda olingan yoki uning yuz bergan joyi bilan bog'liq dalillar odatda yuqori darajada aloqador bo'ladi.

Aloqadorlik – dalilning ishda qo'llanilishi uchun **birinchi, ammo yetarli bo'lmagan** mezon. Dalil aloqador bo'lishi mumkin, lekin protsessual talablarga rioya qilinmagan holda olingan bo'lsa, u maqbul bo'lmasligi mumkin.

2. Dalillarning maqbulligi (dopustimost) – dalilning qonuniy manbadan olinishi va protsessual qonunga muvofiqligi. Maqbullik – dalilning qonuniy yo'l bilan, JPKda belgilangan tartibga rioya qilingan holda olinganligini anglatadi. JPKning 80-moddasiga muvofiq, **qonun buzilishi oqibatida olingan dalillar haqiqiy dalil sifatida e'tirof etilmaydi.**

Maqbullik quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

2.1. Dalilning qonuniy manbadan olinishi. Dalillar faqat qonuniy manbalardan (ekspertiza xulosasi, guvohlik ko'rsatmasi, protokollar va h.k.) olingandagina maqbul bo'ladi. Masalan, shaxsni advokatsiz noqonuniy so'roq qilish orqali olingan ko'rsatmalar maqbul bo'lmaydi.

2.2. Protsessual tartibga rioya qilinishi. Tergov va sud harakatlari uchun belgilangan tartib buzilsa, dalil maqbul hisoblanmaydi. Masalan: tintuv sanksiyasiz o'tkazilsa, ekspertiza qonuniy asosda tayinlanmasa, haq-huquqlar tushuntirilmagan holda olingan ko'rsatmada hatolik bo'lsa.

Bu Yevropa inson huquqlari sudi praktikasidagi «exclusionary rule» – qonunbuzilish orqali olingan dalillarni yo'qqa chiqarish qoidasiga mos keladi.

2.3. Huquqlarni cheklashda qonuniylik tamoyili. Ayniqsa, shaxsning xususiy hayotiga oid dalillar, telefon yozuvlari, videokuzatuv natijalari maqbul bo'lishi uchun ular sud sanksiyasi yoki protsessual asoslarga tayanilgan holda olingan bo'lishi shart.

Maqbullik – suddagi adolatning kafolati bo'lib, qonunbuzarlik orqali olingan dalillarni istisno etish orqali shaxs huquqlari himoya qilinadi.

3. Dalillarning ishonchliligi (dostovernost) – dalilning haqiqatga mosligi va tekshirilganligi. Ishonchlilik – dalilning **haqiqiy, aniq, ob'ektiv va ishonchli** ekanligini ifoda etadi. Sud ishonchli bo'lmagan dalillarga tayana olmaydi.

Ishonchlilik quyidagi mezonlar asosida belgilanadi:

3.1. Manbaning ishonchliligi. Manba: xolis bo'lishi, qarindoshlik, manfaatlar to'qnashuvi va tashqi bosimdan xoli bo'lishi, ko'rsatmaning o'ziga xos detallari bilan boy bo'lishi kerak.

Guvohning shaxsiy munosabati, xotirasi, idrok qobiliyati va munosabatlarini ham hisobga olish zarur.

3.2. Dalillarning ichki mosligi. Ishonchli dalil ichki ziddiyatga ega bo'lmaydi. Agar guvoh ko'rsatmasi o'z ichida ziddiyatli bo'lsa, uning ishonchliligi pasayadi.

3.3. Dalillarning tashqi mosligi. Ishonchlilik dalilning boshqa dalillar bilan uyg'unligi bilan belgilanadi. Masalan, ekspertiza xulosasi, guvohlik va videodalillar o'zaro mos bo'lsa, ishonchlilik oshadi.

3.4. Takroriy tekshirishga chidamlilik. Dalil har qanday tekshirish vositalaridan (so'roq, ekspertiza, qayta ko'rsatma) o'tganda o'z kuchini yo'qotmasligi kerak.

3.5. Ob'ektiv aniqlik. Texnik vositalar (video, audio), jismoniy ob'ektlar, kriminalistik dalillar odatda yuqori ishonchlilikka ega bo'ladi.

Ishonchlilik – ichki ishonch (vnutrennee ubejdenie)ning shakllanishiga asos yaratadi va sud hukmining asosliligini ta'minlaydi.

Hukmning tavsif-asoslantiruvchi qismini shakllantirishda bu masala qonunchilikda aniq tartibga solingan bo'lsada, sudlar tomonidan bir qator xato-kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Xususan, bir guruh bo'lib sodir etgan jinoyatlar

kvalifikatsiyasi, ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasidan ma'lumotlarning ko'chirib qo'yilishi⁷⁶, xulosaning nomaqbul dalillar bilan asoslantirilishi, himoyachi vajlariga baho berilmasligi bilan bog'liq holatlar sud amaliyotida aynan hukmning asoslantiruvchi qismida uchrab turadigan kamchiliklardan hisoblanadi. Ko'p turdagi xatolar hukmni asoslashda kuzatiladi⁷⁷. Mazkur masalani o'rgangan olim I.X.Semenov fikricha, sudlar tavsif-asoslantiruvchi qismni shakllantirishda yuqoridagilardan tashqari yana bir qator kamchiliklarga ham yo'l qo'yishadi⁷⁸:

qilmishni kvalifikatsiya qilish va isbotlash jarayoni uchun ahamiyatga ega bo'lmagan jinoyat ishi holatlarini batafsil keltirish;

jinoiy hodisa amalga oshirilgandan so'ng yuz bergan va bir biri bilan bog'liqlikka ega bo'lmagan holatni keltirish;

dalillarni baholashda mantiqiy ketma-ketlikning mavjud emasligi;

dalillarning baholanmasdan, shunchaki sanab o'tilishi.

Ushbu olimlarning fikrlariga qo'shilgan holda aytish joizki, hukmning asoslantirish qismida ko'zga tashlanadigan eng katta kamchiliklardan biri – bu xulosaga asos bo'ladigan dalillarning *tahlil qilinmasdan, shunchaki ularning keltirilishi* hisoblanadi. Xususan, ko'pincha bir birini tasdiqlash yoki aksincha, bir biriga zid bo'lgan keltirilgan dalillar o'rtasida bog'liqlik yo'qolib qoladi⁷⁹. E'tiborli jihati, tadqiqot ishi doirasida o'rganilgan hukmlarning 1/2, hatto 2/3 qismi sudlanuvchi, guvoh va boshqa shaxslarning ko'rsatuvlarini uchinchi shaxs nomidan keltirish, ashyoviy, yozma va boshqa dalil turlarini sanab o'tish orqali asoslantirilgan. Ularning mazmunidan sud nima uchun o'z xulosalarini ushbu dalillarga tayangan holda chiqarayotganligini tushunish mushkul. Vaholanki, bu turdagi ma'lumotlar sud majlisi bayonnomasida aks etishi kerak. Bundan tashqari,

⁷⁶ Быкадорова Е.В., Манилкин Н.В., Болдырев Н.В. АНАЛИЗ ТИПИЧНЫХ ОШИБОЧНЫХ РЕШЕНИЙ СУДА ПРИ ПОСТАНОВЛЕНИИ ПРИГОВОРА // Юридический вестник Дагестанского государственного университета. 2021. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/analiz-tipichnyh-oshibochnyh-resheniy-suda-pri-postanovlenii-prigovora>

⁷⁷ Косян А.С. Типичные ошибки, допускаемые судами при вынесении приговоров. // Молодой ученый. — 2018. — № 21 (207). — С. 369-371. — URL: <https://moluch.ru/archive/207/50901/>

⁷⁸ Семенов И. Х. АНАЛИЗ И ОЦЕНКА ДОКАЗАТЕЛЬСТВ В ПРИГОВОРЕ КАК ОБЯЗАТЕЛЬНЫЙ ЭЛЕМЕНТ ЕГО ОБОСНОВАННОСТИ // Ответственный редактор. – 2021. – С. 44. <https://innova-science.ru/wp-content/uploads/2021/03/sbornik-nauchnyh-trudov-20.03.2021-fon-29.pdf#page=44>

⁷⁹ Holger Hembach. Judgement-drafting and Training on Legal Writing in the Republic of Moldova. –P 15. https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/migration/md/2020-12-30_Books_EN_1-68--with-cover.pdf

keltirilgan ma'lumotlarning ko'pligidan sudning dalillarni qanday baholayotganligini anglash qiyin. Buni bir qancha sabablar bilan izohlash mumkin:

birinchidan, sudlar shaxslarning ko'rsatuvlaridagi ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan qismlarinigina keltirmasdan uni to'liq keltirishadi. Ularning aksariyati sudning xulosasiga umuman ta'sir etmaydi. Fikrimiz isboti sifatida quyidagi hukmning tavsif qismidan ko'rishimiz mumkin:

“Sudda so'roq qilingan sudlanuvchi **B.B.** e'lon qilingan ayblovga qisman iqrorlik bildirib qo'yidagilarni, ya'ni 2022-yil may oyidan buyon “Zangiota House” MCHJ rahbari sifatida faoliyat yuritib kelayotgani, jamiyat ko'p qavatli uy-joylar qurish faoliyatini amalga oshirishini, hozirda jamiyatning Zangiota tumani, A.Yassaviy MFY, Txay yoqasi, 10-uyda joylashgan qurilish obyekti borligini, loyiha bo'yicha mazkur yer maydonida to'rtta ko'p kavatli uylar kurilishi lozimligini, ushbu yer maydonidagi qurilish ishlari 2023-yil bahorda boshlanganini, hozirda bitta ikki qavat va bitta besh qavatdan iborat uy-joylar qurilganini, Zangiota tumani A.Yassaviy MFY, Txay yoqasi 10-uyda joylashgan yer maydonidagi qurilish ishlari “Toshkentboshplanliti” DUKning ruxsatnomasi asosida amalga oshirilganini, boshqa tashkilotlardan ruxsatlar mavjud emasligini, mazkur yer maydoni “Raximboy ota” xususiy firmasining 2022-yil 8-fevraldagi 1-sonli umumiy yig'ilish bayonnomasi, ta'sis shartnomasi va topshirish-qabul qilish dalolatnomasiga ko'ra “ZANGIOTA HOUSE” MCHJ balansiga o'tkazilganini, jamiyatda hozirda u direktor vazifasida, direktor o'rinbosari T.T. bilan birga faoliyat olib borishini, qolgan ishchilar yollanma ishchi sifatida ishlashini, quruvchilar bilan u og'zaki shartnomaga asosan ish olib borishini, ularga ish haqini o'zi to'lashini, aynan Zangiota tumanidagi qurilishda ham Doniyor ismli shaxs bilan gaplashganini, ushbu yer maydonida qurilish ishlarini amalga oshirish uchun loyixalarni o'zi berib nazoratini amalga oshirishini, Zangiota tuman qurilish bo'limi tomonidan 2022 yil 22-apreldagi qurilish obyektni qayta ixtisoslashtirish va rekonstruksiya qilishga 1727237-43071-sonli ruxsatnoma berilganini, ushbu ruxsatnoma soxta ekanini, mazkur ruxsatnoma olinish uchun o'zi ariza yozmaganini, ushbu ariza yozilgan vaqtda va ruxsatnoma berilgan vaqtda jamiyat direktori lavozimida ishlamaganini,

kadastr agentligi Zangiota tuman bo'limining 2023-yil 23-avgustdagi yer qonun buzilishi holatlarini bartaraf qilish va yer munosabatlarini tartibga solish yuzasidan tuzilgan dalolatnomasidan hamda 2023-yil 25-avgustdagi yer qonunchiligi buzilganini bartaraf qilish bo'yicha yuborilgan ogohlantirish xatidan xabari bo'lmaganini, ushbu ogohlantirish xatlaridan 2023-yil sentyabrda Toshkent viloyat prokuraturasiga borgan vaqtda xabar topganini, kadastr agentligining Zangiota tuman bo'limi tomonidan qurilishga ruxsat berishni rad etish xaqidagi xatlaridan xabari bo'lmaganini, tergov organini chalg'itmaganini, ish yuzasidan barcha hujjatlarni tergov organiga taqdim etganini, u obyektни qayta ixtisoslashtirish va rekonstruksiya qilishga 2022-yil 22-aprelda berilgan 1727237-43084-sonli ruxsatnomaga asosan 0,74 gektar sug'oriladigan yer maydonida qurilish ishlarini amalga oshirganini, 0,74 gektar sug'oriladigan yer maydonida qurilish ishlari amalga oshirilganini, davlat manfaatlariga yetkazilgan 738.340.127 so'm miqdordagi moddiy zarar to'liq qoplanganini, qilmishidan chin kungildan pushaymonligini bildirib ko'rsatuv berdi".

E'tiborli jihati shundaki, ushbu sudlanuvchining ko'rsatuvidagi keltirilgan aksariyat ma'lumotlar sudning xulosa chiqarishi uchun ahamiyatga ega bo'lmasada, hukmning qaror qismi shakllanishiga ta'sir qilmasada to'liq ko'chirib qo'yilgan va bu amaliyot keng tarqalgan bo'lib, deyarli barcha hukmlarda mavjud. Hukmlarda keng tarqalgan kamchiliklar ham unda foydalanilgan so'zlarning ko'pligi, ularning o'quvchi uchun mavhumligi, tushunarsizligi va mazmuni uni o'qiyotgan odam uchun zerikarli bo'lib qolmoqda⁸⁰. *Bizningcha, asoslantiruvchi qismda sud tahlilga ko'proq urg'u berishi, tahlilda foydalanilmaydigan ma'lumotlarni esa hukmda aks ettirmasligi zarur.* So'rovnoma doirasida ishtirok etgan respondentlarning 85,1 foizi sudlar hukmning tavsif qismida dalillarni shunchaki sanab keltirish bilan cheklanmasdan, ularni har tomonlama tahlil qilishga ko'proq urg'u berishlari zarurligini ta'kidlashgan⁸¹. Bu esa hukmning asoslantiruvchi qismini

⁸⁰ Wydick, Plain English for Lawyers, 4th ed (Durham, Carolina Academic Press 1998) at 3 quoted by Chief Justice Beverly McLachlin, "Legal Writing: Some Tools" (2001) 39 Alberta Law Review 695 at 698. <https://classic.austlii.edu.au/au/journals/QldJSchol/2002/44.pdf>

⁸¹ Сўровнома натижалари тадқиқот ишининг илова қисмида келтирилган

takomillashtirib, uning hukmning tili sodda va aniq, taraflar uchun tushunarli bo‘lishiga olib keladi. Hukmning tili sodda, aniq va barcha uchun tushunarli bo‘lishi hukmning shakllantirayotgan sudya uchun asosiy o‘rinda bo‘lishi kerak⁸². Xuddi shu holatni guvohlarning ko‘rsatuvi tahlilida ham ko‘rish mumkin:

Sudda so‘roq qilingan guvoh **R.Sh.**, ya’ni 2017-yildan buyon “Toshkentboshplanliti” DUK bosh direktori lavozimida ishlashini, “ZANGIOTA HOUSE” MCHJning 2021-yil 12-avgustdagi 5-sonli murojaati “Toshkentboshplanliti” DUK tomonidan ko‘rib chiqilib, 2021-yil 19-avgustda 1341-sonli tavsiya xati yuborilganini, mazkur xatda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 70-sonli, 2019-yil 16-yanvardagi 36-sonli, 2019-yil 28-yanvardagi 63-sonli, 2019-yil 29-dekabrda 1023-sonli qarorlari asosida ajratilgan yer uchastkalariga qurilish, binolar va inshootlarning qurilishiga o‘zgartirishlar kiritish, obyektlarni qayta qurish va rekonstruksiya qilish uchun ruxsatnomalar berish kabi masalalar bilan shug‘ullanish bekor qilinganini, jamiyat tomonidan 3,7 ga yer maydoniga pastki qavatlarida maishiy xizmat ko‘rsatish majmuasi bo‘lgan ko‘p qavatli turar joy binolari joylashgan bosh reja loyiha taklifi taqdim etilganini, ammo shaharsozlik hujjatlariga muvofiq turar joy kompleksini tashkil etishda shahar infratuzilma va servis obyektlariga ehtiyojlarini inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim muassasasi, maktab, avtoturargoh va bolalar maydonchalarini mazkur loyihada inobatga olish lozimligi tavsiya etilganini, loyihachi tashkilot tomonidan ishlab chiqiladigan taklifni dastlab mavjud binolardan, oraliq masofalarni muxandislik tarmoqlarini, oqava suv tarmoqlarini inobatga olgan holda o‘rnatilgan tartibda amaldagi shaharsozlik hujjatlariga asosan obyektning joylashuvi xamda SHNK qoidalariga qat’iy rioya qilgan holda qurishga mas’ul barcha manfaatdor tashkilotlar, jumladan viloyat AYFBB, IIB YXXB, FVB, SEOJS markazi hamda ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmalari bilan kelishish lozimligi eslatilganini, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil

⁸² Lord Stephens of Creevyloughare. Judgment writing and judgecraft: a view from the supreme court. irish judicial studies journal. – p 123. <https://ijsj.ie/assets/uploads/documents/2023%20Special%20edition/12.%20Stephens%20Final.pdf>

18-maydagi 370-sonli, 2018-yil 31-iyuldagi 603-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomi bilan tartibga solingan Toshkent viloyati qurilish bosh boshqarmasi huzuridagi shaharsozlik kengashi muhokamasida mutasaddi tashkilot va boshqarmalari ishtirokida loyiha taklifini muhokama qilish lozimligi bildirilganini, mazkur tavsiyada belgilab berilgan talablarga rioya qilinmagan holda qurilish ishlarini amalga oshirishi mumkin emasligini bayon qilinganini bildirib ko'rsatuv berdi.

Sudda so'roq qilingan qo'shimcha guvohlar **B.T., Sh.Z.lar** guvoh R.Sh.ning ko'rsatuvlariga o'xshash xuddi shu mazmunda ko'rsatuv berdi.

Sudda so'roq qilingan qo'shimcha guvoh **T.T.** sudlanuvchi B.B.ning ko'rsatuvlariga o'xshash xuddi shu mazmunda ko'rsatuv berdi.

Sudda so'roq qilingan guvoh **S.K.** quyidagilarni, ya'ni 2021-yildan buyon O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi **huzuridagi kadastr** Agentligi Toshkent viloyati boshqarmasi Zangiota tuman bo'limida **bosh inspektor** lavozimida ishlashini, xizmat **vazifalariga** davlat yer va **kadastr** nazoratini olib **borish** kirishini, "ZANGIOTA HOUSE" MCHJ tomonidan yer maydonlariga bino-inshootlar qurilishi bo'yicha joyiga chiqib o'rganishda shaxsan ishtirok etganini, ushbu o'rganishda viloyat prokuraturasi tomonidan qishloq xo'jaligi bo'limidan birlashtirilgan mutaxassis ishtirok etganini, o'rganishda jamiyat tomonidan jami 0,40 gektar maydonning 0,20 gektarida temir betondan 4-5 qavatli qurilishi tugallanmagan bino qurilgani, 0,20 gektar maydondagi yer 3 metr chuqurlikda qazilib, yerning unumdor qatlami chiqarib tashlanib, ushbu chuqurlikka temir betondan maxsus qurilma qurilgani aniqlanganini, mazkur holat yuzasidan dalolatnoma rasmiylashtirilib taqdim qilinganini, shu tariqa yerning unumdor katlamiga moddiy zarar yetkazilganini, ushbu zarar qishloq xo'jaligi bo'limi mutaxassisi tomonidan hisoblanib dalolatnomada qayd qilinganini, jamiyat tomonidan yer maydonlariga qurilish ishlari bajarilgani holatini o'rganish davomida jamiyat tomonidan sudlanuvchi B.Bobokalonov ishtirok etganini, o'rganish davomida tuzilgan dalolatnomada aniqlangan noqonuniy qurilmani 15 kun muddatda bartaraf qilish ko'rsatilib ushbu holat yuzasidan tuzilgan dalolatnoma

bilan B.Bobokalonov tanishtirilganini bildirib ko'rsatuv berdi.

Sudda so'roq qilingan guvoh **M.A.** qo'yidagilarni, ya'ni 2022-yil dekabrda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Davlat kadastrlar palatasi Toshkent viloyati boshqarmasi Zangiota tuman filialida mutaxassis vazifasida ishlagani sababli yer hisobini yuritish, "UZKAD" tizimida yerdan foydalanuvchilarning yer toifasini belgilash, fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash kabilar xizmat vazifasiga kirishini, "ZANGIOTA HOUSE" MCHJ tomonidan yer maydonlarida qurilish ishlarini bajarish yuzasidan Davlat xizmatlari markazi orqali murojaat yo'llanganini, uning murojaati elektron tarzida integratsiyalashgan holda kadastrlar palatasi Zangiota tuman filialiga kelib tushganini, murojaatni ko'rib chiqish davomida jamiyat tomonidan qurilishi ishlarini bajarish nazarda tutilgan yer maydoni qishloq xo'jaligida foydalaniladigan suvli yer maydonlari tarkibida ekani aniqlanganini, jamiyatning murojaatiga ushbu yer maydonida qurilish ishlarini bajarish rad etilgani haqida elektron tizim orqali ma'lumotnoma yuklanganini, jamiyat tomonidan qurilish ishlarini amalga oshirishi ko'zda tutilgan yer maydoni qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydonlari turiga kirishi "Toshvilerloyiha" SHK tomonidan 2011-yil yerlarni yo'qlamadan o'tkazish natijasiga ko'ra ushbu yer maydonlari Zangiota tumani "Navruz" massivining qishloq xo'jaligi yerlari ekani belgilanganini, ushbu ma'lumotga asosan jamiyat tomonidan qurilish ishlarini amalga oshirilishi ko'zda tutilgan yer maydoni qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydonlari turiga kirishi haqida ma'lumotlar elektron tizimga kiritilganini bildirib ko'rsatuv berdi.

Sudda so'roq qilingan guvoh **D.R.** quyidagilarni, ya'ni 2021-yil 11-oktyabrda boshlab O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi kadastr Agentligi Toshkent viloyati boshqarmasi Zangiota tuman bo'limida yetakchi mutaxassis lavozimida ishlashini, davlat yer va kadastr nazoratini olib borish xizmat vazifasiga kirishini, "ZANGIOTA HOUSE" MCHJ tomonidan yer maydonlariga bino inshootlar qurilishi bo'yicha joyiga chiqib o'rganishda shaxsan ishtirok etganini, ushbu o'rganishda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Toshkent viloyati

boshqarmasi Zangiota tuman bo‘limi bosh inspektor S.Kasimov ham ishtirok etganini, u tomonidan dalolatnoma rasmiylashtirilganini, o‘rganish davomida quyidagilar aniqlanganini, ya’ni jamiyat tomonidan jami 0,40 gektar maydonning 0,20 gektarida temir betondan 4-5 kanatli qurilishi tugallanmagan bino qurilganini, 0,20 gektar maydondagi yer 3 metr chuqurlikda qazilib, yerning unumdor katlamini chiqarib tashlanib, ushbu chuqurlikka temir betondan maxsus qurilma qurilgani aniqlanganini, mazkur holat yuzasidan dalolatnoma tuzilib taqdim etilganini, yerning unumdor qatlamiga yetkazilgan moddiy zarar qishloq xo‘jaligi bo‘limi mutaxassisi tomonidan hisoblanganini, jamiyat tomonidan yer maydonlariga qurilish ishlari bajarilgani holatini o‘rganish davomida “ZANGIOTA HOUSE” MCHJ tomonidan sudlanuvchi B.B. ishtirok etganini, o‘rganish davomida tuzilgan dalolatnomada aniqlangan noqonuniy qurilmani bartaraf etish haqida sudlanuvchiga ogoxlantiruv xatini taqdim etganida xatni qabul qilishni rad etganini, o‘rganish dalolatnomasida ham noqonuniy qurilmani 15 kun muddatda bartaraf etish yuzasidan ogoxlantirish dalolatnomasi bilan B.Bobokalonov tanishtirilganini, shunday bo‘lsada “ZANGIOTA HOUSE” MCHJ tomonidan ushbu noqonuniy qurilma bartaraf etilmaganini, aksincha yana qurilishi davom ettirilganini bildirib ko‘rsatuv berdi.

Sudga kelmagan guvoh S.R.ning dastlabki tergov davrida bergan ko‘rsatuvlari taraflarning roziligiga ko‘ra o‘qib eshittirilganda, sudlanuvchi B.B. uning ko‘rsatuvlarini qisman tasdiqlashini bildirdi.

Sud sudlanuvchi B.B.ning O‘zbekiston Respublikasi JKning 192¹¹-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikdagi aybi uning sud majlisida e’lon qilingan ayblovga qisman iqrorlik bildirib bergan ko‘rsatuvidan tashqari sudda so‘roq qilingan guvohlar va mutaxasislarning ko‘rsatuvlari, bildirgi (1-j.i.v.4), kadastr agentligi Zangiota tumani bo‘limi boshlig‘i Sh.Jo‘rayevning yer nazorat tadbirlarini amalga oshirish yuzasidan tuzilgan ma’lumotnomasi (i.v. 5-6), Kadastr Agentligi Zangiota tuman bo‘limi bosh inspektori S.Q. va boshqalar tomonidan 2023-yil 9-sentyabrda tuzilgan dalolatnoma va unga ilova hujjatlar (1-j.i.v.7-24), tushintirish xatlari (i.v.25-28,44-46,51-52,54-58,68-69), kadastr agentligining

Zangiota tuman bo'limi tomonidan "ZANGIOTA HOUSE" MCHJ ga yer maydonida ushbu yer maydonlari sug'oriladigan yer maydoni ekanligi sababli qurilish ishlari amalga oshirishiga e'tiroz bildirish haqidagi xati va unga ilova qilingan hujjatlar (1-j.60-67), yer qonunchiligi buzilganini bartaraf etish to'g'risidagi kadastr agentligining Zangiota tuman bo'limi tomonidan berilgan ogohlantirish xati va unga ilova hujjatlar (1-j.i.v.70-77) obyektini qayta ixtisoslashtirish va rekonstruksiya qilishga qalbaki ruxsatnoma (1-j.i.v.165), obyektini qayta ixtisoslashtirish va rekonstruksiya qilishga ruxsatnoma qalbakilashtirilgani haqida yuridik xulosa (1-j.i.v.284-288), obyektini qayta ixtisoslashtirish va rekonstruksiya qilishga berilgan qalbaki ruxsatnoma va boshqa hujjatlar (1-j.i.v.289-321), "ZANGIOTA HOUSE" MCHJ ga tegishli noturar joy to'g'risidagi mavjud hujjatlarni o'rganish yuzasidan ma'lumot (2-j.i.v.11-13), narsa va hujjatlarni ashyoviy va yozma dalil deb e'tirof etish hamda jinoyat ishiga qo'shish haqida qaror (2-j.i.v.136-138) kabi jinoyat ishida mavjud bo'lgan obyektiv dalillar hamda sud tergovida aniqlangan dalillar majmui bilan to'liq tasdig'ini topgan deb hisoblaydi⁸³.

Ushbu hukmdan anglashiladiki, sud hukmni xulosani talab darajasida asoslantirmagan, tahlil-asoslantirish qismi ortiqcha ma'lumotlar bilan to'ldirilgan, dalillar sifatsiz tahlil qilingan, hukmni yozish tili murakkab.

ikkinchidan, sud xulosasini asoslantiruvchi dalillarning bir biriga munosabati, ularning o'zaro bog'liqligi ko'rsatilmaydi. Masalan, A. Ismli shaxsning ko'rsatuvi B. Ismli shaxsni ko'rsatuviga muvofiqligi yoki aynan qaysi qismi o'zaro zidligi aniqlashtirilmaydi. Bu esa sud xulosalarining yetarli darajada asoslantirilmasligiga olib keladi, sudlarning baholash mezonlaridan samarali foydalanmayotganini yoki umuman foydalanmayotganligini ko'rsatadi. Umuman olganda, hukmning asoslantiruvchi qismida sudlar shaxsning aybi isbotlanganligini real tushuntirib bermaydi.

⁸³ public.sud.uz/report/CRIMINAL

Sud hukmining asoslantiruvchi qismida tahlil yetarli darajada amalga oshirilmayotganligining yuqorida sanab o'tilgan kamchiliklari yuzaga kelishiga bir qator sabablar mavjud bo'lib, ular to'g'ridan to'g'ri hukm sifatiga ta'sir ko'rsata oladi. Shulardan biri – **sudlarda ish hajmining ko'pligi**. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Respublikamizda 2022-yilda jinoyat ishlari bo'yicha 507 nafar sudya faoliyat yuritgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 525, 2024-yilning 9 oyi davomida esa 588 nafarni tashkil etgan⁸⁴. Bir yilda o'rtacha 55-60 mingta ish ko'rilishidan kelib chiqadigan bo'lsak, yuklama yuqoriligicha qolmoqda.

Yana bir muhim sabablardan biri – bu ayrim sudyalarning hukmning **asoslantirish qismini shakllantirish bo'yicha malakaga ega emasligi** hisoblanadi. Ayniqsa, birinchi marta sudyalikka tayinlanadigan nomzodlarning hukmni yozish texnikasi (uslubiyoti) bo'yicha ma'lumotga ega emasligi ular tomonidan dalillar tahlilini o'z ichiga oluvchi asoslantirish qismni ijodiy tarzda, o'z bilim va tajribalaridan kelib chiqib, mavjud o'xshash ishlar bo'yicha chiqarilgan hukmlarga asoslanib, shakllantirishlariga olib kelmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 7-son "Sud hukmi to'g'risida"gi Qarori 3-bandi 1-qismini quyidagi jumla bilan to'ldirish taklif etiladi:

"Hukmning tavsif-asoslantiruvchi qismida keltirilayotgan har bir yangi bayon undan oldingisiga nisbatan mantiqiy izchillikda berilishi zarur. Ishtirokchilarning ko'rsatuvlari uchinchi shaxs nomidan keltiriladi va ular sudning xulosasiga bevosita aloqasi bo'lgan ma'lumotlar bo'lishi shart. Sud hukmning mazkur qismida dalillarni shunchaki sanab o'tish yoki mazmunini tushuntirish bilan cheklanmasdan har tomonlama tahlil qilishi, ularga baho berishi zarur."

Hukmning asoslantiruvchi qismini shakllantirish yuzasidan yagona xalqaro sud amaliyoti mavjud emas. Masalan, anglo-sakson huquq tizimiga kiruvchi davlatlar: AQSH yoki Buyuk Britaniyada hukm yozish masalasida sudyalar ancha

⁸⁴ Ўзбекистон Республикаси Олий суди томонидан тақдим этилган 07.11.2024 йилдаги 07/14-14927-471-сон маълумотнома

erkin bo‘lib, o‘z fikrlari, tahlillariga ijodiy yondashadi. Romana-german huquq tizimida esa uning jinoyat-protsessual qonunchilik bilan tartibga solingan qoliplari bor.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish joizki, hukmning asoslantiruvchi qismini takomillashtirish, sud amaliyotiga aylangan ortiqcha ma’lumotlarni unda ko‘rsatmaslik, dalillarni sanab o‘tmasdan ularni tahlil qilishni kuchaytirish va bu tahlilni huquqiy savodxonligi darajasidan qat’iy nazar barchaga tushunarli, sodda va oddiy tilda bayon etish zarur deb hisoblaymiz.

IV-BOB. SUD HUKMINING ADOLATLILIGI: MAZMUN, MEZONLAR VA INDIVIDUALIZATSIYA TALABLARI

§ 4.1. Adolat prinsipining huquqiy tabiati va konstitutsion asoslari

Adolat ijtimoiy tushuncha sifatida jinoyat ishi doirasida sudning yakuniy hujjatida aks etadi. Shuningdek, u huquq normalarida o‘z aksini topadi va ushbu normalar adolatni ta’minlovchi kafolat bo‘lib ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashga xizmat qiladi. Hukmning adolatliligi unga qo‘yilgan asoslilik va qonuniylik mezonlaridan farqli ravishda mustaqil talab sifatida e’tirof etiladi. Boshqacha aytganda, adolatlilik sud qarorining ijtimoiy-axloqiy xususiyatini nomoyish qiladi. Milliy jinoyat-protsessual qonunchiligimizni tahlil qiladigan bo‘lsak, hukmning qaysi hollarda adolatli bo‘lishi, uni adolatli deb topish asoslari belgilab qo‘yilgan. Xususan, JPKning 455-moddasiga muvofiq, hukm aybdorga nisbatan jazo yoki boshqa ta’sir chorasi u sodir etgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi va uning shaxsiga muvofiq tayinlangan, aybsiz shaxs esa oqlangan va reabilitatsiya etilgan bo‘lsa, bunday hukm adolatli deb tan olinadi. Ushbu norma mazmunidan anglashiladiki, hukm adolatli bo‘lishi uchun sud sudlanuvchi (lar)ning shaxsini, axloqini, o‘zini tutishini, jismoniy va psixologik holatini e’tiborga olishi kerak bo‘ladi.

Hukmning mazmuniga qo‘yilgan talablar, xususan ayblov hukmining qaror qismini tadqiq etgan olim T.Obidov fikricha, ayblov hukmining adolatliligi deganda,

aybdorga nisbatan jazo yoki boshqa ta'sir chorasi u sodir etgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi va uning shaxsi e'tiborga olinib tayinlanishi tushunilishi lozim⁸⁵. Keltirilgan ushbu ta'rif mazmunidan anglashiladiki, u JPKning 455-modda mazmunidan jiddiy farq qilmaydi. Z.V.Makarova esa sud hukmining adolatliligini haqiqat bilan bog'laydi. Unga ko'ra, adolatlilik baholovchi xususiyat sifatida haqiqat va axloqiy prinsiplar (insonparvarlik, halollik)ga tayanadi. Boshqacha aytganda, adolatli qaror qabul qilish – birinchi navbatda qonunga va jinoyat ishini tergov qilish va uni sudda ko'rish jarayonida aniqlangan dalillarga asoslanish demakdir⁸⁶. Shu bilan birga, olim faqat haqiqiy hukmgina adolatli bo'lishini ta'kidlaydi. Bulardan tashqari, A.V.Titova ham hukmning adolatliligini uning axloqiy jihati bilan bog'laydi⁸⁷. Unga ko'ra, sudlanuvchining shaxsi, ish holatlari, og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlar, qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasini to'g'ri baholash, jazo turi va me'yorini aniq belgilash hukm adolatliligining axloqiy tomonini o'zida aks ettiradi. Xuddi shunday yondashuvni D.J.Djanoyan ham qo'llab quvvatlaydi. Unga ko'ra, hukmning adolatliliigi sud tomonidan ishning haqiqiy holatlariga beriladigan ijtimoiy-axloqiy baho bo'lib, qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyati inobatga olingan holda tayinlanadigan jazoning turi va me'yori, sudlanuvchining shaxsiga oid xususiyatlarni o'zida aks ettiruvchi sudning hukmidagi ma'lumotlardir⁸⁸.

Ushbu olimlarning fikrlaridan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, “adolatlilik” sud tomonidan shaxsga nisbatan jazo tayinlashga nisbatan qo'llanilib, hukmga qo'yilgan muhim talabni o'zida aks ettiradi. Shuningdek, hukmning adolatliliigi jinoyat-protsessual qonunchiligining vazifalari (jinoyat sodir etgan har

⁸⁵ Obidov T.A. Ayblov hukmining qaror qismiga qo'yilgan talablar. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2023. – 18 b.

⁸⁶ Макарова З. В. Справедливость в уголовном судопроизводстве //Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Право. – 2012. – №. 7 (266). – С. 54-56. <https://cyberleninka.ru/article/n/spravedlivost-v-ugolovnom-sudoproizvodstve>

⁸⁷ Титова А. В. Понятие правосудности и справедливости приговора по российскому уголовному праву //Философия права. – 2009. – №. 5. – С. 117-119. <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-pravosudnosti-i-spravedlivosti-prigovora-po-rossiyskomu-ugolovnomu-pravu>

⁸⁸ Джаноян Г. Р. Справедливость судебного разбирательства в уголовном судопроизводстве //Северо-Кавказский юридический вестник. – 2009. – №. 4. – С. 92-95. <https://cyberleninka.ru/article/n/spravedlivost-sudebnogo-razbiratelstva-v-ugolovnom-sudoproizvodstve>

bir shaxsga adolatli jazo berilishi)ni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Bundan tashqari, adolatlilik qonuniylik mezonini bilan uzviy bog'liq bo'lib, hukm adolatli bo'lishi uchun uning qonuniy bo'lishi talab etiladi. Lekin, ushbu ikki tushunchalar mazmunan bir-biridan farq qiladi: qonuniylik huquqiy tushuncha bo'lsa, adolatlilik axloqiy tushuncha hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, hukmning adolatliligi birinchi navbatda tayinlanayotgan jazoning adolatliligi, sud muhokamasining adolatli o'tishi bilan bog'liq. Shuning uchun unga faqat jarayon sifatida emas, natija sifatida ham qaralishi zarur. Hatto, yuqori instansiya sudlarida ish yuritish jaryonida ham hukmning, tayinlangan jazoning adolatsizligi hukmni o'zgartish yoki uni bekor qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Qiziq jihati shundaki, jinoyat-protsessual qonunchilikda "adolatlilik" tushunchasi noodatiy usulda uning teskarisini keltirish - "adolatsizlik" mezonlari asosida yoritib berilgan. Xususan, JPKning 490-moddasiga muvofiq, quyidagi hollarda jazo adolatsiz, hisoblanadi:

jazo jinoyatning og'irligiga nomuvofiq bo'lsa;

jazo mahkumning shaxsiga nomuvofiq bo'lsa;

jazo Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan doiradan chetga chiqmasdan tayinlangan bo'lsa-da, biroq turi yoki me'yori bo'yicha o'ta yengil yoki o'ta og'ir bo'lsa.

Yuqori instansiya sudlarida hukmni bekor qilishning yuqoridagi asoslariga e'tibor beradigan bo'lsak, ularning barchasi aynan tayinlanadigan jazo bilan bog'liq. Adolatsiz tayinlangan jazo o'z navbatida, hukmning adolatsiz ekanligini ham anglatadi. Ammo, mazkur holat tahlil talab etadi, chunki jazoning adolatsizligi butun hukmning adolatsiz ekanligini anglatmasligi kerak. Ushbu masalani o'rgangan olim G.G.Demurchevga ko'ra, hukmning adolatliligi yuqori instansiyalarda hukmni bekor qilishning boshqa asoslaridan mustaqil tarzda yoki ular bilan birgalikda qo'llaniladi⁸⁹. Bu orqali olim ushbu asos "Jinoyat kodeksi normalarining noto'g'ri

⁸⁹ Демурчев Г.Г.Основания отмены или изменения решений суда по уголовным делам, вступивших в законную силу. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Краснодар 2010. https://static.freereferats.ru/_avtoreferats/01004881799.pdf?ver=8

qo‘llanilishi” yoki “Hukmda, ajrimda bayon etilgan sud xulosalarining ishning haqiqiy holatlariga muvofiq emasligi”, “Sud tergovining to‘liq emasligi va bir yoqlamaligi” kabi asoslar bilan birgalikda uchrashi mumkinligiga ishora qilgan. Ammo, olimning fikrlariga qo‘shilib bo‘lmaydi. Jazoning adolatsizligining boshqa mezonlardan farqlovchi asosiy xususiyati yuqorida ko‘rsatilganidek, jazo Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan doiradan chetga chiqmasdan tayinlangan bo‘ladi, faqat uning turi, me‘yori bo‘yicha o‘ta yengil yoki o‘ta og‘ir tayinlanadi. Ushbu protsessual xatoliklar yuqori instansiya sudlari tomonidan bartaraf etiladi. Biroq, V.N.Bibiloga ko‘ra, hukmni adolatsiz deb topishning asosida “Jinoyat kodeksi normalarining noto‘g‘ri qo‘llanilishi” yotadi⁹⁰. Ammo, bunga qarama-qarshi ravishda K.V.Xalimanenkov asosios hukmda JKning Umumiy va Maxsus qismlarining qoidalari buzilmaydi, faqat tayinlangan jazo o‘ta yengil yoki og‘ir bo‘ladi, xolos⁹¹. Ushbu fikrlardan xulosa qilish mumkinki, hukmning yuqori instansiyalarda o‘zgartish yoki bekor qilishning bu ikki asosi bir-biri bilan bog‘liq, lekin ularni mazmunan bir xil deb bo‘lmaydi.

Sud amaliyotida adolatsiz hukm chiqarilishi bilan bog‘liq holatlar uchrab turadi. Xususan, Toshkent shahar jinoyat ishlari bo‘yicha Mirzo Ulug‘bek tuman sudining 2024-yil 29-aprel kunidagi hukmiga ko‘ra, Vaxitov Eldar Anvarovich O‘zbekiston Respublikasi JKning 276-moddasi 2-qismi “b” bandi bilan aybli topilib, unga nisbatan JKning 57-moddasini qo‘llab, ish haqining 20 foizini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda 2-yil muddatga axloq tuzatish ishlari, JKning 60-moddasi tartibida uzil-kesil o‘tash uchun ish haqining 20 foizini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda 2-yil 6 oy muddatga axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlangan.

⁹⁰ Библио, Валенина Николаевна. “Справедливость приговора суда.” (2019). Журнал Белорусского государственного университета. Право = Journal of the Belarusian State University. Law. - 2019. - № 3. - С. 73-79. <https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/241711/1/73-79.pdf>

⁹¹ Халиманенков, К.В. Несправедливость приговора как основание апелляционного пересмотра / К. В. Халиманенков // Мировые исследования в области социально-гуманитарных наук: Материалы III Международной научно-практической конференции, Рязань, 27 марта 2023 года. – Рязань: Общество с ограниченной ответственностью “Издательство “Концепция”, 2023. – С. 386-387. – EDN JAENLC. https://www.elibrary.ru/download/elibrary_52692668_56661355.pdf

Birinchi instansiya sudi E.Vaxitovga jazo turi va me'yorini tanlashda, O'zbekiston Respublikasi JKning 56-moddasida qayd etilgan jazoni og'irlashtiruvchi holatlar mavjud emas deb, uning shaxsini, oilaviy va mulkiy sharoitini, oilada yagona boquvchi ekanligini, qaramog'ida keksa va kasalmand otanasi, turmush o'rtog'i hamda 3 nafar voyaga yetmagan farzandlari borligi, qilmishidan pushaymonligini, dastlabki tergov va sudni chalg'itmasdan aybini bo'yniga olib, chin ko'ngildan pushaymon bo'lib, jinoyatni ochish uchun faol yordam berganini, O'rtachirchiq tumanida chorvachilik bilan shug'ullanib kelayotganini O'zbekiston Respublikasi JKning 55-moddasiga asosan jazoni yengillashtiruvchi holatlar deb baholab, E.Vaxitovning muqaddam shunga o'xshash jinoyatni sodir qilganligi va shu jinoyat uchun tayinlangan jazoni o'tash davrida qasddan yana shu turdagi jinoyatni sodir qilganligi holatiga e'tibor bermay, ushbu holatlar sudlanuvchi E.Vaxitov tomonidan sodir qilingan qilmishning ijtimoiy xavfliligini jiddiy kamaytiruvchi holatlar deb bo'lmasligi yaqqol namoyon bo'lsa-da, O'zbekiston Respublikasi JKning 276-moddasi 2-qismi sanksiyasida nazarda tutilmagan yengilroq jazo tanlab, bir muncha yengil jazo tayinlagan.

Yakunida Toshkent shahar jinoyat ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tuman sudining 2024-yil 29-aprel kunidagi Vaxitov Eldar Anvarovich (Vaxitov Eldar Anvarovich)ga nisbatan chiqarilgan hukmi bekor qilingan va uzil-kesil o'tash uchun 3 (uch) yil 1 (bir) oy muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanlash orqali jazo og'irlashtirilgan⁹².

Ushbu amaliy misolda ko'rsatilgan holatdan kelib chiqib, aytish joizki adolatlilik hukmni bekor qilish yoki o'zgartirish uchun mustaqil mezon sifatida namoyon bo'la oladi va tayinlangan jazo og'irlashtirilgan hollarda JPKning 494-moddasi tartibida yangi hukm chiqarilishi kerak. Ammo, ushbu mezon mazkur moddada hukmni bekor qilish va yangi ayblov hukmi chiqarish uchun asos sifatida ko'rsatilmagan. Bizningcha, ushbu qo'pol xatolik darhol bartaraf etilishi lozim. Shundan kelib chiqib, JPKning 494-modda 3-qismidagi "*hukmning qonunga*

⁹² <https://public.sud.uz/report/CRIMINAL>

xilofligi va asossizligi” jumlasini “*hukmning qonunga xilofligi va asossizligi, adolatsizligi*” deya o‘zgartirishni va moddaning 3-qismini quyidagi tahrirda bayon etishni taklif etsa bo‘ladi.

“Sudning oqlov hukmi apellyatsiya, kassatsiya yoki taftish instansiyasi sudi tomonidan faqat prokurorning protestiga yoki jabrlanuvchining, uning vakilining mazkur hukmning qonunga xilofligi va asossizligi, adolatsizligi borasidagi shikoyatiga ko‘ra, ayblov hukmi chiqarilgan holda bekor qilinishi mumkin”.

Ayrim rivojlangan davlatlar tajribasi o‘rganilganda, jazoning adolatsizligi hukmga qo‘yilgan qat’iy talablardan biri ekanligi, agarda shaxsga moddaning sanksiyasi doirasida jazo tayinlangan bo‘lsada, lekin jazo haddan tashqari yengil yoki og‘ir bo‘lsa – bu hukmni yuqori instansiya sudida o‘zgartirish yoki bekor qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, **Rossiya Federatsiyasi** JPKning 389¹⁸-moddasi, **Qozog‘iston Respublikasi** JPKning 438-moddasi, **Qirg‘iziston Respublikasi** JPKning 422-moddasida bu masala huquqiy jihatdan tartibga solingan. Gruziya va Moldova Respublikalari Jinoyat-protsessual kodekslarida esa yuqori instansiyada hukmni o‘zgartirish yoki bekor qilish asoslari nazarda tutilmagan.

Bugungi kunda jinoyat ishini adolatli yuritishning ikki doirasini ajratib ko‘rsatish mumkin: moddiy-huquqiy va protsessual huquqiy. O‘z navbatida moddiy-huquqiy chegara jinoyat qonunchiligi va uni amalda qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Sudlar uchun ham aynan ushbu chegara JKning 8-moddasida nazarda tutilgan bo‘lib, *shaxsga nisbatan tayinlanadigan jazo yoki boshqa huquqiy ta’sir chorasi sodir etilgan jinoyatning og‘ir yoki yengilligiga, aybning, shuningdek jinoyatni sodir etgan shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasiga muvofiq bo‘lishi kerak.* Aynan shu qoida, ya’ni **odillik prinsipi** jinoyat-protsessual qonunchigimizda ham o‘z aksini topgan bo‘lib, hukmning adolatliligi mezonining yaralishiga asos bo‘lgan va aynan jinoyat qonunchiligidagi prinsip jinoyat-protsessual qonunchilikda sud qarorini bekor qilish yoki o‘zgartirish asosi sifatida o‘rnatilgan. Jinoyat-protsessual qonunchilik tahlili shuni ko‘rsatadiki, hukmning adolatliligini ta’minlovchi mezonlarning yuqorida ta’kidlangan faqat moddiy-huquqiy jihatlari mavjud. Chunki u hukmning tayinlanadigan jazoga oid qismida ko‘rinadi.

Mazkur masalani o'rgangan olimlar L.A.Voskobitovaga ko'ra, mazkur holat xalqaro huquqning umum tan olingan normalari va prinsiplariga to'g'ri kelmaydi. Sababi ularda jinoyat ishi yurituviga xos bo'lgan adolatning shaxs huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan minimal kafolatlari majmui jamlangan⁹³. Boshqacha aytganda, ushbu normalarda adolatli sud muhokamasi faqat tayinlanadigan jazoni nazarda tutuvchi to'g'ri jazolashni emas, adolat tushunchasining umuman boshqa mazmunini belgilab beradi. Bunda asosiy urg'u jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxsga nisbatan bo'ladigan munosabatga qaratilgan. Afsuski, jinoyat sudlov ishlarini yuritishga oid xalqaro standartlar bevosita hukmning emas, ko'proq sud muhokamasining adolatli o'tkazilishini kafolatlaydi. Ammo, ikkala tushuncha bir biri bilan bog'liq bo'lib, jinoyat protsessida adolatlilik – sud qarorlarini tekshirish va ularga baho berishning ijtimoiy adolatga, qaror qabul qilishga asos bo'lgan faktik ma'lumotlarning bir biriga mutanosibligiga nisbatan yondashuvni o'z ichiga olgan asosiy mezonlaridan biridir.

Shuni ta'kidlash kerakki, adolatli sud muhokamasi tushunchasi xalqaro huquqda protsessual-huquqiy mazmunga ega, sudlov ishlarini yuritishning samaradorligini bevosita baholashga xizmat qiladi. Jumladan, **Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Paktning 14-moddasi va Insonning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa Kovensiyasining 6-moddasi** mazmuniga ko'ra, adolatlilik deganda xolis sud tarkibi tomonidan oqilona muddatlarda va ayblanayotgan shaxsning huquqlari ta'minlangan holda olib boriladigan sud muhokamasi tushuniladi⁹⁴. Ushbu qoidalarning ahamiyatidan kelib chiqib, ayrim olimlar uni jinoyat protsessining prinsipi sifatida qonunchilikda mustahkamlashni taklif etishadi⁹⁵. Haqiqatdan ham ushbu prinsip milliy jinoyat-

⁹³ Воскобитова, Л. А. Правовые рамки справедливости в уголовном судопроизводстве / Л. А. Воскобитова // Справедливость и равенство в уголовном судопроизводстве : Материалы всероссийской научно-практической конференции 20-21 марта 2015 года, Санкт-Петербург, 20–21 марта 2015 года / Северо-Западный филиал ФГБОУ ВО «Российский государственный университет правосудия»; Международная ассоциация содействия правосудию. Том Часть I. – Санкт-Петербург: Северо-Западный филиал Федерального государственного бюджетного образовательного учреждения высшего образования "Российский государственный университет правосудия", 2016. – С. 55-67. – EDN WIFZLD. https://elibrary.ru/download/elibrary_26515115_24989144.pdf

⁹⁴ https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/pactpol.shtml

⁹⁵ Ирина Владимировна Губко, Лаура Грачицкова Колесникова Обеспечение справедливости приговора судом: теоретико-правовые аспекты законодательного регулирования // Закон и право. 2022. №6. URL:

protsessual qonunchiligimizda o‘z aksini topmagan, qonunchilik adolatlilik talabini sud muhokamasiga nisbatan emas, yakuniy hujjat sifatida hukmga nisbatan belgilagan.

Bizningcha, adolatli hukm deganda adolatli sud ish yurituvini yuritish hamda jinoyat qonunini to‘g‘ri qo‘llash asosida qabul qilingan hukm tushunilishi kerak. Boshqacha aytganda, hukmning adolatliligi jinoyat-protsessual baholovchi mezon sifatida nafaqat jinoyat ishini mazmunan ko‘rish natijasini, balki dalillarni to‘plashga qaratilgan sud muhokamasi jarayonini ham qamrab olishi zarur. Agarda sud muhokamasi adolatsiz olib borilgan bo‘lsa, uning natijai bo‘yicha chiqariladigan hukmni ham adolatli deb bo‘lmaydi. Hukmning adolatligi jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikning qay darajada to‘g‘ri qo‘llay olganligiga ham bog‘liq.

Shuningdek, G.R.Djanonyan ham hukmning adolatliligi uning tortishuvga asoslangan ish yurituv prinsiplariga rioya qilingan holda chiqarilganligi va tayinlangan jazoning sodir etilgan qilmishga muvofiqligida ko‘rinishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, adolat birinchi navbatda jamiyat a’zolarining tengligini nazarda tutadi. Bunda olim adolatli hukm chiqarish adolatli (taraflar tengligiga asoslangan) sud muhokamasi o‘tkazilishini nazarda tutishi to‘g‘risida xulosaga kelgan⁹⁶.

Hukm adolatli bo‘lishi uchun uni chiqarish shart-sharoitlari adolatli bo‘lishi kerak. Adolatli sud muhokamasiga bo‘lgan huquq sudda manfaatlarini himoya qilayotgan taraflarning tengligini ta’minlagan holda belgilangan qoidalarga rioya qilingan sud ishlarini olib borishni nazarda tutadi. T.V.Yakusheva ham adolatlilik xalqaro huquqdagi muhim prinsiplardan biri ekanligi, ammo milliy qonunchilikda faqat Jinoyat kodeksini aks etganligiga e’tiroz bildirib, adolatlilik butun huquqiy faoliyat asosi bo‘lishi kerakligi, ya’ni u qonunchilik, huquqni qo‘llash va ijro bosqichlariga ham tadbiiq etilishi kerakligini ta’kidlagan⁹⁷. Ushbu protsessualist

<https://cyberleninka.ru/article/n/obespechenie-spravedlivosti-prigovora-sudom-teoretiko-pravovye-aspekty-zakon-odatelnogo-regulirovaniya>

⁹⁶ Джаноян Г.Р. Справедливость судебного разбирательства в уголовном судопроизводстве // Северо-Кавказский юридический вестник. 2009. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/spravedlivost-sudebnogo-gazbiratelstva-v-ugolovnom-sudoproizvodstve>

⁹⁷ Якушева Тамара Васильевна Значение состязательности для постановления законного, обоснованного и справедливого приговора // Известия АлтГУ. 2005. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/znachenie-sostyazatelnosti-dlya-postanovleniya-zakonnogo-obosnovannogo-i-spravedlivogo-prigovora>

olimlar jinoyat-protsessual qonunchilikda shaxsning adolatli sud muhokamasiga bo‘lgan huquqi qat’iy ta’minlanishi kerakligini ilmiy jihatdan asoslantirishga harakat qilishgan.

Biroq, bu masalada boshqacha yondashuvlar ham uchraydi. Xususan, T.O.Lavrenteva adolatlilik prinsip sifatida jinoyat-protsessual qonunchiligida mavjud bo‘lmada barcha jinoyat-protsessual institutlar adolatli sud muhokamasi o‘tkazishga yo‘naltirilgan⁹⁸. Buning uchun jinoyat protsessining barcha bosqichlarida shaxs huquqlari ta’minlanishiga qat’iy rioya qilinishi kerak. O‘z nuqtayi nazari bilan olim jinoyat ishi bo‘yicha sud muhokamasiga qo‘yilgan barcha talablar majmuini – adolatlilik deya tushuntirgan va uni jinoyat-protsessual qonunchilikda alohida prinsip sifatida belgilashga zarurat yo‘qligi to‘g‘risida xulosaga kelgan. Ushbu olimning fikrlariga qo‘shilgan holda hukmning adolatliligi quyidagi hollarda namoyon bo‘lishi to‘g‘risida xulosaga kelindi:

sudya jinoyat ishi holatlarini, sudlanuvchining shaxsini, og‘irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarni va jazo tayinlashda ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha holatlarni har tomonlama o‘rganishi;

tayinlangan jazo qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasiga mos bo‘lishi.

Amaldagi qonunchiligimizga ko‘ra, sud muhokamasining to‘g‘ri o‘tkazilmaganligi hukmning adolatliligi emas, jinoyat-protsessual kodeksning jiddiy buzilishi sifatida qabul qilinadi va uning jiddiy buzilishi hukmni o‘zgartish yoki bekor qilish uchun asos bo‘ladi. Shuning uchun sud muhokamasiga oid talablarni hukmning adolatliligining buzilishi asoslari sifatida qabul qila olmaymiz.

Shunday qilib, hukm qachonki unda tayinlangan jazo o‘ta og‘ir yoki o‘ta yengil bo‘lsa ham adolatsiz bo‘ladi. Bizningcha, qonunning ushbu normasi yuqori instansiya sudlariga holatga subyektiv yondashishlariga olib keladi: qaysidir sudyalari uchun tayinlangan jazo o‘ta yengil ko‘rinsa, boshqalari uchun o‘ta og‘ir tuyulishi mumkin. Ushbu masalani o‘rgangan olim Yu.K.Yakimovich qonundan

⁹⁸ ЛАВРЕНТЬЕВА Т. О. «СПРАВЕДЛИВОСТЬ» В УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ //Альманах молодого исследователя. – 2020. – №. 8. – С. 75-79. https://www.procuror.spb.ru/ik2019_2/t015.pdf

“o‘ta” so‘zini chiqarib tashlashni taklif etgan. Unga ko‘ra, aniq bir jinoyat ishi bo‘yicha aniq bir shaxsga mos tushadigan jazoni tayinlash juda murakkab⁹⁹. Chunki, adolat ortiqchalik va yetishmovchilik orasidagi o‘rtalik hisoblanadi. Bundan tashqari, adolatlilik subyektiv holat hisoblanadi, ya’ni tayinlangan jazoni bir sudya adolatli, deb hisoblasa, boshqa sudya uni mutlaqo adolatsiz deb hisoblashi mumkin. Ammo, olimning bu fikrlariga qo‘shilib bo‘lmaydi. Bu holat amaldagi holatida ham hukmning adolatliligi mezonlarini aniq chegaralarini belgilashni yanada murakkablashtirib, hukmlarning yuqori instansiyalarda beqarorligini kuchaytirishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Yuqori instansiyalarda ish yuritishga oid sud amaliyotini o‘rganish natijalari bo‘yicha hukmning adolatliligini belgilab beruvchi mezonlar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- 1) ishni mazmunan ko‘ruvchi sud JKning Maxsus qismida nazarda tutilgan modda sanksiyasidan chetga chiqmaganligi;
- 2) jazo tayinlashda ishning haqiqiy holatlari inobatga olinganligi;
- 3) og‘irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarning o‘rganilganligi, o‘rganilgan holatlarning ish materiallariga to‘g‘ri kelishi va ularning jazo tayinlashda sud tomonidan inobatga olinganligi;
- 4) jazo tayinlashda sudlanuvchi shaxsining inobatga olinganligi;
- 5) jazo tayinlash shartlariga rioya qilinganligi, ishtirokchilikda yoki retsidevist tomonidan sodir etilgan jinoyat uchun nazarda tutilganidan yengil jazo tayinlanganligi;
- 6) tayinlangan jazoning sudlanuvchini axloqan tuzalishiga, uning oilasi va sog‘lig‘iga qay darajada ta’sir qilganligi;
- 7) ayb shaklining, motiv va maqsadlarining to‘g‘ri aniqlanganligi.

Sud hukmlarining yuqori sud instansiyalarida adolatlilik mezonini bo‘yicha tekshirilishida yuqoridagi holatlar va ichki ishonch inobatga olinishi to‘g‘ri bo‘ladi.

⁹⁹ Якимович Ю. К. и др. Проверка приговоров и иных судебных актов по уголовным делам судами второй инстанции. – 2005. <https://vital.lib.tsu.ru/vital/access/services/Download/vtls:000334969/SOURCE1>

§ 4.2. Jazoni individuallashtirish, mutanosiblik va jamoat xavfsizligi talablari

Jazoning individuallashtirilishi sud hokimiyatining adolat tamoyiliga tayanuvchi eng muhim faoliyat yo‘nalishidir. Sud har bir ishda jinoyatning tashqi belgilaridan ko‘ra, uni sodir etgan shaxsning psixologik holati, ijtimoiy sharoiti, qilmishning motivlari, oldingi xulqi, jamiyatga qayta moslashish imkoniyatlari va zararni qoplashga bo‘lgan munosabatini kompleks tahlil qiladi. O‘zbekiston Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi “Jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorida ham sudlardan jazoni tanlashda “shaxsning ijtimoiy foydali aloqalari, qilmish sodir etishiga ta’sir qilgan real vaziyatlar va aybdorning keyingi xulq-atvori” alohida inobatga olinishi belgilangan. Amaliyotda bunga mos misollar ko‘p. Masalan, mulkiy jinoyat sodir qilgan, ammo zararni to‘liq qoplagan, ijobiy tavsifnomalarga ega bo‘lgan va birinchi marta jinoyat qilgan voyaga yetmagan shaxslar bo‘yicha sudlar, odatda, ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo turini tanlaydi. Bu nafaqat sud-huquq siyosatining insonparvarlik prinsipiga mos keladi, balki yoshlarning jamiyatdan ajralib qolishini ham oldini oladi. BMTning Jinoyatchilikni oldini olish va jinoyatchilarni boshqarish bo‘yicha minimal standart qoidalarida (Nelson Mandela qoidalari) qayd etilganidek, “jazo shaxsning ijtimoiy foydali rolini qayta tiklashga ko‘maklashishi lozim”. O‘zbekiston sudlarining probatsiya institutini faol qo‘llashi ana shu xalqaro yondashuvning milliy amaliyotga mos tarzda tatbiq etilayotganidan dalolat beradi.

Mutanosiblik tamoyili esa jazo tayinlash jarayonining “ichki o‘lchovi” bo‘lib, davlatning majburlov choralari shaxsning konstitutsiyaviy huquqlariga mos kelishi shartligini bildiradi. Jazoning jinoyat og‘irligiga mutanosib bo‘lishi — jamoat xavfsizligini ta’minlashda eng muhim kafolatlardan biridir. Haddan tashqari og‘ir jazo jamiyatdan uzoqlashgan, qayta ijtimoiylashuv imkoniyatlari cheklangan insonlarni ko‘paytirishi mumkin; aksincha, ortiqcha yengil jazo adolat tamoyiliga putur yetkazadi va jabrlanuvchining huquqlarini poymol qiladi. Yevropa Kengashining “Jinoiy siyosatning asosiy tamoyillari”da ta’kidlanganidek, jazo

“na haddan oshgan qattiqlikka, na ortiqcha yumshoqlikka yo‘l qo‘ymasligi” lozim. O‘zbekiston Oliy sudi Plenumi jinoyat ishlari bo‘yicha 2022-yilgi sharhlarida shunday amaliy holatga baho berilgan: yo‘l-transport hodisasida jabrlanuvchiga yengil zarar yetkazgan, lekin aybini tan olib, yordam ko‘rsatgan haydovchi uchun sud ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan, lekin jamoat xavfsizligiga aloqador talablar qo‘yilgan jazoni tanlagan. Bu yondashuvda maqsad — jinoyatchini jazolash emas, balki xavfning oldini olish, o‘sha shaxsni jamiyatga xavfsiz tarzda qaytarishdir. Germaniya va Skandinaviya davlatlarida jazoning mutanosibligi va individuallashtirilishi retsidivizm darajasini 20–30% gacha pasaytirgani ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan. O‘zbekistonning probatsiya, elektron nazorat, majburiy davolash, ma‘muriy nazorat kabi tizimlarni bosqichma-bosqich takomillashtirayotgani ham ana shu xalqaro tajribaga mos yo‘nalishda ketayotganini ko‘rsatadi. Natijada, jazo tizimi adolatni ta‘minlash, jabrlanuvchi manfaatini himoya qilish va eng muhimi — jamiyatning umumiy xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qilayotgan yaxlit mexanizmga aylanmoqda.

Mezon	O‘zbekiston	Germaniya	Skandinaviya davlatlari (Shvetsiya / Norvegiya)
Jazo siyosatining umumiy tamoyillari	Insonparvarlik, ijtimoiy adolat, shaxsni ijtimoiy reabilitatsiya qilishga yo‘naltirilgan siyosat bosqichma-bosqich kuchaymoqda.	“Adolat – mutanosiblik – reabilitatsiya” uchligi asosiy o‘rinda. Jazoning og‘irligi jinoyatning xavflilik darajasi bilan qat‘iy bog‘lanadi	“Minimal jazolash – maksimal reabilitatsiya” modeli. Insonni jamiyatdan ajratmaslik asosiy maqsad hisoblanadi.
Jazoni individuallashtirish darajasi	Sudlar aybdorning shaxsiy holati, motivi, pushaymonligi, zararni qoplashiga alohida e‘tibor	Har bir ish individual ko‘riladi. Sud psixologik holat, ijtimoiy bog‘lanishlar va kelajakdagi	Individuallashtirish eng yuqori darajada. Har bir mahkum uchun “shaxsiy reabilitatsiya rejasi” tuziladi.

	beradi. Probatsiya tizimi kengaymoqda.	xatarni baholaydi.	
Mutanosiblik tamoyilining qo'llanilishi	Oliy sud Plenumlari jazoning jinoyat og'irligiga mos bo'lishini talab qiladi. Yengil jinoyatlarga nisbatan yengil jazo turlari qo'llanmoqda.	Muvozanat tamoyili asosiy mezon. Og'ir jazo faqat real xavf mavjud bo'lsa qo'llanadi.	Mutanosiblikni ta'minlashda jazo minimal bo'lishi lozim. Og'ir jazo faqat "maslahatsiz imkonsiz" bo'lgan hollarda belgilanadi.
Jamoat xavfsizligini ta'minlash vositalari	Probatsiya, ma'muriy nazorat, elektron nishon, majburiy davolash. Jinoyatchining qayta moslashuvi uchun ijtimoiy yordam.	Maxsus xavf baholash metodikasi mavjud. Og'ir jinoyatchilar uchun nazorat, boshqalar uchun rehabilitatsiya dasturlari.	Jamoat xavfsizligi "yengil izolyatsiya + kuchli rehabilitatsiya" modeli bilan ta'minlanadi. Qamoqxona o'rnida "ochiq koloniyalar" ko'p.
Ozodlikdan mahrum etishni qo'llash darajasi	Asta-sekin kamaymoqda. Yengil va o'rta og'irlikdagi jinoyatlarda alternativ jazo turlari keng qo'llanmoqda.	Ozodlikdan mahrum etish eng oxirgi chora. Ko'proq shartli jazo, probatsiya, jarima qo'llanadi.	Ozodlikdan mahrum etish darajasi Yevropada eng past (10–15%). Aksariyat jinoyatlar uchun qamoq qo'llanmaydi.
Probatsiya tizimining rivoji	Dastlabki bosqichda bo'lsa-da, tez rivojlanmoqda. Probatsiya xizmati mustaqil institut sifatida faol ishlaymoqda.	Keng rivojlangan, maxsus xizmatlar psixolog, ijtimoiy xodim, pedagog bilan ishlaydi	Dunyoning eng rivojlangan probatsiya tizimi. Probatsiya jazodan ham kuchliroq rehabilitatsiya vositasi hisoblanadi.
Retsidivizm ko'rsatkichi	O'rta darajada, ijtimoiy moslashuv mexanizmlari kuchayishi bilan	25–30% atrofida. Rehabilitatsiya va psixologik dasturlar natijasida	Dunyodagi eng past ko'rsatkichlardan biri — 15–20%.

	pasayib bormoqda.	barqaror past ko'rsatkich.	
Xalqaro standartlarga moslik	BMT Mandela qoidalari, Yevropa Kengashi tavsiyalari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.	Xalqaro standartlarga to'liq mos. Jazo tizimi Yevropa moddellari uchun namuna	Xalqaro standartlar asosiy mezon sifatida qo'llanadi. Inson huquqlariga ustuvorlik eng yuqori darajada.
Jazoning maqsadi sifatida rehabilitatsiya ulushi	Kengayib borayotgan yo'nalish, yillik qonunchilik islohotlarida ustuvor yo'nalish sifatida rivojlanmoqda	Reabilitatsiya jazo tizimining ajralmas qismi. Mahkumning ijtimoiy roli tiklanishi maqsad qilib qo'yiladi.	Reabilitatsiya – jazo siyosatining asosiy maqsadi. Qamoqxona “ishonchga asoslangan muassasa” sifatida ko'riladi.
Amaliy misollar	Voyaga yetmagan birinchi marta jinoyat qilgan shaxslarga nisbatan probatsiya tayinlanishi keng tarqalgan.	O'g'rilik kabi jinoyatlarda shartli jazo yoki jarima – eng ko'p qo'llanadigan choralar	Qo'poruvchilik va qiynoqlar bundan mustasno, aksariyat jinoyatchilar “jamiyatga moslashuv markazlari”da jazoni o'taydi

Jazo siyosatida individuallashtirish, mutanosiblik va jamoat xavfsizligi tamoyillari har qanday demokratik huquqiy davlatning asosiy poydevorini tashkil etadi. Ushbu tamoyillar jamiyat manfaatlari bilan shaxs erkinligi o'rtasida oqilona muvozanatni ta'minlab, jinoyatga adolatli munosabat, jinoyatchining ijtimoiy reabilitatsiyasi va jabrlanuvchining huquqlarini kafolatlashga xizmat qiladi. So'nggi yillarda O'zbekiston ushbu tamoyillarni milliy qonunchilik va sud amaliyotiga chuqur integratsiya qilish bo'yicha sezilarli qadamlar tashladi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Germaniya va Skandinaviya davlatlari — xususan Norvegiya va Shvetsiya — ushbu prinsiplardan foydalanishda dunyoning eng ilg'or tajribasini namoyon qilmoqda va ular O'zbekiston uchun ham muhim metodologik manba bo'lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda sudlar jazo tayinlashda aybdorning shaxsiy xususiyatlari, qilmishning motivi, jinoyatlarning tasodifiy yoki subyektiv sabablar bilan sodir etilishi, ijtimoiy muhit va zararni qoplashga bo‘lgan munosabatni chuqur baholashga e’tibor qaratmoqda. Oliy sud Plenumining jazo tayinlashga oid qarorlarida sudlar “har bir ishda aybdorning ijtimoiy muhitga qayta integratsiyalashish imkoniyatini” inobatga olishi lozimligi alohida ta’kidlanadi. Bu yondashuv, ayniqsa, probatsiya institutining joriy etilishi va kengayishi bilan birga, amaliyotda samarali natija bermoqda.

Germaniyada jazoning individuallashtirilishi jinoyat siyosatining markaziy tamoyillaridan biridir. Sudlar qaror qabul qilishda aybdor shaxsning ruhiy holati, tarbiyaviy holati, oilaviy vaziyati, ijtimoiy rolini yo‘qotish xavfi va psixologik baholash natijalariga tayangan holda jazoning turini va miqdorini belgilaydi. Har bir jinoyatchi uchun “individual jazo profili” tayyorlanadi.

Skandinaviya davlatlarida bu yondashuv yanada chuqurlashgan. Norvegiyada, masalan, har bir mahkum uchun jazoni ijro etish jarayonining boshida “Reintegratsiya rejasi” tuziladi. Bu reja jazoni o‘tash davomida shaxsni jamiyatga qayta tayyorlashga qaratilgan bo‘ladi: psixologik yordam, ijtimoiy ko‘mak, kasbiy o‘qitish, tibbiy xizmat va ijtimoiy moslashuv bo‘yicha mutaxassislar bilan tizimli ishlash. Shuning uchun bu mamlakatlarda qamoqxona nafaqat jazo joyi, balki reabilitatsiya markazi sifatida faoliyat yuritadi.

Mutanosiblik – ya’ni jazoning jinoyatga mosligi — adolatning eng muhim mezonidir. O‘zbekistonda bu prinsip normativ-huquqiy bazada mustahkamlangan bo‘lib, sudlar har bir ishda jazoning og‘irlik darajasini jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi bilan bevosita bog‘lashga intiladi. Oliy sud Plenumi sharhlarida “eng og‘ir jazo faqat eng og‘ir ehtiyoj bo‘lganda qo‘llanishi” qayd etilgan.

Germaniya tajribasi bu borada juda aniq tizimga ega: sudlar jazo tayinlashdan avval jinoyatning xavflilik darajasini ilmiy asoslangan metod bilan baholaydi. Bu baholashda ijtimoiy oqibat, shaxsning oldingi xulqi, kelajakdagi xavf va jabrlanuvchining manfaatlari o‘rtasida teng muvozanat ta’minlanadi. Shu sabab, Germaniyada ozodlikdan mahrum etish eng so‘nggi chora sifatida ko‘riladi.

Skandinaviya tajribasida esa mutanosiblik tamoyili yanada keng talqin qilinadi: jazoning minimal darajada qo‘llanishi, jamiyatdan ajratishni istisno sifatida qoldirish, shaxsni jamiyatga qayta integratsiyalash uchun “eng mos va eng yumshoq jazo”ni tanlash siyosibiy ustuvorlikka aylangan. Shu bois, Norvegiya qamoqxonalari ko‘p hollarda o‘quv markazlari, kasbiy tayyorlov institutlari yoki reabilitatsiya muassasalariga o‘xshaydi.

Jamoat xavfsizligini jazoning asosiy maqsadi sifatida ko‘rishda uch davlatning yondashuvlari umumiy bo‘lsa-da, vositalar farqli. O‘zbekistonda probatsiya, elektron nishon, majburiy davolash, ma‘muriy nazorat kabi institutlar jamoat xavfsizligini ta‘minlashning muhim mexanizmlariga aylanmoqda. Bunda asosiy e‘tibor jinoiy xatti-harakatlarni takrorlamaslikka qaratilgan.

Germaniya xavf baholashning psixologik va kriminologik metodlarini keng qo‘llaydi. Jinoyatchining kelajakda xavf tug‘dirish ehtimoli ilmiy algoritmlar orqali aniqlanadi va aynan shu asosda jazo tanlanadi.

Skandinaviya davlatlarida jamoat xavfsizligi ta‘minoti eng ko‘p reabilitatsiya bilan bog‘langan. Jinoyatchini jamiyatdan ajratish emas, balki jamiyatga moslashtirish orqali xavf kamaytiriladi. Reabilitatsiya darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, jamoat xavfsizligi shunchalik mustahkam bo‘ladi — bu ularning siyosiy falsafasi.

O‘zbekistonda yengil va o‘rta og‘irlikdagi jinoyatlar bo‘yicha ozodlikdan mahrum etishni alternativ jazo turlari bilan almashtirish amaliyoti yil sayin kengaymoqda. Probatsiya xizmatining samarali faoliyati natijasida minglab shaxslar jamiyatdan ajratilmasdan jazo o‘tash imkoniga ega bo‘lmoqda.

Germaniyada qamoq jazosi juda kam qo‘llanadi: mjusodlikdan mahrum etish erta retsidivizmga sabab bo‘lishi mumkin degan ilmiy tamoyil keng qabul qilingan.

Skandinaviya davlatlari esa jahonda eng past qamoqlanish ko‘rsatkichiga ega. Norvegiyada qamoqqa olish “eng so‘nggi imkoniyat” bo‘lib, jinoyatchiga ishonch va mas‘uliyat berish orqali xavfni kamaytirish maqsad qilingan. Shuning uchun ularning qamoqxonalari ochiq, yumshoq, shaxsni rivojlantirishga yo‘naltirilgan tizimga ega.

Retsidivizm (qayta jinoyat sodir etish) ko'rsatkichi jazo tizimining samaradorligini eng aniq ko'rsatib beradigan indikatorlardan biridir. O'zbekistonda retsidivizm oxirgi yillarda sezilarli pasaygan bo'lib, bunda probatsiya instituti va ijtimoiy-huquqiy reabilitatsiya mexanizmlarining kengayishi muhim rol o'ynagan.

Germaniyada retsidivizm ko'rsatkichi 25–30% atrofida barqaror. Bu, asosan, mahkumlar bilan psixologik va ijtimoiy integratsiya bo'yicha tizimli ish olib borilayotganining samarasidir.

Skandinaviya davlatlarida esa retsidivizm dunyodagi eng past ko'rsatkichlardan biri — 15–20%. Ularning “jazoning maqsadi – insonni jamiyatga qaytarishdir” tamoyili amaliyotda o'z isbotini topgan.

Uch davlat ham BMTning Mandela qoidalari, Tokio qoidalari, Yevropa Kengashining Jazoni ijro etish standartlari va boshqa xalqaro hujjatlar talablariga katta darajada amal qiladi. O'zbekiston ham ushbu standartlarni bosqichma-bosqich o'z tizimiga implementatsiya qilmoqda.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki:

- O'zbekistonning jazo siyosati bosqichma-bosqich Germaniya va Skandinaviya standartlariga yaqinlashmoqda.
- Individuallashtirish, mutanosiblik va jamoat xavfsizligi tamoyillari milliy amaliyotda tobora ustuvor bo'lib bormoqda.
- Eng muvaffaqiyatli model Skandinaviya davlatlarida kuzatiladi, ammo uning to'liq ko'chirilishi emas, balki milliy sharoitga moslashtirilgan elementlarining joriy etilishi maqsadga muvofiq.
- O'zbekistonning probatsiya tizimi, alternativ jazolar siyosati va jazo izolyatsiyasini kamaytirishga qaratilgan yondashuvlar xalqaro standartlar bilan uyg'un rivojlanmoqda.

Jazoning individuallashtirilishi, mutanosibligi va jamoat xavfsizligini ta'minlash tamoyillari zamonaviy jinoyat siyosatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, demokratik huquqiy davlatlar amaliyotida ushbu tamoyillar jinoyatga qarshi kurashning barqaror va insonparvar modelini shakllantiradi. O'zbekiston tajribasi ham so'nggi yillarda mazkur yo'nalishda sezilarli rivojlanish

ko'rsatdi: probatsiya instituti faol joriy etildi, ozodlikdan mahrum etishga alternativ jazo turlari keng qo'llanmoqda, shaxsning ijtimoiy holatini chuqur baholovchi mexanizmlar kuchaytirildi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, Germaniya va ayniqsa Skandinaviya davlatlarining jazoni individuallashtirish va reabilitatsiyani ustuvor qo'ygan yondashuvi eng samarali model sifatida ajralib turadi. Ularning tajribasi shuni isbotlaydiki, jazo nafaqat qasos va izolyatsiya vositasi, balki xavfning oldini olish, shaxsni jamiyatga qayta tiklash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashning eng kuchli kafolatidir.

O'zbekistonda jazo siyosatini yanada takomillashtirish bo'yicha bir qator ustuvor vazifalar mavjud. Birinchidan, sudlarda jazo tayinlashning ilmiy asoslangan metodologiyasini kuchaytirish, jinoyatchining shaxsiy profili, psixologik holati va ijtimoiy integratsiya imkoniyatlarini baholashning yagona standartlarini ishlab chiqish zarur. Ikkinchidan, jazo izolyatsiyasini minimal darajaga tushirish siyosatini davom ettirish, probatsiya xizmatining vakolatlari va resurslarini kengaytirish, mahkum bilan ishlashning psixologik va pedagogik komponentlarini kuchaytirish lozim. Uchinchidan, Skandinaviya mamlakatlaridagi kabi reabilitatsiya markazlarini tashkil etish, qamoqxonalarda ta'lim va kasbiy tayyorlov dasturlarini kuchaytirish, mahkumning jamiyatga qaytishiga xizmat qiladigan xizmatlar tarmog'ini kengaytirish maqsadga muvofiq. To'rtinchidan, jamoat xavfsizligini ta'minlashda xavf darajasini ilmiy asosda baholaydigan kriminologik metodlarni joriy etish, jinoyatchining kelajakdagi xatti-harakatlari bo'yicha prognoz berishga mo'ljallangan algoritmlardan foydalanish zarur. Beshinchidan, jazoni ijro etish muassasalarida norasmiy jazolar, tazyiq, inson sha'ni va qadr-qimmatiga zid muomalalarning oldini olish bo'yicha xalqaro standartlarning to'liq amalga oshirilishini ta'minlash lozim.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston jazo siyosatini insonparvarlik, adolat, mutanosiblik va jamoat xavfsizligi tamoyillari asosida takomillashtirish yo'lini to'g'ri tanlagan. Endi ushbu siyosatni Germaniya va Skandinaviya davlatlarining eng yaxshi tajribalari bilan chuqur uyg'unlashtirish orqali jinoyatchining tuzalishi,

jamiyatga qayta moslashuvi va yangi jinoyatlarning oldini olishga xizmat qiladigan samarali tizimni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

V-BOB. SUD HUKMINING QONUNIYLIGI, ASOSLILIGI VA ADOLATLILIGINI TA'MINLAYDIGAN PROTSESSUAL KAFOLATLAR

§ 5.1. Sud muhokamasining oshkoraligi, tortishuv va taraflarning teng huquqliligi

Jinoyat-protsessual kodeksining prinsiplariga muvofiq, sud ishlarini yuritish **tortishuv va taraflarning teng huquqliligi** asosida amalga oshiriladi. Garchi mazkur prinsip jinoyat-protsessual ish yuritishning barcha bosqichlariga tatbiq etilishi lozim bo'lsa-da, u to'laqonli tarzda asosan sud bosqichlarida namoyon bo'ladi.

Tortishuv prinsipi jinoyat protsessidagi eng asosiy tamoyillardan biri bo'lib, u JPKning 25-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu prinsipning amalga oshirilishi O'zbekiston huquqiy tizimi faoliyatining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Taraflarning tortishuvi va teng huquqliligiga oid qoidalar (protsessda taraflarning teng imkoniyatlarga ega bo'lish tamoyili) milliy va xalqaro huquqiy hujjatlarning bir qatorida o'z ifodasini topgan bo'lib, adolatli sudlov umumiy konsepsiyasining muhim elementlarini tashkil etadi.

Adolatli sud muhokamasi masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarda qayd etilishicha, tortishuv prinsipi dunyo miqyosida umume'tirof etilgan standartlardan biri bo'lib, adolatli sud ishlarini yuritish konsepsiyasining mazmunini tashkil etadi.

JPKning 25-moddasiga muvofiq, uning huquqiy mohiyati sudning huquqiy pozitsiyalariga asoslanadi. Mazkur tamoyilning mohiyati shundaki, ayblov va himoya taraflarining protsessual funksiyalari bir-biridan qat'iy ajratilgan. Ular bir-biriga aralashtirilmaydi va bir organga yoki bir mansabdor shaxsga ikki tomonning funksiyalarini yuklash mutlaqo yo'l qo'yilmaydi.

Bunda sud jinoyat ta'qibi organi hisoblanmaydi va hech bir taraf manfaatini himoya qilish uchun chiqmaydi. Sudning vazifasi — ayblov va himoya taraflari o'z

protsessual majburiyatlarini bajarishlari va ularga berilgan huquqlardan foydalanishlari uchun zarur sharoitlarni yaratib berishdan iborat. Shu bilan birga, ayblov va himoya taraflari sud oldida teng huquqli hisoblanadi.

Tortishuvga asoslangan sud ish yuritish turi jinoyat-protsessual huquqning rivojlanishida asosiy yo'nalish sifatida qaraladi. Biroq, JPKga kiritilgan so'nggi o'zgartirishlar qonun chiqaruvchining sudning dalillarni o'rganishda faol rolini belgilashga urinishini ko'rsatmoqda. Shu munosabat bilan, tortishuv prinsipiga zamonaviy mazmun berish, xususan, sudyaning protsessual maqomi, uning ishtirokchilarning protsessual huquqlari to'liq ta'minlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratish borasida ta'sirini kuchaytirish masalasi e'tiborga loyiqdir. Shuningdek, tortishuv prinsipini jinoyat-protsessual ish yuritishning barcha bosqichlariga universal normativ qoida sifatida kiritish qanchalik asosli ekanligi haqidagi masala ham muhimdir.

Taraflar tortishuvi prinsipining dastlabki tergov bosqichida amalga oshirilishi masalasini ham ko'rib chiqish zarur. Ayblov tarafiga kiritilgan surishtiruvchi, tergovchi va prokurorning faoliyati jamoatchilik-rozishtiruv xususiyatiga ega. Nazariy jihatdan, ayblov tarafining dastlabki tergov bosqichidagi faoliyati aniq ish bo'yicha moddiy haqiqatni belgilashga qaratilgan bo'lishi lozim. Biroq amaliyotda mazkur mansabdor shaxslar bir tomonlama ayblovchiga, hatto ishni hal qilish vakolatiga ega bo'lgan «inkvizitor»ga aylanib qolgani kuzatiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, sud tergov bosqichida ayblov tarafini faqat prokuror shakllantiradi va u davlat ayblovini qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanadi.

JPKning 25-moddasiga muvofiq, sud ommaviy (publichный) manfaatdan chetlashtirilgan bo'lib, qonun chiqaruvchi tortishuv va taraflarning teng huquqliligi prinsiplari orqali jinoyat-protsessual faoliyatning ommaviy yo'nalishini ta'minlashga umid qilgan. Biroq bu kutilgan natijani bermadi va ma'lum muddat «passiv» bo'lganidan keyin, sudlar ish holatlarini tadqiq etishda faol rolni o'ziga oldi hamda taraflar faoliyati natijasida aniqlanmay qolgan holatlarni mustaqil ravishda «to'ldirish»ga kirishdi.

JPK mualliflari uchun hal etilmagan yana bir masala — sud ishlarini yuritishda tortishuv talabini amalga oshirish bo‘ldi. Qonun chiqaruvchi tortishuv prinsipini sudgacha bo‘lgan va sud bosqichlariga bir xil tarzda tatbiq etishga harakat qilgan. Lekin, bizning fikrimizcha, bunday g‘oyani to‘liq ro‘yobga chiqarish imkoni bo‘lmadi. Agar tortishuv prinsipi sud bosqichida hech bo‘lmasa qisman amal qilsa, jinoyat ishini qo‘zg‘atish va dastlabki tergov bosqichida u yana hamon «tizma» (lineynyy) qidiruv jarayoni sxemasi bo‘yicha amalga oshmoqda. Bu jarayonda jinoyat ta‘qibining barcha uch funksiyasi bir organ qo‘lida jamlangan holda qolmoqda.

Yuqorida aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, nazariy jihatdan jinoyat-protsessual faoliyat tortishuv modeliga mansub bo‘lsa-da, amalda bu forma faqat sud muhokamasidagina to‘liq namoyon bo‘ladi. Bunday xulosa quyidagi fikrni ilgari surishga asos bo‘ladi: zamonaviy Rossiya jinoyat-protsessual jarayoni tortishuv tizimiga emas, balki aralash modelga yaqin. Bu formada nazariy jihatdan sudgacha bo‘lgan ish yuritish — rozysk asoslariga, sud jarayoni esa — tortishuv asoslariga tayanadi. Ammo aralash modelning o‘zi tortishuv modelga o‘tishdagi yoki aksincha, tortishuvdan rozysk modelga qaytishdagi oraliq bosqichdan boshqa narsa emas.

Har qanday protsessda ikki modelning ham elementlari mavjud bo‘ladi, biroq ulardan biri doimo ustunlik qiladi. Oxirgi yillardagi jinoyat-protsessual siyosatga qarab shuni aytish mumkinki, hozirgi Rossiya jinoyat protsessi aralash model emas, balki tortishuv elementlari mavjud bo‘lgan «tergov modeli»ga yaqindir.

Sudda tortishuvga asoslangan ish yuritish huquqi taraflarning teng huquqliligi prinsipi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u jinoyat protsessi ishtirokchilariga teng protsessual huquqlar va teng imkoniyatlar berilishini anglatadi. Jinoyat protsessining har ikki tomoni ham sud oldida dalillar keltirish, iltimosnomalar taqdim etish va ularni qanoatlantirish masalalarida bir-biridan ustun bo‘la olmaydi. Ya’ni, hech bir tarafning aytishi sud uchun oldindan belgilangan kuchga ega bo‘lishi mumkin emas; protsessdagi taraflarning huquqiy holati adolatli tarzda tenglashtirilgan bo‘lishi lozim.

Endilikda tortishuv prinsipini turli olimlar va amaliy xodimlarning nuqtai nazaridan ko‘rib chiqamiz.

N.N. Polyanskiy fikriga ko‘ra, «tortishuv — bu haqiqatni topish usuli bo‘lib, u taraflarning bahsi va sudning faol ishtiroki orqali ish holatlarini tadqiq etish jarayonidan iborat».

A.A. Davletovning ta’kidlashicha, jinoyat protsessidan qat’i nazar, qonun chiqaruvchi protsess funksiyalarini formal ravishda ajratgan va taraflarga dalil to‘plash huquqini bergan bo‘lsa-da, u amalda haqiqiy tenglikni shakllantira olmagan va ishtirokchilarni haqiqiy tortishuv prinsipi ishtirokchilariga aylantira olmagan.

S.S. Bezrukov esa prinsiplarni «protsessning ko‘pchilik bosqichlarida amal qiladigan, biroq har bir bosqichda ham majburiy bo‘lmagan qoidalar» sifatida ta’riflaydi. Muallifning bu qarashi, bizning fikrimizcha, muayyan darajada bahslidir.

A. Tushevning ta’kidlashicha, tortishuv prinsipi hatto taraflar teng huquqlarga ega bo‘lmagan hollarda ham mavjud bo‘lishi mumkin. Unga ko‘ra, taraflarni barcha protsessual huquqlarda to‘liq tenglashtirish amaliy jihatdan ham, nazariy jihatdan ham mumkin emas.

Biz A.I. Pikalovning pozitsiyasini keltirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Unga ko‘ra, himoyachi ayblovga moyillikka qarshi faqat sud muhokamasi bosqichidagina haqiqiy imkoniyatga ega. Sudgacha bo‘lgan ish yuritish jarayonida esa himoyachi faqat o‘z qo‘l ostidagi shaxsga huquqiy maslahat berishi, iltimosnomalar kiritishi, jinoyat ishini tergov qilayotgan mansabdor shaxslarning harakatlari va qarorlaridan shikoyat qilishi mumkin, ya’ni himoyachi sudgacha bo‘lgan jarayonda ancha passiv rolda bo‘ladi.

L.F. Shumilova fikriga ko‘ra, «tortishuv — ishda ishtirok etuvchi shaxslar o‘rtasidagi raqobat bo‘lib, bunda ularning mustaqil harakatlari boshqa ishtirokchilarning sud muhokamasi natijasiga bir tomonlama ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini cheklaydi; bu jarayonda sud adolatni ta’minlash, jarayonni boshqarish va yo‘naltirish funksiyalari bilan faol rol o‘ynaydi».

I.L. Petruhin esa tortishuvni jinoyat-protsessual faoliyatning shunday tashkiliy shakli sifatida ta’riflaydiki, unda ayblov, himoya va ishni hal etish

funksiyalari qat'iy ajratilgan va ular tegishlicha prokurorga (yoki xususiy ayblovchiga, jabrlanuvchiga), ayblanuvchiga (yoki himoyachiga) va sudga (sudyaga) tegishli bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan «tortishuv» tushunchasining har biri o'z afzalliklari va kamchiliklariga ega.

Birinchiidan, «tortishuv» atamasi ikki taraf o'rtasidagi raqobatni anglatadi. Biroq himoya tarafi JPKda belgilangan barcha usullar va vositalardan foydalanish huquqiga ega ekanligi sababli, bizningcha, bu holatni ifoda etishda «qarshilik ko'rsatish» (protivoborstvo) termindan foydalanish maqbulroq bo'ladi.

Ikkinchiidan, «tortishuv» — sud ish yuritishining bir shakli bo'lib, jinoyat protsessining bazaviy prinsipi emas. Biroq u protsessning eng muhim elementlaridan biri — ayblov, himoya va yustitsiya funksiyalarining ajratilishini aniq ifoda etadi.

Yuqoridagilar asosida xulosa qilish mumkinki, tortishuv — jinoyat protsessining asosiy, bazaviy prinsipidir. Mazkur prinsipga muvofiq, sud tomonidan JPKda belgilangan zarur protsessual shartlar yaratilib, himoya va ayblov taraflari teng maqomdagi huquqiy «qarshilik» orqali jinoyat ishining mazmuni ochiladi va hal qilinadi. Biroq bu sharoitlar to'liq darajada hali ta'minlanmagan, shuning uchun himoya tarafi ayblov tarafiga nisbatan hozircha ancha zaif va himoyasiz holatda qolmoqda.

Biroq tortishuv modeli ayblov va himoyaning mavjudligi hamda ularning protsessual tengligi kabi belgilari bilan xarakterlanadi. Demak, tortishuv prinsipining haqiqiy amal qilishi faqat ushbu tenglikning huquqiy va amaliy jihatdan ta'minlangan sharoitidagina mumkin bo'ladi.

Qator protsessualist olimlarning fikriga ko'ra, jinoyat protsessda bu kabi tenglik hali to'liq darajada ta'minlanmagan. A.S. Aleksandrov va S.A. Grachev ta'kidlashicha, «formal tortishuv va hokimiyatlar bo'linishi mavjud bo'lsa-da, ayblov hokimiyati va sud hokimiyatining haqiqiy ajratilishiga erishilmagan, ular hanuz bir butun tizim sifatida namoyon bo'lmoqda».

Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqib, tegishli xulosalarni shakllantirish zarur.

JPKning 25-moddasida tortishuv prinsipining qonunan mustahkamlanishi uni jinoyat ishini yuritishning barcha bosqichlarida ta'minlash uchun kafolat yaratdi. Mazkur prinsipning salohiyati sudning mustaqilligi, taraflarning protsessual tengligi, sud muhokamasining oshkoraligi kabi boshqa tamoyillarni amalga oshirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, tortishuv prinsipi fuqarolarning konstitutsiyaviy sud himoyasi huquqining amalga oshirilishiga ham kafolat bo'ladi.

Tortishuv prinsipi umume'tirof etilgan huquqiy hodisaga aylangan bo'lsa-da, uning dastlabki tergov bosqichida amal qilishi masalasi hanuzgacha bahslidir. Bu savol hozirgi vaqtgacha to'liq hal etilmagan.

Ayblov tarafi davlat tomonidan moddiy va texnik jihatdan ta'minlangan bo'lsa, himoya tarafi bunday resurslarga ega emas va tabiiy ravishda nisbatan zaif holatda bo'ladi. Mazkur muammoning yechimlaridan biri sifatida xalq vakillari ishtirokidagi sud ishlarini yuritish, ya'ni prisyajnylar sudi ko'rsatiladi. Chunki juftlangan sudyalar mustaqil taraf sifatida harakat qiladi, professional deformatsiyaga uchramaydi va qaror qabul qilishda faqat o'z ichki ishonchlari va ishning xolatlariga tayanadi.

Sud muhokamasining oshkoraligi — bu sud majlisining jarayoni va natijalarini erkin yoritish maqsadida sud tartibining barcha ishtirokchilari hamda 16 yoshga to'lgan istalgan fuqaro, shu jumladan ommaviy axborot vositalari vakillari uchun ochiq bo'lishini anglatuvchi konstitutsiyaviy prinsipdir.

Oshkoralik sud jarayoni ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, unda ishtirok etmagan mustaqil shaxslar tomonidan protsess ustidan nazoratni amalga oshirish imkoniyatini ta'minlaydi. Shu bilan birga, sudning tarbiyaviy vazifalarini bajarishi va adolatning oldini oluvchi ta'sirini kuchaytirishning muhim sharti hisoblanadi.

Jinoyat ishlari barcha sudlarda ochiq tartibda ko'rib chiqiladi.

Qonunda belgilangan ayrim holatlar borki, ular mavjud bo‘lganda sud ishlari yopiq sud majlisida ko‘rib chiqilishiga yo‘l qo‘yiladi. Bunday holatlar quyidagi toifaga mansub jinoyat ishlariga tayalgan holda vujudga keladi:

— davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirlar bilan bog‘liq ishlar;

— 16 yoshga to‘lmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar;

— shaxsning jinsiy daxlsizligi va jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlar;

— jinoyat protsessini ochiq ko‘rib chiqish natijasida ish ishtirokchilari hayotining shaxsiy-hususiyl jihatlariga oid ma‘lumotlar, ularning sha‘ni va qadr-qimmatini kamsituvchi ma‘lumotlar oshkora bo‘lib ketishi mumkin bo‘lgan holatlar;

— shuningdek, sud jarayoni ishtirokchilari va ularning yaqinlari xavfsizligini ta‘minlashni talab etuvchi vaziyatlar.

Jinoyat ishini yopiq sud majlisida ko‘rib chiqish to‘g‘risidagi qaror butun sud muhokamasiga, uning ayrim qismlariga yoki ayrim dalillarni tadqiq etish jarayoniga taalluqli bo‘lishi mumkin.

18 yoshga to‘lmaganlar huquqlarini himoya qilish maqsadida ularning so‘rog‘i ayblanuvchi ishtirokisiz o‘tkazilishi mumkin.

So‘roq qilinuvchi shaxsning xavfsizligini ta‘minlash zarurati tug‘ilgan taqdirda, sud uni boshqa ishtirokchilar tomonidan vizual kuzatish imkoni bo‘lmagan sharoitda so‘roq qilishi mumkin.

Shaxsiy xarakterga ega bo‘lgan xat-xabar almashish, telefon va boshqa turdagi muloqotlar, pochta, telegraf va boshqa xabarlar sirini konstitutsiyaviy himoya qilish prinsipini ta‘minlash maqsadida, shu kabi ma‘lumotlarga oid dalillar faqatgina ushbu ma‘lumotlar bilan bog‘liq shaxslar roziligi mavjud bo‘lganda ochiq sud majlisida tadqiq etiladi. Agar bunday rozilik bo‘lmasa, sud ularni yopiq tartibda ko‘rib chiqadi.

Ochiq sud muhokamasida ishtirok etayotgan shaxslar sudning rozilgisiz yozma yoki audioyozuv olish huquqiga ega.

Biroq suratga olish, videoyozuv va kinosuratga olish kabi vositalardan foydalanish sudning ruxsati bilan amalga oshiriladi. Bu borada sud taraflarning

roziligini aniqlasa-da, qarorni mustaqil qabul qiladi, chunki ushbu yozuvlar ko'p hollarda ish natijasiga, taraflar manfaatiga va boshqa maqsadlarda, jumladan, nomaqbul maqsadlarda ham ishlatilishi mumkin.

Sud muhokamasi ochiq yoki yopiq o'tkazilganidan qat'i nazar, hukm istisnosiz ochiq sud majlisida e'lon qilinadi.

Agar jinoyat ishi bo'yicha muhokama yopiq o'tkazilgan bo'lsa va uning sabablari yoki bu sabablarni tasdiqlovchi dalillar hukmning tavsiflovchi-motivirovksio qismida keltirilgan bo'lsa, sud hukmning qaysi qismini ochiq tarzda o'qish masalasini hal qiladi.

Sud hukmning barcha tavsiflovchi-asoslantiruvchi qismini yoki yopiq muhokama o'tkazilishiga asos bo'lgan holatlarni o'qishdan chiqarib tashlashi va faqat kirish qismi hamda rezolyutiv qismini ochiq e'lon qilishi mumkin.

Jinoyat protsessini samarali tashkil etish zamonaviy davlatlar, jumladan O'zbekiston uchun ham dolzarb masaladir. Chunki aynan shu institut turli sabablarga ko'ra jinoyat-huquqiy mexanizmga tortilgan insonlar taqdiriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli sud xatolarining ehtimolini imkon qadar kamaytirish — ya'ni aybsiz shaxs jazolanib ketmasligi va aybdor esa qilgan jinoyatiga mos jazo olishi — nihoyatda muhimdir. Bu esa faqat jinoyat protsessining asosiy tamoyillariga qat'iy rioya qilinganda, xususan, tortishuv va taraflarning teng huquqliligi tamoyillari qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotida to'liq ta'minlangandagina mumkin bo'ladi.

Konstitutsiyada sud ishlarini yuritish tortishuv va taraflarning teng huquqliligi asosida amalga oshirilishi belgilangan. Ushbu qoidani aniqlash maqsadida amaldagi JPKda tortishuv jinoyat-protsessual ish yuritishning asosiy prinsiplaridan biri sifatida mustahkamlangan. JPKning 25-moddasida qonun chiqaruvchining bu prinsipni uch elementdan tashkil topgan deb tushunayotgani ko'rinadi:

1) jinoyat protsessidagi uch funktsiya — ishni hal qilish, ayblov va himoya — qat'iy ajratilgan bo'lib, ularni bir organ yoki bir mansabdor shaxs tomonidan amalga oshirilishi mumkin emas; masalan, ayblovni prokuror, himoyani advokat amalga oshiradi, ishni esa hamisha sud hal qiladi;

2) sud ayblov yoki himoyaning pozitsiyasini egallashi mumkin emas; u jinoyat ta'qibi organi hisoblanmaydi va uning vazifasi taraflarning protsessual huquqlarini amalga oshirishlari uchun shart-sharoit yaratib berishdan iborat;

3) sud oldida ayblov ham, himoya ham teng huquqlarga ega.

Marhgeym M.V. va Xlebnikov A.D. tortishuv mazmunini taraflar va sudning protsessual funksiyalarining ajratilishida, taraflarning faol pozitsiya egallashida va o'z huquqiy pozitsiyasini himoya qilishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirishi bilan bog'lashgan. Ular tortishuvning asosi taraflar manfaatlarining qarama-qarshiligida deb ta'kidlaydi va bu prinsip dinamik tarzda tartibga soluvchi funksiyani amalga oshirishini qayd etadi.

Dubrovin O.V.ning fikricha, tortishuv prinsipi sudni adolatni amalga oshiruvchi organ sifatida taraflardan ajratishni, shuningdek, surishtiruvchi, tergovchi va prokurorning inson va fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlashini nazarda tutadi, hatto ularning protsessual qarama-qarshiligi mavjud bo'lsa ham. Tortishuv ishtirokchining o'z pozitsiyasini sudga yetkazish imkoniyatini nazarda tutadi.

Shunday qilib, olimlarning va qonun chiqaruvchining fikrlari bir nuqtada tutashadi: tortishuvning mohiyati, avvalo, taraflarning o'z pozitsiyasini dalillar orqali faol himoya qilishida va sud hamda boshqa organlar tomonidan bu faoliyatga to'sqinlik emas, balkim yordam ko'rsatilishida namoyon bo'ladi. Ayblov va himoya taraflari o'z o'rnini egallaydi va o'zaro tortisha boshlaydi, sud esa «chetda» turib, ular taqdim etgan dalillar asosida ishni hal qiladi.

Tortishuvning ahamiyati jinoyat protsessda beqiyosdir. Faqat ikki faol taraf — qarama-qarshi pozitsiyalar va manfaatlarga ega ayblov va himoya — hamda ulardan mustaqil, xolis bo'lgan uchinchi taraf (sud) mavjud bo'lgandagina haqiqatga erishish, ishni to'liq va ob'ektiv hal qilish mumkin bo'ladi.

Borodina T.G. fikriga ko'ra, konstitutsiyaviy tortishuv normasi tortishuv va taraflar teng huquqliligining yaxlit birligi va o'zaro bog'liqligini ifoda etadi. Bu qarash juda to'g'ri, chunki taraflarning tengligi tortishuvning amalga oshishi uchun asosiy shartdir.

Алтынникова L.I., Yevropa inson huquqlari sudi amaliyotiga tayangan holda, protsessdagi har bir taraf bir xil sharoitga ega bo'lishi, dalillar taqdim etishi hamda ikkinchi taraf dalillarini tekshirish yoki rad etish huquqiga ega bo'lishini ta'kidlaydi.

1950 yil 4 noyabrdagi Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Konvensiyada ayrim hollarda bevosita «tarafklar tengligi» atamasi keltirilmagan bo'lsa-da, uni nazarda tutuvchi qoidalar mavjud. Konvensiyaning 6-moddasi 1-bandiga ko'ra, har qanday jinoiy ayblov bo'yicha ish ochiq, adolatli va oqilona muddatda ko'rilgan bo'lishi, ishni ko'ryotgan sud qonuniy tarzda tuzilgan, xolis va mustaqil bo'lishi, hamda hech bir tarafning manfaatini hisobga olmagan bo'lishi lozim. 6-moddaning 3-bandi «d» xatchasidan shu xulosaga kelish mumkinki, ayblov tarafi himoya tomoni guvohlarini so'roq qilishda qanday huquqlarga ega bo'lsa, himoya ham ayblov guvohlarini shu sharoitda so'roq qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Rezepkin A.M.ning ta'kidlashicha, tarafklar sud oldida o'z fikr va talablarini himoya qilish, ikkinchi tarafning pozitsiyasini rad etish uchun teng protsessual huquqlarga ega.

Ko'rinib turibdiki, tarafklar teng huquqliligining mohiyati turli manbalarda deyarli bir xil talqin qilinadi. Chunki «teng huquqlilik»ning o'zi ayblov va himoyaning jinoyat protsessdagi huquqlari tengligini anglatadi; uning detalizatsiyasi esa shu tenglikning elementlarini yanada aniqroq ochib beradi.

Tarafklar teng huquqliligining jinoyat protsessdagi ahamiyatiga kelsak, ushbu prinsipsiz sud ishi bo'yicha adolatli qaror qabul qilish mumkin bo'lmaydi. Chunki bir taraf ikkinchisiga nisbatan kamroq huquqlarga ega bo'lsa, u doimo yutqazuvchi holatda bo'ladi; tortishuv to'liq amal qilmaydi va sud haqiqatga yeta olmaydi.

Tortishuv va tarafklar teng huquqliligi birgalikda tilga olingan bo'lsa-da, ular bir prinsip sifatida belgilab qo'yilmagan. JPKning 2-bobida «Jinoyat protsessining prinsiplari» orasida «tarafklar tengligi» degan alohida modda mavjud emas, u faqat 25-moddada keltirilgan. Bu holatdan shunchaki xulosa qilish mumkin: JPK mualliflari tarafklar tengligini mustaqil prinsip emas, balki tortishuv prinsipining tarkibiy qismi deb hisoblaydi.

Fanda tortishuv va taraflar teng huquqliligining o‘zaro nisbati bo‘yicha bahslar davom etmoqda. Ayrim olimlar, masalan Mironov A.L., ularni bir prinsipning ikki elementi deb hisoblaydi. Biroq u tortishuv prinsipining amalga oshishida muayyan mustaqil xususiyatlar borligini ham qo‘shimcha qiladi va unga ko‘ra tortishuv bo‘lishi uchun ishtirokchilarga teng imkoniyatlar berilgan bo‘lishi lozim.

Bizim fikrimizga ko‘ra, nazariy jihatdan ularni bir-biridan ajratish mumkin. Chunki tortishuv adolatsiz ham bo‘lishi mumkin — agar bir tarafda boshqasiga nisbatan ustunliklar bo‘lsa. Yana bir tarafdan, taraflar tengligi mavjud bo‘lishi, ular aynan tortishuvda ishtirok etadi degani emas. Demak, bu ikki asosiy prinsip alohida ham qo‘llanilishi mumkin, ammo ularning konstitutsiyaviy-huquqiy mazmuni faqat birgalikda to‘liq ro‘yobga chiqadi.

Kashtak A.V. tortishuvning besh elementdan iborat ekanini, ularni ajratishga hojat yo‘qligini, chunki ular bir-birini to‘ldirishini ta’kidlaydi: taraflarning mavjudligi; dalil topish, taqdim etish va tadqiqdagi faollik; taraflar teng huquqliligi va boshqalar. U tortishuv va teng huquqlilikni bir prinsipning «butun va qismi» sifatida tavsiflaydi.

Biroq tortishuv va teng huquqlilik ikki alohida, ammo o‘zaro bog‘liq prinsip sifatida tilga olingan ekan, bizning fikrimizcha, boshqa sohaviy huquqlarda ham ularni ikki mustaqil prinsip deb tan olish lozim. Chunki u oliy yuridik kuchga ega va to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi. Ammo shu bilan birga, bu ikki prinsipning o‘zaro chambarchas bog‘liqligi ham aniq: biri amal qilsa, ikkinchisi ham amalga oshishi zarur.

§ 5.2. Xalqaro standartlarning milliy qonunchilikka implementatsiya masalalari

Ошибка! Закладка не определена.

Jinoyat ishlari bo‘yicha odil sudlovni ta’minlashda dunyo davlatlari tajribasi bir-biridan jiddiy farq qiladi deb bo‘lmaydi. Hatto, anglo-sakson va romana-german huquq tizimi amal qiluvchi mamlakatlarda ham hukm turlari, hukm chiqarish, uni rasmiylashtirish va e’lon qilish tartiblari aynan bir xil bo‘lmasada – juda o‘xshash

bo‘lib bormoqda. Shunday bo‘lsada, har bir davlat milliy qonunchiligini ishlab chiqishda huquq oilasi, qolaversa milliy ijtimoiy qarashlaridan kelib chiqib yaratgan va bu narsa jinoiy odil sudlov yakuni bo‘yicha chiqariladigan hukmlar shakli va mazmuniga ham ta’sir ko‘rsatmasdan qolmagan.

Romana-german huquq tizimiga kiruvchi davlatlarda hukm tuzilishi va uning chiqarilishi yuzasidan turli xil yondashuvlar mavjud. Masalan, **Moldova**¹⁰⁰, **Belorusiya**¹⁰¹, **Tojikiston Respublika**¹⁰²larida yuqori instansiya sudlari sud muhokamasi yakuni bo‘yicha hukm emas, faqat ajrim va qaror chiqaradi. Ularning yondashuviga ko‘ra hukm chiqarishga faqat birinchi instansiya sudi vakolatli bo‘lishi, mazkur hukmlar ustidan berilgan shikoyatlarni ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha qaror rasmiylashtirilishi zarur. Boshqacha aytganda, hukmni qayta ko‘rish natijasi bo‘yicha hukm chiqarilishi mumkin emas.

Ushbu tartib milliy jinoyat-protsessual qonunchiligimizga muvofiq emas: JPK bo‘yicha apellyatsiya, kassatsiya, taftish instansiyalari o‘z vakolatlari doirasida oqlov hukmini bekor qilib ayblov hukmi chiqaradi yoki aksincha, shuningdek ayblov hukmini bekor qilib, yangi ayblov hukmi chiqarishga vakolatli hisoblanadi.

Bir qator rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganadigan bo‘lsak, masalan **Moldova Respublikasida** apellyatsiya tartibida ishlarni qayta ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha bitta protsessual hujjat – “ajrim” rasmiylashtiriladi¹⁰³. Ushbu davlatdan butunlay farqli ravishda **Gruziya** JPKning 298-moddasida apellyatsiya instansiyasida ish yuritish natijalari bo‘yicha faqat “hukm” rasmiylashtirilishi belgilab qo‘yilgan¹⁰⁴. **Qozog‘iston Respublikasi** JPKning 431-

¹⁰⁰ Уголовно-процессуальный кодекс Республики Молдова от 14 марта 2003 года № 122-XV (с изменениями и дополнениями по состоянию на 01.03.2024 г.). https://continent-online.com/Document/?doc_id=30397729#pos=5600;-30

¹⁰¹ Уголовно-процессуальный кодекс Республики Беларусь от 16 июля 1999 года № 295-3 (с изменениями и дополнениями по состоянию на 17.07.2023 г.) https://continent-online.com/Document/?doc_id=30414958#pos=3583;44

¹⁰² Уголовно-процессуальный кодекс Республики Таджикистан от 3 декабря 2009 года (с изменениями и дополнениями по состоянию на 03.01.2024 г.) https://continent-online.com/Document/?doc_id=30594304#pos=3684;-40

¹⁰³ Уголовно-процессуальный кодекс Республики Молдова от 14 марта 2003 года № 122-XV (с изменениями и дополнениями по состоянию на 01.03.2024 г.) https://continent-online.com/Document/?doc_id=30397729#pos=5423;-38

¹⁰⁴ Уголовно-процессуальный кодекс Грузии. <https://matsne.gov.ge/ru/document/view/90034?publication=130>

moddasiga ko‘ra¹⁰⁵, apellyatsiya instansiyasida ish yuritish natijasi bo‘yicha qarorlar, shuningdek hukm chiqarish asoslari milliy protsessual qonunchiligimizdan jiddiy farq qilmaydi. **Qirg‘iziston Respublikasi** JPKning 417-moddasidan anglashilishicha, ikkita holatda va ikki xil mazmundagi hukm chiqariladi: 1) birinchi instansiya sudi hukmini o‘zgartish to‘g‘risida; 2) birinchi instansiya sudi hukmini o‘zgarishsiz qoldirish, shikoyat yoki taqdimnomani qanoatlantirmasdan qoldirish to‘g‘risida¹⁰⁶.

Sud muhokamasi jarayonida shaxsning aybini aniqlash va unga jazo tayinlash masalasi hal qiluvchi masalalar bo‘lib, shundan kelib chiqib, ayrim davlatlarda sud muhokamasi mustaqil ikki bosqichga ajratilgan. Xususan, anglo-sakson huquq tizimiga kiruvchi AQSH, Buyuk Britaniya, Isroil, Kanada, Avstraliya va boshqa bir qator rivojlangan davlatlarda shaxsning aybini aniqlash va unga jazo tayinlash alohida-alohida sud bosqichlari sanaladi. Romana-german huquq tizimida esa bu masala boshqacha hal etilgan. Ushbu huquq tizimiga kiruvchi mamlakatlarda yuqoridagi ikki masala hukmi chiqarish jarayonida bir vaqtda hal etiladi¹⁰⁷. Boshqacha aytganda, sud tomonidan hal etilishi lozim bo‘lgan masalalarni o‘rganish jarayoni sudning bitta qarori (hukmi) bilan hal etilishi kerakmi yoki o‘rganiladigan masalalar yuzasidan alohida jinoyat-protsessual hujjatlar rasmiylashtirilishi zarurligi yuzasidan turli yondashuvlar mavjud.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 454-moddasiga ko‘ra, hukm O‘zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladi. Ammo, mazkur masala ham baxsli bo‘lib, bir qator xorijiy davlatlarda hukm davlat nomidan emas, xalq nomidan chiqarilishi nazarda tutilgan. Masalan **GFR** JPKning 268-moddasida hukm “xalq” nomidan chiqarilishi belgilab qo‘yilgan¹⁰⁸. **Moldova Respublikasi** JPKning

¹⁰⁵ Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан от 4 июля 2014 года № 231-V (с изменениями и дополнениями по состоянию на 17.07.2024 г.)

https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31575852&pos=6383;-55#pos=6383;-55

¹⁰⁶ Кодекс КР от 28 октября 2021 года № 129 "Уголовно-процессуальный кодекс Кыргызской Республики". <https://cbd.minjust.gov.kg/112308/edition/8273/ru>

¹⁰⁷ ГЛИДЕР, Игорь. Преимущества выделения в структуре судебного разбирательства этапов установления вины обвиняемого и назначения наказания. In: *Jurnalul juridic national: teorie și practică*, 2018, nr. 3-2(31), pp. 117-120. ISSN 2345-1130. https://ibn.idsi.md/sites/default/files/imag_file/117-120_1.pdf

¹⁰⁸ Code of Criminal Procedure as published on 7 April 1987 (Federal Law Gazette I, p. 1074, 1319), as last amended by Article 2 of the Act of 25 March 2022 (Federal Law Gazette I, p. 571). https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stpo/englisch_stpo.html

384-moddasiga muvofiq, hukm “qonun” nomi bilan chiqariladi¹⁰⁹. Qiziq jihati, anglo-sakson huquq tizimiga kiruvchi davlatlarda hukmning kirish qismida bunday mazmundagi jumlaning uchratilmaymiz.

Ilg'or axborot texnologiyalar rivoji davlatlar jinoyat ishlari yurituviga ham ta'sir qilmoqda. Sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlov sohasiga ham shiddat bilan kirib kelmoqda. Xususan, **Angliya va Uels** sudlarida ham sun'iy intellekt yordamida qaror yozishga ruxsat berilgan¹¹⁰. Ammo, bitta sharti – unda huquqiy tahlil o'tkazish taqiqlangan. Chunki neyrotarmoq kiritilgan ma'lumotlarni o'zida saqlab qolish xususiyatiga ega. Shuningdek, oshkor etilishi mumkin bo'lmagan maxfiy ma'lumotlar ham dasturga ma'lum qilinmasligi kerak. Bugungi kunda qaror qabul qilishda “ChatGPT-4” tizimidan foydalanishga ruxsat berilgan davlatlar qatoriga **Buyuk Britaniya** yoki **Kolumbiyadan** tashqari, **Hindiston**¹¹¹, **Pokistonni**¹¹² ham kiritishimiz mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, hukmning asoslantiruvchi qismini shakllantirish yuzasidan yagona xalqaro sud amaliyoti mavjud emas. Masalan, anglo-sakson huquq tizimiga kiruvchi davlatlar: **AQSH** yoki **Buyuk Britaniya**da hukm yozish masalasida sudyalarning ancha erkin bo'lib, o'z fikrlari, tahlillariga ijodiy yondashadi. Romana-german huquq tizimida esa uning jinoyat-protsessual qonunchilik bilan tartibga solingan qoliplari bor va ular jinoyat-protsessual qonunchilik bilan tartibga solingan. Ayrim anglo-sakson huquq oilasiga kiruvchi davlatlar, xususan **Avstraliya**¹¹³ tajribasiga e'tibor beradigan bo'lsak, jinoyat ishlari bo'yicha chiqariladigan hukmlar quyidagi 4 ta masalani o'zlarida aks ettirishi zarur: *ish holati; aniqlanishi kerak bo'lgan masalalar; aniqlanishi kerak bo'lgan masalalar bo'yicha qaror qabul qilish; qarorni asoslantirish. Filippinda* esa sud qarorlari muayyan

¹⁰⁹ Уголовно-процессуальный кодекс Республики Молдова от 14 марта 2003 года № 122-XV (с изменениями и дополнениями по состоянию на 01.03.2024 г.). https://continent-online.com/Document/?doc_id=30397729#pos=5600;-30

¹¹⁰ Judges in England and Wales can now use AI in writing legal opinions. <https://www.fastcompany.com/91006794/judges-in-england-and-wales-can-now-use-ai-in-writing-legal-opinions>

¹¹¹ <https://dig.watch/updates/indian-judge-used-chatgpt-in-a-criminal-case>

¹¹² ChatGPT-4 Used in a Pakistani Judgment as an Experiment. <https://courtingthelaw.com/2023/04/07/laws-judgments-2/chatgpt-4-used-in-a-pakistani-judgment-as-an-experiment/>

¹¹³ SKILLS OF JUDGMENT WRITING. - p. 53. <https://ijtr.nic.in/SKILLS%20OF%20JUDGMENT%20WRITING.pdf>

darajada minimal standartlarga javob berishi talab etiladi. Ularga ko‘ra, hukm mazmuni quyidagi standartlarga javob berishi kerak: *ish holatlari mazmuni, faktlarni aniqlash va ularga huquqni qo‘llash*¹¹⁴.

Ushbu davlatlar tajribasidan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, hukm mazmuniga umumiy talablar belgilangan va sudyalari ish holatlaridan kelib chiqib, uni yozishga ijodiy yondashadilar. Romana-german huquq oilasiga kiruvchi davlatlarda esa hukm mazmuniga nisbatan bunday qisqa talablar belgilanmagan, hukm aniq tarkibiy qismlarga ajratilgan holda har birida aks etishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar nazarda tutilgan.

Hukm turlariga keladigan bo‘lsak, jinoyat ishi yurituvida hukmning bir qancha turlari ajratib ko‘rsatilgan: oqlov, ayblov. Ayblov hukmi esa o‘z navbatida jazo tayinlanadigan, jazo tayinlanmasdan chiqariladigan va tayinlangan jazodan ozod qilib chiqariladigan hukmlarga bo‘linadi. Ushbu turdagi hukmlarni chiqarish asoslari qonunchilikda aniq belgilab qo‘yilgan. Ayrim xorijiy davlatlar tajribasi o‘rganilganda jazo tayinlanmasdan chiqariladigan va tayinlangan jazodan ozod qilinadigan hukmlar chiqarish uchun huquqiy asoslar turlicha ekanligi va bu masalada hatto MDH davlatlarida ham yagona yondashuv mavjud emasligini ko‘ramiz.

Xususan, **Gruziya Respublikasi** JPKning 269-moddasida faqat bitta holatda – hukm chiqarish vaqtiga kelib shaxs vafot etgan taqdirda sud jazo tayinlamasdan hukm chiqaradi¹¹⁵. **Estoniyada** esa milliy qonunchiligimizdan farqli ravishda ayblov hukmi turlarga ajratilmagan. **Moldova Respublikasi** 389-moddasida esa faqat to‘rt holatda – shaxsning qilmishidan pushaymonligi, sharoit o‘zgarganligi, javobgarlikka tortish muddati o‘tganligi va voyaga yetmaganga majburiy tarbiyaviy ta’sir choralarini qo‘llash zarurati yuzaga kelganda sud jazo tayinlamasdan hukm chiqaradi¹¹⁶. **Qirg‘iziston Respublikasi** JPKning 349-moddasiga muvofiq, ikki

¹¹⁴ Fundamentals of decision writing for judges. **Supreme Court E-Library** Information At Your Fingertips. <https://elibrary.judiciary.gov.ph/thebookshelf/showdocs/46/63230>

¹¹⁵ Уголовно-процессуальный кодекс Грузии. Законодательный Вестник Грузии-ЗВГ, 31, 03/11/2009. <https://matsne.gov.ge/ru/document/view/90034?publication=130>

¹¹⁶ Уголовный кодекс Республики Молдова от 18 апреля 2002 года № 985-XV (с изменениями и дополнениями по состоянию на 24.11.2023 г.). https://continent-online.com/Document/?doc_id=30394923#pos=1220;5

holatda – shaxsni javobgarlikka tortish muddati o‘tgan va shaxsning jazoni o‘tashiga to‘sqinlik qiladigan og‘ir kasallikka chalingan bo‘lsa, jazo tayinlanmasdan hukm chiqariladi¹¹⁷. Ushbu ma’lumotlardan xulosa qilish mumkinki, tahlil qilinayotgan masala yuzasidan xorij davlatlarda xar xil yondashuv mavjud va bir biridan farq qiladi.

Jazo tayinlanmasdan chiqariladigan ayblov hukmini chiqarish asoslari JPKning 463-moddasida nazarda tutilgan bo‘lsada, voyaga yetmaganlarga majburlov choralarini qo‘llagan holda jazo tayinlamasdan unga hukm chiqarish masalasi bir qator xorijiy davlatlar jinoyat-protsessual qonunchiligida nazarda tutilgan. Mazkur masala yuzasidan ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligi o‘rganilganda, xususan **Rossiya Federatsiya** JPKning 432-moddasida sud voyaga yetmaganni jazodan ozod qilib, hukm chiqargan holda unga nisbatan majburlov choralarini qo‘llashi mumkinligi nazarda tutilgan¹¹⁸. **Qozog‘iston Respublikasi** JPKning 545-moddasida ham sud hukm chiqarib, unda voyaga yetmaganni jazodan ozod qilishi va unga majburiy tarbiyaviy ta’sir choralarini qo‘llashga haqli ekanligi mustahkamlangan. Xuddi shunday mazmundagi normani **Moldova Respublikasi** JPKning 389-moddasida ham uchratish mumkin¹¹⁹. Bunday hollarda ishning mazmunan ko‘rilish yakuni ajrim bilan emas, aynan ayblov hukm bilan tugashiga urg‘u berilgan.

Bundan tashqari, JPKning 421-moddasida sud JPKning 84-modda birinchi qismining 1, 2, 3 va 8-bandlarida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha aybdor shaxsga jazo tayinlamay, ayblov hukmi chiqarishi nazarda tutilgan. Bunday hollarda sud jinoyat ishini ajrim chiqarish orqali ham tugatish imkoni borgan o‘xshaydi nazariy jihatdan. Ammo, kodeks yuqoridagi masalalar hukm chiqarish yo‘li bilan hal etilishini qat’iy belgilagan. Ayrim xorijiy davlatlar jinoyat-protsessual qonunchiligini tahlil qiladigan bo‘lsak, **Rossiya Federatsiyasi** JPKning

¹¹⁷ Кодекс КР от 28 октября 2021 года № 129 "Уголовно-процессуальный кодекс Кыргызской Республики". <https://cbd.minjust.gov.kg/112308/edition/8273/ru>

¹¹⁸ "Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации" от 18.12.2001 N 174-ФЗ (ред. от 29.05.2024) (с изм. и доп., вступ. в силу с 01.07.2024). https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34481/

¹¹⁹ Уголовный кодекс Республики Молдова от 18 апреля 2002 года № 985-XV (с изменениями и дополнениями по состоянию на 24.11.2023 г.). https://continent-online.com/Document/?doc_id=30394923#pos=1220;5

27-28-moddalari tahlilida ham ishni tergov yoki sud bosqichida tugatishning muhim sharti – aybdor shaxsning roziligi talab qilinishi, agarda shaxs bunga e'tiroz bildiradigan bo'lsa, ish umumiy asoslarda davom ettirilishi mustahkamlab qo'yilgan¹²⁰. **Qozog'iston Respublikasi** JPKning 35-36-moddalariga muvofiq, jinoyat ishining davom etishi shaxsning roziligiga bog'liq. Shunday mazmundagi normani **Qirg'iziston Respublikasi** JPKning 302-moddasida ham uchratish mumkin¹²¹. Ushbu davlatlar tajribasidan anglashiladiki, jinoyat ishini sud muhokamasi davomida yuqorida ko'rsatilgan asoslar yuzaga kelganda tugatish uchun sudlanuvchining roziligi talab etiladi. Bunday rozilik mavjud bo'lgan hollarda ajrim orqali, roziligi mavjud bo'lmagan hollarda esa ish umumiy asoslarda davom ettirilib, hukm chiqarish yo'li bilan masala hal etiladi.

Shuningdek, jinoyat-protsessual qonunchiligimizda hukmga qo'yilgan talablar qat'iy belgilangan bo'lib, hukm qonuniy, asosli va adolatli bo'lishi shart. Ushbu talablardan har qanday chekinish uchun hukmning bekor bo'lishiga yoki unga o'zgartish kiritilishiga olib keladi. Xususan, qonuniylik talabini oladigan bo'lsak, qonunning barcha talablariga rioya qilingan holda chiqarilgan hukm qonuniy sanaladi. Ammo, bir qator davlatlar tajribasini o'rganish orqali bu borada qilinishi lozim bo'lgan ishlar mavjudligi to'g'risida xulosa beradi. Haqiqatdan ham, O'zbekiston Respublikasi JPKning 455-moddasi jinoyat ishi bo'yicha yakuniy huquqiy hujjatni umum tan olingan prinsiplar, xalqaro shartnomalar va xalqaro huquq normalariga, qolaversa Konstitutsiyaga muvofiqligi yuzasidan baholash bo'yicha sudning konstitutsiyaviy majburiyatini hisobga olmagan. Ayrim xorijiy davlatlar, xususan **Ozarbayjon Respublikasi** JPKning 349.4-moddasida¹²² hukmning Konstitutsiya, Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodeks va boshqa qonun talablariga rioya qilinganligi uning qonuniyligini belgilovchi mezon sifatida

¹²⁰ "Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации" от 18.12.2001 N 174-ФЗ (ред. от 29.05.2024) (с изм. и доп., вступ. в силу с 01.07.2024). https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34481/9ac0cd11bf508b541e6ab933243fae10e4a8a005/

¹²¹ Кодекс КР от 28 октября 2021 года № 129 "Уголовно-процессуальный кодекс Кыргызской Республики". <https://cbd.minjust.gov.kg/112308/edition/8273/ru>

¹²² Уголовно-процессуальный кодекс Азербайджанской Республики (утвержден Законом Азербайджанской Республики от 14 июля 2000 года № 907-IQ) (с изменениями и дополнениями по состоянию на 22.12.2023 г.). https://continent-online.com/Document/?doc_id=30420280#pos=4753;-60

ko'rsatib o'tilgan. Ushbu davlat qonunchiligida o'rganilayotgan masalaning atroflicha tartibga solinganligini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, bugungi kunda hukmning protsessual shaklini soddalashtirish masalasi ham protsessualist olimlar va sudyalar tomonidan ham ko'p bora muhokama qilinmoqda. Bunda ko'proq urg'u hukmning tavsif-asoslantiruvchi qismga berilmoqda, kirish va qaror qismlarning mazmunini qisqartirish maqsadga muvofiq emas. Shu masalada ayrim xorijiy davlatlar tajribasi, xususan **Rossiya Federatsiyasi** JPKning 314-316-moddalariga ko'ra, uncha og'ir bo'lmagan yoki o'rtacha og'irlikdagi jinoyatni sodir etgan ayblanuvchi aybiga to'liq iqrор bo'lsa, davlat ayblovchisi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar e'tiroz bildirmasa, uning sud muhokamasini umumiy tartibda o'tkazmasdan hukm chiqarishni so'rab yozgan iltimosnomasiga asosan ish ko'rib chiqiladi¹²³. Sud majlisida raislik qiluvchi to'plangan dalillarni umumiy tartibda o'rganmaydi, baho bermaydi, faqatgina sudlanuvchining shaxsi, yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar o'rganilishi mumkin. E'tiborli jihati shundaki, ushbu toifa ishlar bo'yicha chiqariladigan hukmning *tavsif qismida dalillar tahlili, ularga sudning beradigan bahosi aks etmaydi*. Bunday soddalashtirilgan tartib milliy jinoyat-protsessual qonunchiligimizda mavjud emas.

Xuddi shunday sud tergovini to'liq o'tkazmagan holda ishni yakunlash, bu orqali hukmning tavsif-asoslantiruvchi qismini soddalashtirish bir qator xorijiy davlatlar amaliyotida ishlab kelmoqda. Xususan **Qirg'iziston Respublikasi** JPKning 504-moddasida aybiga iqrорlik to'g'risidagi kelishuv bo'yicha ayblov hukmining tavsif-asoslantiruvchi qismida jinoyat tavsifi, sudning xulosalari aks etishi, biroq *dalillar tahlili va ularga beriladigan sudning bahosi* ko'rsatilmasligi belgilab qo'yilgan¹²⁴. **Gruziya** JPKning 213-moddasiga muvofiq, aybiga iqrорlik to'g'risidagi kelishuv tuzilganda sud ish materiallariga asoslangan holda *ishni*

¹²³ "Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации" от 18.12.2001 N 174-ФЗ (ред. от 22.04.2024) (с изм. и доп., вступ. в силу с 15.05.2024). https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34481/d0622d680378b0b2dc5c8c9a2389f1507b5e48b1/

¹²⁴ Кодекс КР от 28 октября 2021 года № 129 "Уголовно-процессуальный кодекс Кыргызской Республики". <https://cbd.minjust.gov.kg/112308/edition/5972/ru>

mazmunan ko'rasdan ayblov hukmi chiqaradi¹²⁵. **Ukraina** JPKning 475-moddasi tahlili ham aybga iqrorlik bo'yicha chiqariladigan sud hukmida dalillar tahlili hukmning asoslantiruvchi qismida o'tkazilmasligi anglashiladi¹²⁶. Ushbu xorijiy davlatlar tajribasi aybiga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv bo'yicha chiqariladigan sudning ayblov hukmi mazmuni, ayniqsa uning asoslantiruvchi qismi mazmuni umumiy tartibda chiqariladigan ayblov hukmlarining shakliy tuzilishidan farq qilishini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, odil sudlovni amalga oshirishda, har tomonlama qonuniy, asosli va adolatli hukm chiqarishda sudyalar maslahatlashuvi masalasi ham juda muhim. U sudyalar mustaqilligi kafolati hamdir. Biroq, maslahatlashuv masalasi sud amaliyotida rasmiyatchilikka aylanib qolgan xolos. Sudyalar maslahatlashuv shartlariga amalda rioya qilishmaydi. Biroq, bu jarayonda ayrim masalalar borki, ular milliy jinoyat-protsessual qonunchiligimizda tartibga solinmagan. Aynan shu masala yuzasidan ayrim xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilganda masalaga o'zgacha yondashuvlar borligining guvohi bo'lamiz. Masalan, **Moldova Respublikasi** JPKning 340-moddasida hukm e'lon qilinishida alohida fikr mavjudligi to'g'risida taraflar xabardor qilinishi shartligi belgilab qo'yilgan va u bilan taraflar tanishish imkoniga ega bo'lishadi¹²⁷.

Shuningdek, **Gruziya Respublikasi** JPKning 278-moddasida alohida fikr nusxasi hukm nusxasi bilan birgalikda taraflarga taqdim etilishi nazarda tutilgan, shuningdek JPKning 271-moddasiga muvofiq, alohida fikrga ega bo'lgan sudya hukmni imzolamaydi¹²⁸. **RF** JPKning 310-moddasida hukm e'lon qilinishi vaqtida alohida fikr mavjudligi haqida taraflarga bildirilishi va 3 sutka ichida iltimosnoma berish orqali u bilan tanishish mumkinligi tushuntirilishi shart¹²⁹. Ushbu xorijiy

¹²⁵ Уголовно-процессуальный кодекс Грузии. <https://www.matsne.gov.ge/ru/document/download/90034/37/ru/pdf>

¹²⁶ Уголовный процессуальный кодекс Украины от 13 апреля 2012 года № 4651-VI (с изменениями и дополнениями по состоянию на 08.05.2024 г.). https://continent-online.com/Document/?doc_id=31197178#pos=4820;-51

¹²⁷ Уголовно-процессуальный кодекс Республики Молдова от 14 марта 2003 года № 122-XV (с изменениями и дополнениями по состоянию на 01.03.2024 г.) https://continent-online.com/Document/?doc_id=30397729#pos=4732;-6

¹²⁸ Уголовно-процессуальный кодекс Грузии. Законодательный Вестник Грузии-ЗВГ, 31, 03/11/2009. <https://matsne.gov.ge/ru/document/view/90034?publication=130>

¹²⁹ "Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации" от 18.12.2001 N 174-ФЗ (ред. от 22.04.2024) (с изм. и доп., вступ. в силу с 15.05.2024) . https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34481/

tajriba O‘zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish tartibidan bir muncha farqli ekanligini ko‘rsatadi va maslahatlashuv jarayonida boshqalarga nisbatan masalaga o‘zgacha fikrda bo‘lgan sudyaga o‘z pozitsiyasini bildirish uchun ko‘proq protsessual huquq berilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Yuqorida ta’kidlanganidek, hukm chiqarish faqatgina birinchi instansiya sudiga xos jihat emas. Bunga yuqori instansiya sudlari ham yetarli asoslar mavjud bo‘lganda vakolatli hisoblanadi. Afsuski, milliy jinoyat-protsessual qonunchiligimizda apellyatsiya, kassatsiya yoki taftish instansiya sudlari tomonidan chiqariladigan hukmlar mazmuniga, ularning kirish, tavsif, qaror qismlariga qo‘yiladigan alohida talablar mavjud emas, ular birinchi instansiya sudi hukmi asosida shakllantiriladi. Mazkur masala ayrim davlatlar jinoyat-protsessual qonunchiligida batafsil tartibga solingan. Xususan, **Rossiya Federatsiya JPK**da apellyatsiya hukmi mazmuniga qo‘yilgan talablar (389²⁸ -modda), apellyatsiya oqlov hukmning tavsif qimida ko‘rsatilishi zarur bo‘lgan ma’lumotlar (389²⁹-modda), apellyatsiya oqlov hukmning qaror qimida ko‘rsatilishi zarur bo‘lgan ma’lumotlar (389³⁰ -modda), xuddi shuningdek apellyatsiya ayblov hukmi mazmuniga qo‘yilgan talablar ham aniq belgilangan. Haqiqatdan ham, yuqori instansiya sudi hukmlari mazmuni birinchi instansiya sudi hukmlari mazmuni bilan bir xil bo‘lishi mumkin emas.

Yuqoridagi xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish orqali hukm turlari, ularning mazmuni, tarkibiy tuzilishi, sudyalar maslahatlashuvi tartibi va boshqa hukm chiqarish bilan bog‘liq masalalar bir-biridan farq qilishi va biror bir davlat bilan ayni bir xil emasligini ko‘rishimiz mumkin. Sud amaliyotida uchrayotgan muammolarga ijobiy yechim topish, hukm yozish va uning shakllantirishgacha bo‘lgan jarayonlarni soddalashtirish va takomillashtirish, bu orqali odil sudlov samaradorligini oshirish rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi, ularni milliy qonunchilikka to‘g‘ri tadbiiq etishga bog‘liqdir.

XVJIOCA

Mazkur monografiyada sud hukmining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini ta'minlashga oid nazariy qarashlar, milliy qonunchilik talablari hamda amaliyotda uchrayotgan tizimli muammolar chuqur tahlil qilingani bilan ahamiyatlidir. Tadqiqotning asosiy qimmatli jihati – sud hukmini faqat yakuniy protsessual hujjat sifatida emas, balki odil sudlovning markaziy instituti, inson huquqlarining kafolati va jamiyatdagi adolatni tiklovchi huquqiy mexanizm sifatida yoritib berilishidadir.

Monografiya sud faoliyatining mohiyati, sud himoyasi huquqi, dalillarni baholashning nazariy-me'zoniyligi asoslari, sudya mustaqilligi va taraflar teng huquqliligi tamoyillarini o'zaro bog'liq holda talqin etadi. Bu yondashuv hukmning mazmuni – faqat faktlar yig'indisi emas, balki protsessual tamoyillar, konstitutsion prinsiplarga tayangan holda shakllanishi lozim bo'lgan huquqiy xulosa ekanini effektiv asoslaydi. Shuningdek, tadqiqot davomida konstitutsion qadriyatlar, odil sudlovning maqsadi, shaxs va jamiyat manfaatlari o'rtasidagi huquqiy muvozanat masalalari ham fundamental metodologiya sifatida qo'llangan.

Monografiyada hukm turlarining amaldagi tasnifi chuqur tahlil qilinib, ayniqsa jazo tayinlanmasdan chiqariladigan ayblov hukmlariga oid normalardagi konseptual noaniqliklar, ular qo'llanishida yuzaga kelayotgan amaliy tafovutlar, JPK normalari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar aniq ko'rsatib berilgan. Sudlar tomonidan ba'zan ishni tugatish, xususiyatni yo'qotganlik yoki ijtimoiy xavfning barham topgan holatlarini turlicha baholanishi – faqat nazariy emas, balki jamoat ishonchiga ham ta'sir ko'rsatuvchi jiddiy muammo sifatida yoritilgan.

Tadqiqotda jazo tayinlamasdan chiqariladigan ayblov hukmlarining nazariy asoslari yetarlicha ishlab chiqilmagani, ayrim bandlarning amaliyotga tatbiqi noaniq ekani, voyaga yetmaganlarga majburiy tarbiyaviy choralar qo'llanishi yuzasidan sud qarorlaridagi ziddiyatlar o'z vaqtida ko'tarilgan muhim masalalar sifatida alohida qayd etilgan. Muallif tomonidan JPKning tegishli moddalarini takomillashtirish, ayrim normalarni to'ldirish, jazodan ozod qilish va jazo tayinlamasdan hukm chiqarish o'rtasidagi protsessual farqlarni aniqlashtirish bo'yicha ilgari surilgan takliflar ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatga egaligi bilan e'tiborga molik.

Sud hukmini qonuniy chiqarish uchun moddiy va protsessual huquq normalariga rioya etish kifoya emasligi, sudning turli tarmoqlardagi (fuqarolik, mehnat, ma'muriy, iqtisodiy) huquqiy normalarni to'g'ri qo'llashi ham muhim ekani monografiyada asosli ko'rsatib berilgan. Sudlov jarayonida dalillarni baholashning ichki ishonchga asoslanganligi, bu ishonchning qonuniy, ilmiy ham mantiqiy mezonlarga tayanishi lozimligi, sudyaning xolisligi va mustaqilligini mustahkamlaydigan tamoyillar bilan uyg'un holda talqin etilgan.

Amaliy tahlillar, sud qarorlaridan keltirilgan real misollar monografiyatagi nazariy xulosa va takliflar tegishli o'zgarishlarni talab qilishida muhim rol o'ynaydi. Sudlar tomonidan JPK normalari turlicha qo'llanayotgani, ayniqsa jazo tayinlanmasdan chiqariladigan ayblov hukmlariga oid ziddiyatli amaliyot mavjudligi, aybsizlik prezumpsiyasining to'liq amalga oshmasligi, dalillar yetarli bo'lmagan holatlarda hukm chiqarish tartibining aniq belgilab qo'yilmaganligi – monografiyada asosli tanqid qilingan bo'lib, bu masalalar jinoiy protsessual siyosatni takomillashtirishda alohida e'tiborga sazavordir.

Monografiyada ayblov hukmi chiqarish uchun dalillar majmuining talablari, oqlov hukmining asoslari va dalil etish triangulyatsiyasi bo'yicha ilgari surilgan ilmiy yondashuvlar ham nazariy, ham amaliy jihatdan qimmatga ega. Shuningdek, sud-tergov mismorlarida “tasdig'ini topmagan ayblilik – huquqiy ma'noda tasdig'ini topgan aybsizlikdir” degan konstitutsion yondashuv sud amaliyotida mustahkam qo'llanishi zarurligi ilmiy asosda ta'kidlab o'tilgan.

Muallif tomonidan sud hukmining adolatliligini ta'minlashda jazoni individualizatsiya qilish, mutanosiblik va jamoat xavfsizligi tamoyillarining o'rni, xalqaro standartlar bilan uyg'unlik masalalari ham chuqur yoritilgan. Xalqaro sudlar, Yevropa Inson huquqlari sudi, boshqa davlatlar tajribasidan foydalanilgan qismi tadqiqotni yanada pishiq, ilmiy asoslangan va keng ko'lamli qiladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi – sud-huquq islohoti sharoitida sud hukmining mazmuni, shakli va protsessual tabiati qayta ko'rib chiqilayotgan, hukm motivatsiyasiga qo'yiladigan talablar kuchaytirilayotgan bir davrda mantiqiy va ilmiy asoslangan yondashuvni taklif qilganidadir. Monografiyada bildirilgan

takliflar qonun normalarini aniqlashtirish, protsessual bo‘shliqlarni bartaraf etish va sud faoliyatida yakdil amaliyotni ta’minlashda katta nazariy-amaliy ahamiyatga ega.

Yakun sifatida aytish joizki, monografiya jinoyat-protsessual huquqning dolzarb masalalaridan birini puxta ilmiy tahlil qilgan, sud hukmini shakllantirishning nazariy asoslarini mustahkamlagan, amaliyotga qaratilgan aniq takliflar ishlab chiqqan yirik ilmiy tadqiqot bo‘lib, o‘z yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar orasida munosib o‘rin egallaydi. Uning natijalari nafaqat ilmiy jamoatchilik, balki sud organlari, prokuratura, advokatura tizimi va qonun ijodkorligi jarayonida ham muhim ahamiyatga ega bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1.1. Всеобщая декларация прав человека. Принята резолюцией 217 А (III) Генеральной Ассамблеи ООН от 10 декабря 1948 года. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declhr.shtml.

1.2. Международный пакт о гражданских и политических правах. Принят резолюцией 2200 А (XXI) Генеральной Ассамблеи от 16 декабря 1966 года. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/pactpol.shtml

1.3. Руководящие принципы, касающиеся правосудия в вопросах, связанных с участием детей-жертв и свидетелей преступлений. Приняты резолюцией 2005/20 ЭКОСОС от 22 июля 2005 года. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/guidelines_justice_inv_c_hild.shtml

1.4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон). <https://lex.uz/docs/6445145>

1.5. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 10.10.2024 й., 03/24/974/0804-сон). <https://lex.uz/docs/6445145>

1.6. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 10.10.2024 й., 03/24/974/0804-сон). <https://lex.uz/docs/6445145>

1.7. “Вояга уетмаганларнинг жиноятлари ҳақидаги ишлар бо‘йича суд амалиёти то‘ғ‘рисида”ги О‘збекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарори, 15.09.2000 йилдаги 21-сон. <https://lex.uz/ru/docs/1449720>

1.8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014 yil 23 maydagi 07-sonli “Sud hukmi to‘g‘risida” gi qarori. <https://lex.uz/acts/2413562#2413755>

1.9. Jinoyat ishlarini birinchi instansiya sudida muhokama qilish bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 14.05.2022 йилдаги 7-сон. <https://lex.uz/uz/docs/6033155>

II. Monografiya, ilmiy maqolalar, patent, ilmiy to‘plamlar

2.1. Obidov T.A. Ayblov hukmining qaror qismiga qo‘yilgan talablar. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent – 2023, -12b.

2.2. Pirnazarov A.A. Jinoyat protsessida oqlov hukmi: nazariya va amaliyot. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent – 2023, -14b.

2.3. Сатторов А.Я. Жиноят процессида реабилитация институтини амалга ошириш механизмларини такомиллаштириш. Юридик фанлар бо‘йича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. Тошкент– 2023. -47б. 105

2.4. Тухташева У.А. Уголовно-процессуальные пути устранения судебных ошибок. Диссертация на соискание ученой степени доктора юридических наук (Doctor of Science). Ташкент – 2020 год. -С 230

2.5. Xoliqov F.U. Ma’muriy preyuditsiali jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish masalalari. Yu.f.f.d. dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2024. -19б.

2.6. Dusmanov S.A. Soddalashtirilgan tartib institutini jinoyat ishlari yurituviga joriy qilish istiqbollari. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent – 2023, 20b.

2.7. Toshev O.S. Aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv institutining o'ziga xos xususiyatlari. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2023, 13b.

2.8. AIRAPETEAN ARTUR. ПРИГОВОР В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ РЕСПУБЛИКИ МОЛДОВА (TEZĂ DE DOCTOR ÎN DREPT). 12.00.08 - Drept penal (drept procesual penal) . - Chişinău 2007, -С.36

2.9. Писаревский И.И. Обоснованность и мотивированность приговора в российском уголовном процессе. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. - Томск – 2019, -С 19.

2.10. Беляев М.В. Судебные решения в российском уголовном процессе: теоретические основы законодательство и практика. Диссертация на соискание ученой степени доктора юридических наук. Москва — 2019, - С.41.

2.11. Суханова Н.Н. Постановление оправдательного приговора в российском уголовном судопроизводстве. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Иркутск 2008. – С.9.

2.12. Чурилов Ю.Ю. Оправдательный приговор в российском судопроизводстве. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. - Воронеж 2009. –С.10. https://static.freereferats.ru/_avtoreferats/01004324840.pdf?ver=6

2.13. Гочияев М.К. Судебное следствие как об'ективная основа законного и обоснованного приговора. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. - Краснодар — 2006, -С.15. https://static.freereferats.ru/_avtoreferats/01002977220.pdf?ver=3

2.14. Гай О.Ю. Законная сила приговора в уголовном процессе: дис. ... канд. юрид. наук. Саратов, 1999. С. 49–50.

2.15. Скутина Е.В. Амнистия в уголовном судопроизводстве. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Екатеринбург — 2009. https://static.freereferats.ru/_

2.16. Попова И.П. Обвинительный приговор без назначения наказания в российском уголовном судопроизводстве: сущность, основания и порядок постановления. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. - Томск – 2018. –С. 9.

2.17. Ершова Н. С. Обоснованность итоговых уголовно-процессуальных решений суда первой инстанции. Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. - Москва – 2014, -С.31. 106

2.18. Разяпова Л.М. Деятельность суда после провозглашения решения, завершающего рассмотрение уголовного дела в суде первой инстанции. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Екатеринбург – 2018. <https://www.usla.ru/science/dissovet>

2.19. Бунина А.В. Приговор суда как акт правосудия. Его свойства. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Челябинск – 2005/ https://static.freereferats.ru/_avtoreferats/

2.20. Григорев А.И. Существенные нарушения уголовно-процессуального закона как основание к отмене или изменению приговора суда первой инстанции. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. - Екатеринбург, 2023. https://www.usla.ru/science/dissovet/file/base/7/576/autoabstract_dl.pdf

2.21. Демурчев Г.Г. Основания отмены или изменения решений суда по уголовным делам, вступивших в законную силу. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Краснодар 2010. https://static.freereferats.ru/_avtoreferats/01004881799.pdf?ver=8

2.22. Брянский В.Ю. Апелляционное производство в уголовном судопроизводстве. Авто реферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Москва 2006, -С.22. https://static.freereferats.ru/_avtoreferats/01002948496.pdf?ver=5

2.23. Трахов Р.А. Обоснованность решений суда первой инстанции в российском уголовном процессе. Автореферат диссертации на соискание

учёной степени кандидата юридических наук. Краснодар – 2010.
<https://kubsau.ru/upload/iblock/0b6/0b69998da86ebd3f102328c621d05aa7.pdf>

2.24. Обидов Т.А. Айблов ҳукми тушунчаси ва унинг юридик табиати. “Та’лим ва innovatsion tadqiqotlar” ilmiy va ilmiy texnik onlayn konferensiya.
<https://conf.sciencebox.uz/index.php/INNOVATSIYA/article/download/445/410>

2.25. Тошпулатов А. Жиной жавобгарликдан ва жазодан озод қилишда Жинойт кодекси принципларнинг аҳамияти //Общество и инновации. – 2023. – Т. 4. – №. 1/3. – С. 216-226.

2.26. Пирназаров А.А. Судьяларнинг мустақиллиги оқлов ҳукмини чиқаришнинг кафолатларидан биридир. <https://in-academy.uz/index.php/zdift/>

2.27. Григорев, В. Н. Тупиковые векторы развития не повод к возрождению репрессивных элементов уголовно-процессуальной формы / В. Н. Григорев // Государство и право в изменяющемся мире: новые векторы судебной реформы: Материалы III научно-практической конференции с международным участием, Нижний Новгород, 21 марта 2017 года. – Нижний Новгород: Издательство «Автор», 2018. – С. 312-316. – EDN XWMVED.

2.28. Корнакова С. В., Щербаков В. А. Справедливость обвинительного приговора: определение критериев //Юридическая наука и правоохранительная практика. – 2017. – №. 2 (40). – С. 125-131. 107
<https://cyberleninka.ru/article/n/spravedlivost-obvinitelnogo-prigovora-predelenie-kriteriev>

2.29. Колоколов Н. А. Уголовное судопроизводство: стратегия и тактика //Вестник Московского университета МВД России. – 2016. – №. 4. – С. 79-84.
<https://cyberleninka.ru/article/n/ugolovnoe-sudoproizvodstvo-strategiya-i-taktika>

2.30. Соловева Н. А., Тришина Н. Т. Виды решений суда апелляционной инстанции //Legal Concept. – 2012. – №. 1. – С. 143-147.

2.31. Рукавишников (Плашевская) А. А. Апелляционный порядок проверки итоговых судебных решений по УПК РФ: полная или неполная апелляция // Вестник Томского государственного университета. Право. 2013. № 4 (10). С. 108.

2.32. Валеев А. Т. К вопросу о праве на апелляционное обжалование и сущности российской апелляции по уголовным делам //Актуальные проблемы российского права. – 2016. – №. 5 (66). – С. 130-139. <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-prave-na-atsii-po-ugolovnym-delam>

2.33. Дулов А. В., Печерский В. В. Проблемні аспекти формування протоколу та вироку у кримінальному судочинстві. ББК 67Я43 Н-34 (2012): 148. <https://vestnik-mgu.od.ua/archive/juspradenc3/juspradenc3.pdf#page=148>

2.34. Закатова О. В. Протоколы судебного заседания: проблемы и пути их решения //Актуальные проблемы российского права. – 2010. – №. 3. – С. 323-331. <https://cyberleninka.ru/article/n/protokoly-sudebnogo-zasedaniya-i-puti-ih-resheniya>

2.35. Юлбердина Л. Р. Протокол судебного заседания в теории и практике российского уголовного процесса //Правовое государство: теория и практика. – 2016. – №. 1 (43). – С. 141-145. <https://cyberleninka.ru/article/n/prot>

2.36. Баев О. Я., Баев М. О. Протокол судебного заседания как зеркало осуществленного правосудия по уголовному делу //Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Право. – 2008. – №. 2. – С. 246-257. <https://cyberleninka.ru/article/n/protokol-sudebnogo-zasedaniya-kak-zerkalo-osuschestvlenного-pravosudiya-po-ugolovnomu-delu>

2.37. Васяев, А. А. Протокол судебного заседания - доказательство? / А. А. Васяев, М. В. Палчикова // Современное право. – 2010. – № 4. – С. 116-119. – EDN MTWGTV. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=15165028> 2.38. Смолкова И. В. Тайна совещания судей как гарантия законности, обоснованности и справедливости приговора //Сибирские уголовно-процессуальные и криминалистические счтения. – 2017. – №. 2 (16). – С. 116-

122. <https://cyberleninka.ru/article/n/tayna-soveschaniya-sudey-kak-ntiya-zakonnosti-obosnovannosti-i-spravedlivosti-prigovora>

2.39. Перова Е.А. Нарушение тайны совещания и отсутствие протокола судебного заседания как безусловно-существенные нарушения, влекущие отмену приговора: типичные проявления в судебной практике //

Теоретические аспекты юриспруденции и вопросы правоприменения: сб. ст. по материалам XLVII Международной научно-практической конференции «Теоретические аспекты юриспруденции и вопросы правоприменения». М., Изд. «Интернаука». № 5(47). 2021. С. 151-156.

2.40. Фролов Игнат Сергеевич Особое мнение судьи как одна из гарантий независимости судей и их равенства при постановлении приговора: проблемы и перспективы // Сибирские уголовно-процессуальные и криминалистические чтения. 2017. №2 (16). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osoboe-mnenie-sudii-kak-odna-iz-garantiy-sudey-i-ih-ravenstva-pri-postanovlenii-prigovora-problemy-i-perspektivy>

2.41. Цыганкова, Е. С. Особый порядок принятия судебного решения при согласии обвиняемого с предъявленным ему обвинением: проблемные аспекты / Е. С. Цыганкова // Безопасность личности, общества и государства: теоретико-правовые аспекты: Сборник тезисов выступлений участников международной научно-теоретической конференции, Санкт-Петербург, 16–17 мая 2019 года / Сост.: А.В. Афанасев, А.В. Ефимовский, О.С. Кравченко. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский университет Министерства внутренних дел Российской Федерации, 2019. – С. 707-712. – EDN VUMSJU. <https://elibrary.ru/item.asp?id=46148310>

2.42. Дикарев И. С. ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРАВ ПОТЕРПЕВШЕГО ПРИ ЗАКЛЮЧЕНИИ ДОСУДЕБНОГО СОГЛАШЕНИЯ О СОТРУДНИЧЕСТВЕ // Правовое государство: теория и практика. – 2024. – №. 1 (75). – С. 196-202.

2.43. Шигуров Александр Викторович Проблемы особого порядка принятия судебного решения при согласии обвиняемого с предъявленным ему обвинением в российском уголовном процессе // Мир науки и образования. 2015. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-osobogo-poryadka-prinyatiya-sudebnogo-resheniya-pri-soglasii-obvinyаемого-s-predyavlenным-kom>

2.44. Пилюк А. В. и др. Теоретические основы упрощения форм разрешения уголовных дел судом в Российской Федерации: типологический аспект. – 2017. 2.45. Глебов В. Г. ПРОБЛЕМЫ УПРОЩЕНИЯ

ПРОЦЕССУАЛЬНОЙ ФОРМЫ В УГОЛОВНОМ СУДОПРОИЗВОДСТВЕ
//Вестник Волгоградской академии МВД России. – 2020. – №. 4 (55). – С. 105-109.

2.46. Овсюкова, А. В. К вопросу о правовом регулировании постановления обвинительного приговора без назначения наказания / А. В. Овсюкова // Modern Science. – 2020. – № 7-1. – С. 173-176. – EDN AUTSLE. https://elibrary.ru/download/elibrary_43130306_10529763.pdf

2.47. Ирина Владимировна Губко, Лаура Грачиковна Колесникова Обеспечение справедливости приговора судом: теоретико-правовые аспекты законодательного регулирования // Закон и право. 2022. №6. URL: 109 <https://cyberleninka.ru/article/n/obespechenie-spravedlivosti-prigovora-sudom-teoretiko-pravovye-aspekty-zakonodatelnogo-regulirovaniya>

2.48. Букаева И.Н. К вопросу о законности приговора // Царскоселские чтения. 2012. №XVI. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-zakonnosti-prigovora>

2.49. Дгебиа, А. А. К вопросу о мотивированности приговора / А. А. Дгебиа // Актуальные проблемы уголовного права, уголовного процесса и криминалистики: Сборник научных трудов по материалам 4-й Всероссийской научно-практической конференции молодых ученых, аспирантов, соискателей и магистрантов, Краснодар, 23 ноября 2018 года / Под редакцией В. Д. Зеленского. – Краснодар: Кубанский государственный аграрный университет имени И. Т. Трубилина, 2019. – С. 102-106. – EDN TTUKCA. <https://elibrary.ru/item.asp?id=41453537>

2.50. Арина Магомедалиевна Джамаева Понятие, свойства и виды судебного приговора в уголовном процессе России // Закон и право. 2023. №12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-svoystva-i-vidy-sudebnogo-prigovora-v-ugolovnom-protssesse-rossii>

2.51. Bibilo V. N. Characteristics of judicial sentence as display of justice legitimation. J.Belarus. State Univ. Law. 2017. No. 3. P. 75–82 (in Russ.). <https://journals.bsu.by/index.php/law/article>

2.52. Остапенко И. А. Приговор как итоговое решение по уголовному делу //Автореферат дис.... канд. юр. наук. – 2007. – Т. 12. – №. 09. https://static.freereferats.ru/_avtoreferats/01003344056.pdf?ver=8

2.53. Ширванов А.А. Нарушения закона в уголовном процессе Российской Федерации и их правовые последствия. <https://www.dissercat.com/content/narusheniya-zakona-v-ugolovnom-protsesse-rossiiskoi-federatsii-i-ikh-pravovye-posledstviya>

2.54. Казарина М.И. Процессуальные гарантии реализации принципа независимости судей при рассмотрении уголовных дел в суде первой инстанции в общем порядке. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. - Томск – 2020. <https://vital.lib.tsu.ru/vital/access/services/Download/vtls:000675491/SOURCE1>

2.55. Кудрявцева А. В., Спиридонов М. С. ПОНЯТИЕ И СОДЕРЖАНИЕ ТАЙНЫ СОВЕЩАТЕЛЬНОЙ КОМНАТЫ В УГОЛОВНОМ СУДОПРОИЗВОДСТВЕ //Вестник Южно-Уралского государственного университета. Серия: Право. – 2020. – Т. 20. – №. 3. – С. 28-35. <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-i-soderzhanie-tayny-soveschatelnoy-komnaty-v-ugolovnom-sudoproizvodstve>

2.56. Бибило, Валенина Николаевна. "Справедливость приговора суда." (2019). Журнал Белорусского государственного университета. Право = Journal of the Belarusian State University. Law. - 2019. - № 3. - С. 73-79. <https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/241711/1/73-79.pdf>

2.57. Кудрявцева, А. В. Полномочия суда апелляционной инстанции в уголовном судопроизводстве / А. В. Кудрявцева, Д. Г. Дик // Уголовное право. 110 – 2018. – № 2. – С. 115-122. – EDN ХОЕКЕХ. <https://elibrary.ru/item.asp?id=34968313>

2.58. Смирнов, В. П. О видах решений суда апелляционной инстанции по уголовным делам / В. П. Смирнов // Уголовное право. – 2014. – № 1. – С. 99-104. – EDN RXXBMN. <https://elibrary.ru/item.asp?id=21289909>

2.59. Халиманенков, К. В. Несправедливость приговора как основание апелляционного пересмотра / К. В. Халиманенков // Мировые исследования в области социально-гуманитарных наук: Материалы III Международной научно-практической конференции, Рязань, 27 марта 2023 года. – Рязань: Общество с ограниченной ответственностью "Издательство "Концепция", 2023. – С. 386-387. – EDN JAENLC. https://www.elibrary.ru/download/elibrary_

2.60. Макарова З. В. Справедливость в уголовном судопроизводстве // Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Право. – 2012. – №. 7 (266). – С. 54-56. <https://cyberleninka.ru/article/n/spravedlivost-v-ugolovnom-sudoproizvodstve>

2.61. Воскобитова, Л. А. Правовые рамки справедливости в уголовном судопроизводстве / Л. А. Воскобитова // Справедливость и равенство в уголовном судопроизводстве: Материалы всероссийской научно-практической конференции 20-21 марта 2015 года, Санкт-Петербург, 20–21 марта 2015 года / Северо-Западный филиал ФГБОУВО «Российский государственный университет правосудия»; Международная ассоциация содействия правосудию. Том Часть I. – Санкт-Петербург: Северо-Западный филиал Федерального государственного бюджетного образовательного учреждения высшего образования "Российский государственный университет правосудия", 2016. – С. 55-67. – EDN WIFZLD. https://elibrary.ru/download/elibrary_26515115_24989144.pdf

2.62. Джаноян Г. Р. Справедливость судебного разбирательства в уголовном судопроизводстве // Северо-Кавказский юридический вестник. – 2009. – №. 4. – С. 92-95. <https://cyberleninka.ru/article/n/spravedlivost-sudebnogo-razbiratelstva-v-ugolovnom-sudoproizvodstve>

2.63. Титова А. В. Понятие правосудности и справедливости приговора по российскому уголовному праву // Философия права. – 2009. – №. 5. – С. 117-119. <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-pravosudnosti-i-spravedlivosti-prigovora-po-rossiyskomu-ugolovnomu-pravu>

2.64. Artificial Intelligence 'Judge' to Predict Outcome in European Court Trials? University Scientists Develop Software // URL: <https://www.universityherald.com/articles/45702/20161024/artificial-intelligence-judge-predict-outcome-european-court-trials.htm>

2.65. Мамаева, А. А. Оправдательный приговор - решение суда апелляционной инстанции по уголовным делам / А. А. Мамаева // ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ: ПОТЕНЦИАЛ науки и СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ : сборник статей II Международной научно-практической конференции, Пенза, 20 апреля 2018 года. – Пенза: "Наука и Просвещение" 111 (ИП Гуляев Г.Ю.), 2018. – С. 249-252. – EDN LBMBQD. <https://elibrary.ru/item.asp?id=32841030>

2.66. Заплата Т.С. Искусственный интеллект в вопросе вынесения судебных решений, или ИИ-судья // Вестник Университета имени О. Е. Кутафина. 2019. №4 (56). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/iskusstvennyu-intellekt-v-voprose-vyneseniya-sudebnyh-resheniy-ili-ii-sudya>

2.67. Якушева Тамара Василевна Значение состязательности для постановления законного, обоснованного и справедливого приговора // Известия АлтГУ. 2005. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/znachenie-sostyazatelnosti-dlya-postanovleniya-zakonnogo-obosnovannogo-i-spravedlivogo-prigovora>

2.68. ЛАВРЕНТЕВА Т. О. «СПРАВЕДЛИВОСТЬ» В УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ //Алманах молодого исследователя. – 2020. – №. 8. – С. 75-79. https://www.procuror.spb.ru/ik2019_2/t015.pdf

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

3.1. Code of Criminal Procedure as published on 7 April 1987 (Federal Law Gazette I, p. 1074, 1319), as last amended by Article 2 of the Act of 25 March 2022 (Federal Law Gazette I, p. 571). https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stpo/englisch_stpo.html 117

3.2. Уголовно-процессуальный кодекс Грузии. Законодательный Вестник Грузии-ЗВГ, 31, 03/11/2009. <https://matsne.gov.ge/ru/document/view>

3.3. Кодекс КР от 28 октября 2021 года № 129 "Уголовно-процессуальный кодекс Кыргызской Республики". <https://cbd.minjust.gov.kg/112308/on/8273/ru>

3.4. "Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации" от 18.12.2001 N 174-ФЗ (ред. от 29.05.2024) (с изм. и доп., вступ. в силу с 01.07.2024). https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34481/

3.5. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Молдова от 14 марта 2003 года № 122-XV (с изменениями и дополнениями по состоянию на 01.03.2024 г.). https://continent-online.com/Document/?doc_

3.6. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Беларусь от 16 июля 1999 года № 295-3 (с изменениями и дополнениями по состоянию на 17.07.2023 г.) https://continent-online.com/Document/?doc_

3.7. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Таджикистан от 3 декабря 2009 года (с изменениями и дополнениями по состоянию на 03.01.2024 г.) https://continent-online.com/Document/?doc_id=